
RAVSHAN RAJABOV



QADIMGI SHARQ
HARBIY SAN'ATI

RAVSHAN RAJABOV

QADIMGI SHARQ HARBIY SAN'ATI



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2018

UO'K: 94(100) (075)

KBK: 63.3 (0)

R-17

Rajabov, Ravshan

Qadimgi sharq harbiy san'ati: ilmiy risola / Ravshan Rajabov,
– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 136 b.

ISBN 978-9943-20-407-2

Risolada qadimgi sharq davlatlarida harbiylarning paydo bo'lishi va armiyalar tashkil etilishi haqida tarixiy ma'lumotlar beriladi. Qadimgi sharqning harbiy san'ati juda boy bo'lib, bu alohida ilmiy-tadqiqot mavzusidir.

Harbiy san'at tarixi insoniyat tarixining bir qismi. Harbiy san'at tarixini o'rganish barqaror taraqqiyotni belgilashda, zamonaviy armiyaning o'rnini anglashga yordam beradi. Mamlakatimiz daxlsizligi va chegaralarining xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan harbiylar harbiy san'at tarixini atroficha o'rganishlari o'z xizmat vazifalarini samarali bajarishga yordam beradi. Bu notinch dunyoda hali urush xavfi mavjud ekan, mamlakat xavfsizligini ta'minlashda yosh avlodni harbiy sohani o'rganish asosida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hayotiy zaruriyat bo'lib qolaveradi.

Ushbu risola tarix ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, o'quvchilar va shu mavzuga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

S.G'YOSOV,

NDPI «Tarix o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar:

S.G'YOSOV, NDPI «Tarix o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti

D.SATTOROV,

Navoiy shahar 16-maktab tarix fani metodist o'qituvchisi

*Ilmiy risola Navoiy Davlat pedagogika instituti ilmiy
kengashining 1.02.2015-yil 7/1-qarori bilan nashr etishga
tavsiya etilgan.*

240852

ISBN 978-9943-20-407-2

© R.Rajabov, «Qadimgi sharq harbiy san'ati». «Yangi asr avlodi», 2018-yil.

QADIMGI DUNYO HARBIY SAN'ATI

KIRISH

Insoniyat sivilizatsiyasining ilk davri – odamlar jamoasi paydo bo'lishi bilan urushlar ularning hamrohi bo'ldi. Urug'-qabilalar o'rtasida ov hududlari, o'tloqlar, ekin yerlari, suv havzalari uchun doimiy to'qnashuvlar yuz berdi. Ana shu davrda harbiy jang san'atining ilk unsurlari paydo bo'ldi. Urug'-qabilalarda boshqa dushman qabilalarning tazyiqidan o'z hududini himoya qilish hayotiy zaruriyat bo'lib qoldi. Ibtidoiy jamoa davrida jamoaning har bir a'zosi o'zini, jamoasini himoya qilish uchun ma'lum bir harbiy ko'nikmaga ega bo'lishi, doimo himoyaga tayyor turishi lozim edi. Shu sababli urug'ning har bir balog'atga yetgan a'zosi kamondan nishonga olish, nayza otish, qo'l jangi, chavandozlikni o'rganishi shart edi. Vaqt o'tishi bilan otda turib jang qilish paydo bo'ldi. Urug' jamoasining so'nggi davrida har bir urug'-qabilada urush san'atini atroflicha o'rgangan kichik jangchi qismlar shakllandi. Ularning asosiy vazifasi urug'-qabilani dushman hujumidan himoya qilish, bo'sh vaqtda harbiy soha bilan shug'ullanish, jang san'atini o'zlashtirish bo'lib qoldi.

Urug'-qabilalarda harbiy sohaning ahamiyati ortib borishi bilan harbiy yo'l boshchining nufuzi ham oshib bordi. Ana shunday tarzda harbiy kasb vujudga keldi. Ilk bor ibtidoiy mudofaa to'siqlari urug'-jamoqa qishloqlari atrofida paydo bo'lib, ular keyinchalik mustahkamlangan qo'rg'on-qal'a vazifasini

o'tay boshladi. Dushman hujumidan yashirinadigan harbiy manzilgohlar paydo bo'ldi.

Insoniyat tarixining birinchi kunlaridayoq o'z xavfsizligini ta'minlash uchun harbiy sohani yo'lga qo'yib, hozirgi kungacha bu sohada misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. Davlat va jamiyatlar paydo bo'lishi bilan harbiy tashkilotning ilk ko'rinishlari bo'lgan ko'ngillilardan tuzilgan harbiy qismlar paydo bo'lib, keyinchalik ular dahshatli kuchga – haqiqiy armiyaga aylandi. Bu armiya mamlakat xavfsizligi, chegaralarni qo'riqlash bilan birga o'zga mamlakatlarni istilo qiladigan hujumkor kuchga aylandi. Qurol-yarog'lar takomillashtirilib, ularning yangi turlari paydo bo'ldi. Urush olib borishning ilk qonun-qoidalari yuzaga keldi. Armiyaning tashkiliy tuzilmasi rivojlandi. Davlat hokimiyati armiyani tashkillashtirish va ta'minotini o'z zimmasiga oldi. Paydo bo'lgan yangi ijtimoiy qatlam harbiylarning huquq va majburiyatlarini belgiladi va bu qatlamni o'z himoyasiga oldi. Davlat paydo bo'lishi arafasida vaqtinchalik harbiy birlashmalar paydo bo'ldi, keyin ular qabila boshlig'ining harbiy bo'linmasini tashkil qildi.

Davlat va jamiyat paydo bo'lishi bilan ilk armiya tuziladi. Ayrim kishilar uchun harbiy ish kasbga aylana boshladi. Bu harbiy tashkilotning ilk kurtagi edi. Harbiy tashkilotning eng muhim xususiyati harbiy intizom, harbiy texnika va harbiy tashkilot shaklining mavjudligi edi. Harbiy intizom bu – shaxsiy tarkibning butun kuchini jangovar topshiriqni bajarish maqsadiga yo'naltirish edi. Ilk harbiy tartib-qoidalar paydo bo'ldi. Jangchining harbiy boshliqqa so'zsiz bo'ysunish qoidasi yuzaga keldi. Bo'ysunish subordinatsiyasiga asoslandi, boshqacha aytganda, harbiy boshliqning so'zi – bo'ysunuvchi uchun so'zsiz bajarilishi kerak bo'lgan qonundir. Bu qoida armiyani jipslashtirib, uning jangovar qobilyatini ku-

chaytirdi. Harbiy intizomning o'ziga xos xususiyati u asosan majbur qilishga asoslanganligidadir.

Dunyo tarixidagi ilk davlatlar mil. avv. IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlarida qadimgi sharqning turli hududlarida paydo bo'ldi. Bu davlatlarda siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlash maqsadida harbiy soha ham rivojlana boshladi. Bu davlatlar uchun eng muhim vazifalardan biri mamlakatning tashqi chegaralarini dushmanidan himoya qilish, mamlakat ichida barqarorlikni ta'minlash edi. Shu sababli harbiy soha yo'lga qo'yildi, shu soha bilan shug'ullanadigan odamlar va davlat hokimiyatining alohida organi paydo bo'ldi. Dastlab aholidan to'planadigan ko'ngilli armiya, keyinchalik muntazam armiya tashkil topdi. Harbiy tashkilot davlat hokimiyatining eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Osuriya, Xett, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda istilochilik urushlari va chegaralarning daxlsizligini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan dastlabki armiyalar paydo bo'ldi.

Piyoda armiya. Dastlab mamlakatga tashqi dushman hujum qilgan paytda aholining turli qatlamlaridan yig'iladigan armiya tuzildi. Mamlakat himoyasi uchun to'plangan bu armiya qo'lga nima tushsa (oddiy tayoq, bolta, pichoq va h.k.), shu bilan qurolangan piyodalar bo'lgan. Asta-sekin o'q-yoy, kalta va uzun nayza paydo bo'ladi. Bu armiya harbiy boshliq boshchiligida dushman kuchlari bilan duch kelgan joyda tartibsiz urushga kirgan.

Yollanma askarlar. Dunyo tarixida ilk yollanma askarlar Misrda paydo bo'lgan. Misrning g'arbiy qo'shnisi – liviyaliklar, janubiy qo'shnisi – efopiyaliklar Misr armiyasida yangi podsholik davridan boshlab, ma'lum bir haq evaziga yollanma askar bo'lib xizmat qila boshlaganlar. Lekin yollanma askarlar

ishonchli bo'lmaganlar, aksariyat hollarda ular dushman armiyasi ko'proq haq to'lashni va'da qilsa, o'sha tomonga o'tib ketganlar.

Otliq armiya. Otliq qismlar birdan paydo bo'lmadi. Otlarning biologik tur sifatida genezisi 56 mln yil davom etdi. Bundan 2 mln yil oldin hozirgi otlarning tezyurar o'txo'r podalari janubiy Sibir, O'rta Osiyo dashtlarida kezib yurar edi. Ot bronza davrida yoki undan oldinroq xonakilashtirilgan bo'lishi mumkin. Madaniylashgan otlar janubiy va sharqiy Sibir, ehtimol O'rta Osiyodan G'arbiy Osiyoga, mil.avv. XVIII asrda Afrikaga tarqalgan. Ilmiy adabiyotda ekvus deb ataladigan otning ajdodlaridan Prjevalskiy oti, yovvoyi eshak va zebraning uch turi saqlanib qolgan. Otlardan ilk bor ko'chmanchi chorvadorlar foydalalandilar va o'troq jamiyatlarga uzatdilar. Mil. avv. II ming yillikdan boshlab otlardan yuk tashish, transport vositasi sifatida foydalanilgan. Otlardan ilk bor ko'chmanchi qabilalar harbiy maqsadlarda foydalan-ganlar. Mil. avv. II ming yillikning I yarmida old Osi-yodagi barcha qudratli davlatlar jang aravalariga ot-larni qo'shdilar. Old Osiyoda ilk bor otliq qismlar Mi-tannida, mil. avv. IX asrda Osuriyada paydo bo'lgan. Otliq qismlar vaqt o'tishi bilan jang aravalarini siqib chiqardilar. Jang aravaları mil. avv. I ming yillikning II asrigacha davlatlar armiyasining zarbdor qismini tashkil etgan. Ayniqsa, Ahmoniylar Eroni armiyasida jang aravalarining g'ildiraklariga o'roqlarning o'rnati-lishi jang aravasini yanada dahshatli qilgan. O'roqlar dushman askarlarining oyoqlarini kesib tashlagan, bu dushman saflarida dahshat tug'dirgan. Lekin ot-liq qismlar jang aravalarini siqib chiqardi.

Arabiston yarim orolidagi arab qabila va davlatla-ri, Ahmoniylar Eroni, keyinchalik Hindistonda tuyalar minib jang qiladigan harbiy qismlar mavjud bo'lgan. Tuyaning vatani Amerika hisoblanadi, uchlam-

chi bosqichdan keyin tuya hozirgi joylarga tarqaladi. Amerikada esa o'lib ketadi. Tuyaning ikki o'rkachli (*Camelus bactrianus*) va bir o'rkachli (*camelus dromedarius*) turlari xonakilashtirilgan. Ikki o'rkachli tuyalarning vatani Gobi cho'llari, bir o'rkachli tuyaning vatani Arabiston yarim oroli hisoblanadi. Tuyaning xonakilashtirilgan joyi Turon va Eron hisoblanadi.

Harbiy ishda quruqlik armiyasi bilan birga dengizga yaqin joylashgan davlatlarda harbiy dengiz floti ham shakllanib borgan. Ilk bor kemasozlik bilan Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida yashagan finikiyaliklar shug'ullanganlar. Dengiz qirg'og'ida finikiyaliklarning Tir, Sidon, Bibl va Arvad shaharlarida hunarmandchilik va savdo gullab yashnaydi. Finikiyaliklar dunyo tarixida birinchi bo'lib kemalar qurib, dengiz sayohatiga chiqadilar, ular dengiz orqali savdoni yo'lga qo'yanlar. Dengiz sayohati xavfli bo'lgani uchun ular kemalarni harbiy maqsadlarga moslab jihozlaydilar. Finikiya harbiy kemasi tor va uzunligi 30 metr atrofida bo'lib, ikki qator eshkakli va tezyurar bo'lgan. Tezyurar finikiya kemasining asosiy qurolli bronza bilan qoplangan og'ir taran edi. Finikiyaliklarning kemalaridan old Osiyo davlatlari harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Finikiya harbiy floti ma'lum bir haq evaziga boshqa davlatlarning dengizdagi urushlarida ishtirok etganlar. Qadimgi Misr, Osuriya, Eron, Hindiston va Xitoy o'z harbiy dengiz flotini shakllatirganlar.

Razvedka xizmati. Qadimgi davlatlarda razvedka xizmati asta-sekin harbiy sohaning rivojlanishi bilan takomillashib borgan. Dastlab qo'shni davlatning iqtisodiy-siyosiy holati, harbiy sohaning ahvoli – armiyasining jangovar qobiliyati to'g'risida ma'lumotlar yig'ilgan. Qo'shni raqib davlat to'g'risida ma'lumot olishda shu mamlakatda yashaydigan o'z qabiladoshlaridan foydalanilgan. Ko'pincha an'anaviy ravishda

sayyohlar, savdogarlarning ma'lumot va xabarlaridan foydalanilgan. Urush xavfi tug'ilgan paytda razvedka jonlangan, raqib mamlakatga ayg'oqchilar maxsus topshiriqlar bilan yuborilgan. Dushman mamlakat hududida aholi orasida har xil yolg'on-uydirmalar tarqatilib, aholini qo'rquv va vahimaga tushirish, o'z davlat hokimiyatiga ishonchsizlik tug'dirishga harakat qilingan. Bu usuldan qadimgi Osuriya davlati unumli foydalangan. Urush paytida dushman hududi aholisiga psixologik tazyiq o'tkazilgan: asirlarni tiriklay terisi shilingan, qoziqqa o'tqazib qatl qilingan, go'daklar, ayollar vahshiyona o'ldirilgan. Bu osur armiyasiga xos bo'lgan. Shu sababli osur armiyasining bostirib kelayotganini eshitgan dushman askarlari jangsiz taslim bo'lgan.

Strategiya va taktika. Dastlab qadimgi armiyalarda strategiya va taktika mavjud bo'lmagan. Qo'shin jang qilishi uchun maxsus joy tanlanmagan. Raqib armiyalar duch kelgan joyda to'qnashib, tartibsiz jangga kirishgan. Har holda urush vaqtida armiyaning saflanib jangga kirishi asta-sekin yuz beradi. Mil. avv. II ming yillikda Misr armiyasi qismlarga bo'linib jangga kirgan. Armiyaning alohida qismlariga ilohlarning nomlari berilgan. Qadimgi Xitoy qo'shiqlaridan birida Qadimgi Chjou sulolasi davrida (mil. avv. XII-VIII asrlar) xitoy armiyasi dushmanga qarshi urushga «to'p bo'lib yurmasdan saf-saf bo'lib» borishlari to'g'risida ma'lumot beriladi.¹ Keyinchalik harbiy soha tajribasi ortib borishi bilan shu sohaga mas'ul davlat mahkamasi va zobitlar paydo bo'lgan. Harbiy mahkama armiyani tashkillashtirish hamda urush taktikasi va strategiyasi bilan shug'ullana boshlagan.

Qurol-yarog' va moddiy-texnika ta'minoti. Boshda qo'shin ta'minoti deyarli mavjud bo'lmagan.

¹ Avdiyev V.I. Qadimgi sharq tarixi. -Toshkent: 1964-yil. 754-bet.

Urush xavfi tug'ilganda qo'shin aholidan, ko'ngilli jamoachi dehqonlardan to'plangan. Ko'ngillilar o'zi bilan oziq-ovqat, qurol olib kelishi shart bo'lgan. Qurol juda oddiy bo'lib, kaltak, nayza va kamondan iborat bo'lgan. Hatto issiq iqlimli mamlakatlarda askarlarda oyoq kiyimi bo'lmagan, kiyim faqat belidan pastni o'ragan poxol yoki mato parchasidan iborat bo'lgan (Misr, Nubiya). Armiya orqasidan harbiy yurish vaqtida armiyaga xizmat ko'rsatadigan savdogar-markitantlar ergashib yurganlar. Savdogar-markitantlar armiyaga zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, yem-xashak va boshqa kerakli buyumlar bilan savdo qilganlar. Askarlardan urushdan tushgan o'ljani, asirlarni sotib olganlar. Armiya turgan qarorgoh yonida vaqtinchalik oshxonalar tashkil etganlar. Epchil savdogarlar askarlar ko'ngilxushligi uchun suyuq-oyoq ayollarni armiya orqasidan olib yurganlar.

Boshda mamlakat aholisidan to'plangan ko'ngilli askarlar o'z quroli va oziq-ovqati bilan harbiy xizmatga kelgan. Asta-sekin muntazam armiya tashkil etilishi bilan davlat hokimiyati armiyani qurol-yarog' bilan ta'minlashni o'z zimmasiga ola boshlagan. Zodagon zobitlar o'z hisoblaridan qurollanganlar. Davlatga tegishli qurol-yarog' ustaxonalari paydo bo'lgan. Qadimgi Misr va Xett davlatlarida jang aravalari davlat ustaxonalarida tayyorlangan. Shahar, qal'alarni qamal qilish uchun kerakli bo'lgan uskuna va mexanizmlar ham davlat korxonalarida tayyorlangan. Armiya ta'minoti juda yomon ahvolda bo'lgan.

Aloqa xizmati. Qadimgi davlatlarda urush harakatlari paytida aloqa xizmati yo'lga qo'yilgan. Ammo yo'llarning yomonligi aloqa xizmatini qiyinlashtirgan. Ayrim davlatlarda aloqa xizmatidan unumli foydalanilgan. Misol uchun, Ahmoniylar Eroni davlatida aloqa xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan, uch ming km uzunlikdagi shox yo'li bepayon mamlakatni birlashti-

rib turgan. Shu bilan birga davlat xavfsizligini ta'minlashda, armiyani jadal harakatlanishida va harbiy aloqa xizmatini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi. Qadimgi davlatlarda harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasiga ham e'tibor qaratilgan. Bobil va Xett davlatlarining qonunchiligida askarlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan bir necha moddalar mavjud.

Armiyaga rahbarlik. Qadimgi Sharq armiyalarida bosh qo'mondon vazifasini podsho bajargan. Barcha podshohlar yoshligidan harbiy sohani atroflicha o'rganganlar. Podshohlar istilochilik urushlarda armiyaga o'zlari boshchilik qilganlar. Shaxsan o'zlari jangga kirganlar. Armiyalarda zobitlar, ya'ni harbiy qism, polk boshlig'i kabi professional harbiylar asta-sekin shakllangan. Boshda aksariyat zobitlar oqsuyak – zodagonlardan kelib chiqqan bo'lgan. Keyinchalik boshqa quyi tabaqalardan ham zobitlar safiga olingan. Harbiylar jamiyatning imtiyozli tabaqalaridan biri bo'lgan.

Harbiy san'at nazariyasi. Qadimda harbiy soha rivojlanib borishi bilan urushlarda to'plangan tajribalar muntazam tahlil qilib borilgan. Hukmdorlar, lashkarboshilar uchun harbiy sohani yo'lga qo'yish yoki urush olib borish bo'yicha turli ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mil. avv. I ming yillikda Hindiston va Xitoyda ilk harbiy san'at nazariyasi asoslari paydo bo'lgan. Manu qonunlarida qadimgi hind san'atiga tegishli ma'lumotlar mavjud. Qadimgi Xitoyda harbiy san'at tafakkuri bo'yicha bir necha asarlar bizgacha yetib kelgan.

Harbiy san'at harbiy sohaning mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Harbiy san'at tarixini o'rganish barqaror taraqqiyotni ta'minlashda, zamonaviy armiyaning o'rnini anglashga yordam beradi. Afsuski, urush qadimdan insoniyatning doimiy hamrohi bo'lib kelmoq-

da. Mamlakatimiz daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan harbiylar harbiy san'at tarixini atroflicha o'rganishlari o'z xizmat vazifalarini samarali bajarishda yordam beradi. Bu notinch dunyoda hali urush xavfi mavjud ekan, harbiy san'at tarixini o'rganish mamlakat xavfsizligini ta'minlashda, yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hayotiy zaruriyat bo'lib qolaveradi.

Ushbu risola tarix ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, o'quvchilar va shu sohaga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

QADIMGI MISR ARMIYASI

O'shanda janob oliylari o'z armiyasi boshchiligida ularni yengdi. Va janob oliylari ularning yengayotganini ko'rib, yuzlarida to'la qo'rquv bilan Megiddoga qochdilar. Ular o'z otlari va oltin, kumush aravalarini tashladilar va ularni bu shaharga kiyimlarini arqon qilgan holda tortib oldilar.

Yangi podsholik fir'avni davridagi Tutmos III annallaridan

Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida Misr armiyasi

(mil.avv. XXIX–XVIII asrlar)

Dunyo tarixida ilk davlat va jamiyat mil. avv. IV ming yillik so'ngida qadimgi Afrikaning shimoliy sharqida, Nil daryosi vodiysida Misrda paydo bo'ldi. Qadimgi Misr davlati tarixi mil. avv. IV ming yillikdan mil. avv. I asrgacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi. Misr tarixi qadimgi, o'rta, yangi va so'nggi podsholiklarga bo'linadi. Boshda mavjud bo'lgan 42 ta kichik davlatchalarning hokimlari o'zlarini kam sonli harbiy bo'linmalariga ega bo'lgan. Urush xavfi bo'lgan vaqtda aholidan ko'ngillilar harbiy ishga jalb etilganlar.

Qadimgi Misrda dastlab harbiy armiyaning muntazam ko'rinishi ilk sulola davridan paydo bo'lgan. Qadimgi Misr tarixi bir necha podsholiklarga bo'linadi. Qadimgi podsholik davrida (2800–2275-yillar) fir'avnlar aholidan ko'ngillilardan to'plangan armiya tuzgan. Shu vaqtdan boshlab Misr fir'avnlari janubda hozirgi Sudan, g'arbda hozirgi Liviya va shimoliy-sharqiy chegaralarda Suriya, Falastinga o'lja, xomashyo va qullar uchun ko'plab istilochilik urushlari olib borganlar. Qadimgi podsholik davrida urush-

lar natijasida mis xomashyosiga boy bo'lgan Sinay yarim oroli Misrga to'la qo'shib olinadi. Qadimgi podsholik davri fir'avnlari armiya negizi bo'lgan fir'avn tansoqchilariga ega bo'lganlar, ular urush vaqtida ofitser bo'lib, ko'ngillilarga boshchilik qilganlar.

Qadimgi podsholik davridagi jang qilayotgan Misr harbiy qismlari tasvirlari bizgacha yetib kelgan. Jangchilar to'g'riburchakli qalqon bilan himoyalaniib, nayza, oybolta va gurzi bilan qurollanganlar. O'rtada harbiy boshliq va uning yonida do'mbirachi askarlarini ruhlantirib, jangga chorlamoqdalar.

Mamlakat chegaralarini qo'shni ko'chmanchi qabilalardan himoya qilish hamda asosiy savdo yo'llarini o'z ta'siri ostida ushlab turish maqsadida harbiy kuch kerak edi. Misrda urush xafvi tug'ilganda aholidan ko'ngillilar, Misr qishloq jamoalaridan to'plangan ko'ngillilar asosan yosh yigitlardan iborat edi. Harbiy boshqaruv fir'avn (hukmdor) qo'lida to'plangan. Davlat miqyosida harbiy soha «qurol uyi» nomli oliy harbiy muassasa tomonidan amalga oshirilgan. Bu tashkilot Misr armiyasida armiya qurol-yarog'i, qal'alar qurilishi va armiya ta'minoti bilan shug'ullangan. Bizgacha yetib kelgan ba'zi tasvirlar harbiy safning mavjud bo'lgani, turli harbiy unvonlar to'g'risida ma'lumot beradi. Ilk mudofaa – harbiy inshootlarni qurish boshlanib, dushman qal'alarini qamal qilishning ilk uquvi paydo bo'ldi.

Bizgacha mil. avv. 2700–2100-yillar atrofidagi qadimgi podsholik davri askarlarining yog'och haykalchalari yetib kelgan. Bu askarlarning yog'och haykalchalari orqali askarning qurol-aslahasi to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Qadimgi podsholik armiyasi tosh uchli cho'qmor, mis yoki tosh bolta, tosh parrak, uchli nayza, tosh yoki mis xanjar bilan qurollangan edi. Ilk sulola davrida esa (mil. avv. IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlari) bumerang, uchi o'tkirlangan oddiy tayoq keng qo'llanilgan. Asosiy qurol kamon va jangovar bolta

edi. Himoya vositasi sifatida askarlar teri tortib yasalgan yog'och qalqondan foydalanganlar. Armiya alohida qism (otryad)lardan tuzilgan. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, askarlar ma'lum darajada harbiy tayyorgarlik ko'rganlar. Armiyada maxsus harbiy mashq boshligi bo'lgan. Qadimgi podsholik davridayoq askarlar qator bo'lib saflanganlar. Barcha askarlar safda bir xil qurolga ega bo'lgan.

Mil. avv. III ming yillikda harbiy san'at tushunchasi hali shakllanmagan edi. Armiya qo'mondonlari taktika to'g'risida ilk tushunchalarga ega bo'lganlar. Bo'lg'usijang rejasi tuzilmagan. Lashkarboshi dushman turgan joyga o'z qismlarini boshlab borgan. Armiyalar to'qnashib, jang boshlangan. Raqiblar bir-birlariga o'q yog'dirganlar va qo'l jangiga kirishganlar. Bu janglar hech qanday reja asosida olib borilmagan. Jangchi sovuq qurolni ishlatish texnikasi to'g'risida tushunchaga ega bo'lmagan. Qilich va kaltaklar bilan raqibining duch kelgan joyiga zarba berilgan.

Qadimgi podsholik davridan boshlab misrliklar mudofaa inshootlarini qura boshladilar. Bu davrda qal'alar turli shakl (aylana, oval, to'rtburchak)larda qurilgan edi. Qal'a devorlari ba'zida kesik konus shaklidagi yuqorida maydon va brustver bilan aylana minoraga ega bo'lgan. Abidos yonidagi qal'a to'g'ri burchakli qilib qurilgan; uning tomonlari uzunligi 125 va 68 m, devorlari balandligi 7-11 m, yuqori qismining qalinligi 2 m edi. Qal'aga bir asosiy va ikki qo'shimcha kirish joyi bo'lgan.

Keyinchalik mamlakat janubiy chegaralari hududi Semne va Kumneda qurilgan mudofaa inshootlari devorlar, minoralar va oldinga chiqib turgan qismlar bilan murakkab mudofaa inshootlarini tashkil qilgan. Qal'alarni shturm qilishda misrliklar yog'och diskli g'ildirakchalari bo'lgan narvonlardan foydalanar edilar, bu g'ildirakchalar qal'a devori bo'ylab narvonni olib yurish va devorga qo'yishni yengillash-

tirgan. Qal'a devorlari maxsus ishlangan uchi o'tkir katta qurilma bilan teshilar edi.

O'rta podsholik davrida harbiy san'at (mil.avv. XXI-XVIII asrlar). mil. avv. XXI asrda Misr janubdagi Gerakleopol nomarxlari tomonidan birlashtirildi. Shu davrdan O'rta podsholik boshlandi (mil. avv. 2100-1750-yillar). O'rta podsholik davrida Misr hududi taxminan 35 ming kv. kmni, aholisi 7 mln kishini tashkil etar edi. Bu davrda Misr janubga qo'shni Nubiya (hozirgi Sudanga) g'olibona yurishlar uyushtirib, uning bir qismini qo'shib oldi. Chegarada mudofaa inshootlari, qal'alar barpo qilindi. Faol tashqi siyosat yurish va bosqinlarga asoslangan edi. Bu esa harbiy ishni aniq tashkil qilishni talab qildi. Aholidan armiya yig'ish uchun aholini ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilgan. O'rta podsholik davrida aholi ichidan armiya tarkibiga askarlar ro'yxat asosida amalga oshirildi va shu tarzda asta-sekin muntazam armiya shakllandi. Ma'lumotlarga ko'ra, har bir nomdan (viloyatdan) 100 erkakdan bir askar olingan. Armiya tarkibiga podshoning shaxsiy tan soqchilari kirgan. Armiya 6, 40, 60, 100, 400, 600 hatto 3000 askardan iborat qismlarga bo'lingan. Misr armiyasi bir necha o'n ming askardan iborat bo'lgan. Harbiy yurishga, odatda, bir necha ming askar to'plangan; fir'avnlr yozuvlarida 3 ming, 10 ming askarni tashkil etgan qismlar (otryad) tilga olinadi. Bundan tashqari qo'shni qaram Nubiya qabilalaridan ham qandaydir shartlar asosida askarlar olinar edi. Askarlar harbiy xizmatlari uchun podshodan yer ulushlari olgan, harbiy boshliqlar esa turli mukofotlar, xizmatda yuqori darajaga ko'tarilish, yer, chorva va qullar olganlar. Alohiga harbiy xizmatlari uchun podshoning «oltin maqtovi» joriy qilingan, u bilan taqdirlanish sharaf hisoblangan, zodagonlar qimmatbaho qurol bilan taqdirlanganlar.

Siut nomarxi Mesexti sag'anasidagi yog'och modelda X sulola davri Qohira muzeyi tasvirlangan.

O'rta podsholik (2133–1786) davrida Mesexiti sag'anasidagi tasvirlar bo'yicha yaratilgan askarlarning yog'och haykalchalari bizgacha yetib kelgan. Bu haykalchalarda qo'shni mamlakat Nubiyadan yollangan askarlar tasvirlangan. Ular oddiy kamonlar bilan qurollangan. Nayzachilar yarim oval qalqon bilan himoyalangan. Haykallarda nayza va kamonlar bilan qurollangan askarlarning ikki qismi tasvirlangan.

Dunyo tarixida ilk bor qadimgi Misrda yollanma askarlardan foydalanish boshlandi. Misr fir'avnlari qo'shni Nubiya qabilalaridan yollanma askarlar olganlar. Yollanma askarlar ma'lum bir haq evaziga jang qilganlar. Qadimgi podsholik davrida qalqonlar to'g'ri burchakli shaklda edi. Bunday katta teri tortilgan qalqonlar bilan qurollanishning sababi askarlar boshqa hech qanday himoya vositasiga ega emas edilar. Lekin bu qalqonlar juda og'ir bo'lgan. Shu sababli O'rta podsholik davrida yengil va kichik hajmli qalqonlar paydo bo'la boshladi.

O'rta podsholik davrida Misr askarlarining qurollari ancha yaxshilangan. Chunki metallga ishlov berish takomillashdi. Endilikda kamon va nayza paykonlari (uchlari) jezdan yasaldi. Zarba beradigan qurollar ilgirigidek jangovar bolta, uzunligi 2 m gacha nayza, cho'q-mor va xanjar edi. Uloqtiriladigan qurol sifatida kalta nayza, bumerang va tosh otadigan sopqon qo'llanilgan. O'qni uzoqqa otadigan, aniq nishonga tegadigan takomillashgan kamon paydo bo'ldi. Kamon o'qlari turli xil shakllardagi uchlar va dumga ega edi. Ularning uzunligi 55 sm dan 100 sm gacha bo'lgan. Qadimgi Sharqda, odatda, kamon o'qi uchlari yaproqsimon ko'rinishda, kremniy, mis, jezdan bo'lgan, lekin samarasi kamroq bo'lib, sak-skif kamon o'qlariga tenglasha olmagan. Sak-skiflarning kamon o'qlari uchlari qirrali – suyak yoki jezdan bo'lib, nihoyatda aniq nishonga tekkan. Misr armiyasida kamondan aniq nishonga otish 150-

180 smni, bumerang va irgʻitiladigan kalta nayzani otish masofasi 50 m ni tashkil etgan. Teri qoplangan qalqon odam gavdasining yarmiga teng kelib, yagona himoya vositasi boʻlib qolavergan.

Oʻrta podsholik davrida armiyani tashkil etish takomillashdi. Soni 6, 40, 60, 100, 400 askardan iborat harbiy boʻlinmalar tuzildi. Qismlar (otryad) 2, 3, 10 ming askarni tashkil etdi. Askarlar bir xil qurol – nayza va kamon bilan qurollantirildi. Harbiy harakatlanish uchun saf tortish tartibi joriy etilgan boʻlib, front boʻyicha 4 qator va ichkariga 10 qator boʻlib harakat qilar edilar. Oddiy askarlarning xizmatdagi yutuqlari, xizmat muddatini oʻtagani uchun kichik yer ulushi bilan ragʻbatlantirilgani toʻgʻrisida manbalarda maʼlumotlar bor. Harbiy boshliqlar oʻz xizmatlari uchun xizmat lavozimlariga koʻtarilib, yer, qullar, chorva olganlar, «maqtoʻv oltini» (ordenga oʻxshash) va ziynat berilgan jangovar qurol bilan taqdirlanganlar. Oʻrta podsholik firʼavnlari mamlakat chegaralari xavfsizligini taʼminlashga katta eʼtibor berganlar. Mudofaa inshootlari tizimi ham paydo boʻladi. Janubiy chegaralarni qoʻriqlash uchun Nilning birinchi, ikkinchi ostonalari havzasida qalʼalarning uch liniyasi qurilgan.

Qalʼalar qurilishi yanada takomillashdi, jumladan, qalʼa devorlarida askarlarni pana qiladigan tishlar, devorga yaqin keladiganlarni oʻqqa tutadigan, yaʼni devordan turtib chiqib turadigan minoralar, qalʼa devoriga chiqishni qiyinlashtiradigan xandaqlar bunyod qilingan. Qalʼa darvozalari minoralar bilan himoyalangan. Qoʻqqisdan hujum uchun uncha katta boʻlmagan chiqish joylari qurilgan. Qalʼani suv bilan taʼminlash uchun quduqlar qazilib, daryoga yashirin chiqadigan yoʻllar qilingan.

Mirgisdagi bu davrga oid saqlanib qolgan qalʼa qoldiqlari toʻgʻri burchak shaklida qurilgan. Mirgisdagi qalʼa murakkab mudofaa inshooti edi. Bu qalʼa

10 m balandlikdagi ichki devor, har birining oraligi 30 m bo'lgan devordan chiqib turadigan minoralar va kengligi 8 m bo'lgan xandaqqa ega. Ichki devordan 25 m dan keyin qurilgan tashqi devor qal'ani uch tomondan o'rab turadi, to'rtinchi tomondan qoya dar-yoga tik tushib turadi. Tashqi devor kengligi 36 m bo'lgan xandaq bilan o'ralgan.

Yurishlar vaqtida armiya ta'minotiga katta ahamiyat berilgan. Qadimgi Misr yozuvlaridan birida shunday ma'lumotlar keltiriladi: «Men 3000 kishilik armiya bilan yurdim ... har biri uchun kuniga ikki ko'za suv va 20 ta non va xachirlarga sandaqlar yuklangan edi». Yurish vaqtida bu qism (otryad) o'zini suv bilan ta'minlashi uchun 20 quduq qazishga to'g'ri keladi.

Misrda armiyaning asosiy qismini tashkil etgan piyoda askarlar nayza bilan qurollanib, qalqon bilan himoyalanganlar. Askarlar faqat lungi bilan o'ralib, oyoq kiyimsiz saf tortganlar va jang qilganlar. Bu vaqtdagi Misr yozuvlarida «zarbdor qismlar» to'g'risida eslatiladi. Ular janglarda suyagi qotgan tajribali askarlar bo'lsa kerak. «Fir'avn xizmatchilari» (Qadimgi Misrda «Fir'avn xizmatchisi» bo'lish obro' hisoblangan) deb atalgan saylanma qism yosh oqsuyak – zodagonlardan iborat bo'lib, janglarda fir'avn yonida turib jang qilganlar.

Yangi podsholik davrida Misr armiyasi (*mil. avv. XVI–XI asrlar*)

Mil. avv. XVI asrda Misrni Arabiston yarim orolidan jangovar ko'chmanchi chorvador bo'lgan «giksos» («Cho'l hokimlari») qabilalari bosib oldilar. Ular jangovar, harbiy ishni yaxshi bilgan jangchi – kuchli qabilalar edi. Ayniqsa, ularning otliq qismlari, jang aravallari misrliklar uchun yangilik edi. Giksoslar Misr uchun yangilik bo'lgan jang aravalaridan foydalanib, janglarda g'olib chiqdilar. Jang aravalarining kuchli zarbasi tartibsiz, saflanmagan, harbiy sohani yo-

mon egallagan Misr piyodalarini tezda parokanda qilib tashlar edi. Jang aravalarida turgan kamonchilar dushmanga mohirona o'q yog'dirganlar. Giksos jang aravalari zarbdor bo'linmalari raqibning mudofaa chizig'ini bir zarb bilan yo'q qilish uchun uni yorib o'tish vazifasini bajarganlar. Istilochilar yuz yildan ko'proq (mil. avv. 1710–1550-yillar atrofida) Misrda hukmronlik qildilar va mamlakatda bir necha harbiy istehkomlar, mudofaa inshootlarini barpo qildilar.

Giksoslar dunyo tarixida birinchilardan bo'lib urushda jang aravalaridan foydalanganlar. Misrliklar ulardan ana shu jang aravalarini o'zlashtirib oladilar. Jang aravalari bo'lg'usi yangi podsholikning harbiy qudratini yaratish uchun mustahkam zamin bo'lgan.

Iste'lochilar o'zlari bilan jang aravalari va otlarni olib keldilar. Shu vaqtdan boshlab Misrda yilqichilik paydo bo'ldi. Davlatga qarashli ot zavodlari tashkil etildi. Jang aravalari armiyaning zarbdor qismiga aylanadi. Odatda, zodagon – oqsuyaklar jang aravalarida jang qilganlar.

XVII sulolaning asoschilari Fiva hukmdorlari Kamesu, uning vorisi Yaxmos giksoslarga qarshi mustaqillik uchun kurash olib borganlar (mil.avv.1584-yillar atrofi). Bir necha janglar natijasida Yaxmos armiyasi giksoslarni Misrdan haydab chiqaradilar. Yaxmos kuchli harbiy armiya yordamida giksoslarni Misrdan tashqari hududlaridagi tayanch nuqtalariga harbiy zarba beradi. Giksoslar misrliklar armiyasining jangovar qobilyatini tashkillashtirishda misrliklarga ustozlik qildilar. Misrliklar shu vaqtdan boshlab uzoq yuz yilliklarga cho'zilib ketgan jangovar, hujumkor armiya asosini yaratdilar. Jang aravasini nayza va kamon bilan qurollangan jangchi boshqargan. Jang aravasi jang maydonida eng ishonchli qurol bo'lgan.

Misrliklar yangi podsholik davrida jang aravalarini bo'linmalarini tashkil etadilar. Ular jang aravalari

bo'linmasini hujum taktikasida eng oqilona tashkil etilgan jangovar bo'linma sifatida qadrlaganlar. XVII sulola fir'avnlari jang aravalari bo'linmalarini zarbdor kuch sifatida baholab, o'zlari ham unga o'tirib, armiyani boshqarishni, hujumni uyushtirishni tashkil qiladilar. Shu vaqtdan boshlab barcha jangchi fir'avnlardan shaxsan jang aravasida jangni boshqarganlar. Fir'avn jang aravasini haydovchi boshqargan. Jang aravasini yon tomondan tan soqchilari himoya qilib borganlar.

Jang aravasi ikki g'ildirakli, har bir g'ildirakda to'rt spitsa bilan, g'ildiraklar o'rtasida aravaning korpusi bo'lib, ikki yoni charm bilan qoplanib, o'ymakor qo'l ushlagichlar bor edi. Aravaning orqa tomoni, odatda, ochiq qoldirilgan. Jang aravalari yengil va mo'rt ko'ringan. Ular ko'pincha tez harakat qilganda ag'darilib ketgan. Shu sababli jang aravasi tez harakat qilganda va burilganda muvozanatini saqlab turish uchun arava asosi mumkin darajada orqaga cho'zilgan, aravani asosi bilan bog'langan xomut egiltirgan.

Mil. avv. XVI asrda giksoslar haydalgandan keyin giksos jang aravalari Misrda takomillashtirilgan. Tutmos IV hukmronligi davrida Misr jang aravalari to'rt spitsaga ega bo'lgan. Qadimgi tasvirlardan birida jang aravasidan turib ov qilish manzarasi tasvirlangan. Haydovchi jilovni beliga o'rab, qo'lini kamondan otish uchun ozod qilgan.

Fir'avn Tata qabrida topilgan jang aravasi aftidan fir'avnga tegishli bo'lgan. Misrliklar u dunyoda hayot borligiga ishonganlar. Shu sababli ular jang aravasi u dunyoda fir'avnga xizmat qiladi deb ishonganlar va uni vafot qilgan fir'avn maqbarasiga qo'yganlar.

Misr sag'analari devorlaridagi tasvirlar XVI-XI asrlarda yangi podsholik davridagi jang aravalari to'g'risida yaxshi ma'lumot beradi. Jang aravasi oltita spitsali bo'lib, aravada kamonni qo'yish uchun sadoq aniq ko'rinib turibdi. Jang aravasining asosi imkoni-

yat darajasida orqaga siljirilgan. Bu jang aravasining manevr qilish imkoniyatini kuchaytiradi. Manevr qilish Misr jang aravalarini jang taktikasida hal qiluvchi omil edi. U burilgan paytda ag'darilib ketmagan.

Mil. avv. 1214-yillar atrofida fir'avn Seti I Misrning g'arbiy chegaralariga tahdid solayotgan Liviya qabillariga qarshi jazo ekspeditsiyasini amalga oshirdi. Karnak ibodatxonasidagi bu rangli relyefda fir'avn liviyaliklarga qarshi jangda g'olibona jang qilayotgan ko'rinishda tasvirlangan. Misr raqiblarning yangi harbiy texnologiyasiga qarshi bu jang aravasi misrliklar takomillashtirgan qator belgilarga ega bo'lgan. Misrliklar olti spitsali g'ildirak, og'ir kuzov va ot aslahalarini joriy qilganlar. Tutmos IV davrida to'rt spitsadan oltitasiga o'tish yuz bergan. U yanada og'ir aslaha va qurollarni ishlatish tufayli jang aravasining massasi oshishi natijasida kelib chiqqan. Mil. avv. XIV asr boshlarida sakkiz spitsali g'ildiraklardan foydalanishga urunib ko'rildi. Lekin olti spitsali g'ildirak asos bo'lib qolavergan. Ot aslahalaridan raqib o'qidan himoya qilish maqsadida foydalanila boshlangan. Chunki jang aravasining haydovchisidan ko'ra otlar raqib uchun eng yaxshi nishon bo'lgan. Raqib jang aravasini yo'q qilish va arava ichidagilarni asrga olish jangda jang aravasi hamrohlik qilgan piyodalarga topshirilgan. Jang aravasining haydovchisi bo'z kiyimda bo'lib, qalqonga ega bo'lgan. Kamon otuvchi olachipor sovut kiygan. Avvalgi vaqtlarda sovut nisbatan yengilroq bo'lgan. Shu bilan birga u himoya xususiyatlarini yo'qotmagan. Yengil aslahalarning nisbatan qulayligi issiq tropik iqlim sharoitlarida ayni muddao edi. Qalpoq ham sovut kabi metallardan yasalgan.

O'sha davrda Misr jang aravalari o'z mukammalining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Ular yengil, tez yuradigan va turli manevr qiladigan zarbdor qism bo'lgan. Rasm-tasvirda fir'avn Ramzes II yelkadan toki tiz-

zagacha yopadigan tangachasimon aslahada tasvirlangan, bunday og'ir aslahalar o'sha vaqt uchun odatdan tashqari edi, ehtimol bunday aslahani faqat fir'avn kiygan. Jangovar aravalar falanga hujumi oldidan raqib saflarini o'qlar yordami bilan yumshatish maqsadida ishlatilgan. Odatda, raqib tomon ham jang aravalarini shu maqsadda ishlatishga harakat qilgan, shu sababli jang aravalarining jang boshlanishidagi to'qnashuvi, odatda, jang natijasini hal qilgan. Misol uchun: misrliklar Qadesh yonidagi jangda erishgan g'alaba raqib xett piyodalari jangga kirmasdan hal bo'ladi.

Bu davrda jang qurollari, eng avvalo, o'q-yoy o'zgaradi. Endilikda daraxt novdasi prujinasimon qatlamlari yoki birga yopishtirilgan daraxt novdasi va hayvon mugizi qatlamlari almashib keladigan ikki tarkibli kamon paydo bo'ladi. Kamonning kuchini oshirish uchun uning markazi o'q otishda qarshi tomondan sal bukilgan edi. Kamon o'qlari mis yoki jez uchlar bilan qoplana boshladi, bu ularning teshadigan kuchini sezilarli oshirgan. Endilikda kamondan otilgan bunday o'q yog'och qalqonni osongina teshib, jarohat yetkazishi mumkin bo'lgan.

Xanjarning yaxlit quyilgan turi paydo bo'ladi, bu xanjar tig'i va sopi birlashmasini mustahkamlaydi va balanddan turib zarba berish imkoniyatini tug'dirgan. Misr qilichlari ham takomillashgan, kuchli egilgan tig'li qilichlar paydo bo'ladi. Qilich ishlatish mahorati muntazam takomillashib borgan.

Yaqin va uzoq masofada foydalaniladigan jang qurollarining takomillashuvi himoya vositalarining ham mukammallashuviga sabab bo'ladi. Misrda himoya vositasi sifatida yupqa metall taxtachalar tikilgan bo'z yoki charm ko'ylak paydo bo'ladi. Bunday ko'ylaklar mis yoki jez kamon o'qlaridan yaxshi himoya qilgan. Shuningdek, qattiq teridan tayyorlangan himoya qalpog'i paydo bo'ladi. Misr fir'avnlari uchun bunday qalpoq

qulay zaruriy buyum bo'lib qoladi va tez orada u rasmiy tantanalarda kiyiladigan tojlardan biriga aylangan. XVIII sulola davrida charmdan keng foydalanish harbiy soha rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

Misr armiyasining asosiy kuchini piyodalar tashkil qilgan. Piyodalar qurol turi bo'yicha kamonchilar, nayzachilar, nayza otuvchilar va qilich bilan qurollangan askarlarga bo'lingan. Bir xil qurollangan piyodalarning mavjudligi uning saflanishida o'ziga xos tartibga amal qilgan. Piyoda qism safi paydo bo'ladi, uning harakati bir tekis bo'lgan. Yurishlar vaqtida Misr armiyasi bir necha qismga bo'limib, kolonna bo'lib harakatlangan. Oldinga, albatta, vaziyatni bilish uchun razvedkachilar yuborilgan. Qo'nish joylarida askarlar qalqonlardan himoya devori sifatida foydalanib, mustahkamlangan lager (qarorgoh) qurganlar.

Shaharlarga hujum qilganda askarlar dushman o'qidan saqlanish uchun toshbaqa (jangchilarni tepadan himoya qiladigan qalqonlarni yonma-yon qo'yib hosil qilinadigan ayvon) deb ataladigan qatorni hosil qilganlar. Taran, veniya (qamal ishlari vaqtida askarlarni himoya qilish uchun tok novdalaridan qilinib, chim bilan qoplangan pastak ayvon) va narvonlardan foydalanganlar.

XIX sulola davrida misrliklar g'arbiy chegarada Liviya qabilalarining bosqinlarini qaytarib turganlar. Liviya jangchilari belga o'ralgan lungidan boshqa kiyim kiyimaganlar. Askarlarning badanlariga tasvirlar tushirilgan va tovonlariga dushmanning nomi yozilgan. Sochlari taqir qirilgan bo'lib, ko'pincha tuyaqush patlari bilan bezalib, bu jangchining mavqeyini ko'rsatgan. Ba'zida jangchilar charm yoping'ichda bo'lganlar va qilich bilan qurollanganlar.

Ramzeslar davrida (XIX–XX sulola) kamondan keng foydalaniladi. Misrliklar jang maydonida dushmanni yoppasiga kamon o'qlari yomg'iri ostiga qoldirish usu-

lini qoʻllaganlar. Bu usul jangda dushman qoʻshiniga katta miqdorda talafot yetkazilishiga olib kelib, yaxshi natija bergan. Kamonchilar dushman bilan yaqin masofada jangga kirishmas, shu sababli ular ogʻir sovutlar bilan himoyalanişga muhtoj boʻlmaganlar.

Birinchi oʻtliq qismlar toʻgʻrisidagi yozuvlar mil. avv. IX asrga oid Osuriyaga tegishli. Lekin oʻtda yurish bundan oldin ham maʼlum boʻlgan. Mil.avv. II ming yillikda oʻlkamizda yashagan sak-massagetlar oʻtdan foydalanган eng birinchi suvoriylardan boʻlganlar. Misrda ot mil.avv. XVIII asrda koʻchmanchi giksoslar istilosi bilan kirib kelgan. Misrliklar Yangi podsholik davridan boshlab oʻtliq chopar va aygʻoqchilardan foydalanganlar.

XX sulola boshqaruvining ilk bosqichida Misr piyoda askarlarining tashqi koʻrinishi toʻla shakllanib, bu qiyo-fa yangi podsholikning oxirigacha saqlanib qoladi. Bu davrda olachipor bosh kiyimlar paydo boʻlgan. Qalqon toʻrtburchak shakl olgan, bu piyodalarning qalqonlardan himoya devorini qurish imkonini beradi. Oʻsha davrdagi koʻpgina relyef tasvirlarda askarlar qalqonlarini yelkasi-ga qoʻyish, tasmada olib yurishlari koʻrinadi. Yelkaga qalqonni qoʻyish marshda (yurishda) hamda jangda askar ikki qoʻlini ham boʻshatish talabi tugʻilganda qulay boʻlgan. Shuningdek, ikki qoʻl bilan quroldan foydalanish qalʼa devorini shturm qilishda qulay boʻlgan. Bu davrda hajmi katta boʻlgan oʻroq – xopeshlar keng tarqalgan.

Tel-Amarna sagʻanasidagi tasvirda Misr armiyasidagi chet ellik askarlar tasvirlangan. Yangi podsholik davridan armiyada jangovar Liviya qabilalaridan yollanma askarlar pul evaziga harbiy xizmatni oʻtay boshlaganlar.

Bu davrda askarlar nayza va bronza boltalar bilan qurollanganlar. Oldinda qism sarkardasi qinga solingan kamon va bronza bolta bilan bormoqda. Tutmos III dan oldin taxt egasi boʻlgan malika Xatshepsut davrida, asosan, Afrikada Nubiya (hozirgi Sudan) va Puntga harbiy-savdo ekspeditsiyasi uyushtiriladi.

Yollanma askarlar. Jang taktikasi, qurol-aslahaning takomillashuvi natijasida quroldan foydalanish uquvi va ko'nikmasini egallash talab qilingan. Bu talabga misrlik dehqonlardan tashkil topgan ko'ngillilar javob bera olmas edi. Shu sababli yollanma askarlik kasbi yuzaga keladi. Ular ko'ngilli misrlik askarlardan qimmatga tushgan. Ammo ularning harbiy qobiliyati, malakasi yuqori bo'lib, jangda ular keltiradigan samara ham katta bo'lgan. Shu vaqtdan boshlab qo'shni mamlakatlar aholisidan bo'lgan liviyaliklar, nubiyalik va sherdonlar Misr armiyasiga turli shartlar asosida yollanib, harbiy xizmatni o'tay boshlaydilar. Ramzes II (mil. avv. 1290–1224-yillar) davrida yollanma armiya mavjud bo'lgan. So'nggi Misr podsholigi davrida (mil. avv. XI–VI asrlar) armiyaning sezilarli qismi yollanma askarlardan iborat bo'lgan.

Yangi podsholik davrida harbiy soha yanada rivojlanadi. Harbiylar soni ko'payadi. Ular yoshi yoki xizmati davomiyligi bilan o'zlarining kiygan kiyimlariga qarab ikki guruhga bo'lingan. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra birinchi guruhni 160 ming kishi, ikkinchi guruhni 250 ming kishi tashkil etadi. Lekin bu sonlar mubolag'a bo'lishi mumkin. Yoki bu sonlar umuman harbiylarning oilasi (ota-onasi, xotini, bolalari) bilan birga harbiylar qatlamining soni deyish mumkin. Harbiy yurishga bor-yo'g'i o'n ming kishi qatlashishi mumkin bo'lgan.

Yangi podsholik davrida armiyaning katta qismi qilichlar bilan qurollangan, shu bilan birga jangda kamon muhim o'rin tutgan. Askarning himoya quroli kuchaygan: qalqondan tashqari qalpoq (shlem) va charmdan qilingan jez plastinkali sovut paydo bo'ladi. Armiyada qo'shinning yangi qismi – jang aravalari paydo bo'ladi. Jang aravasi ekipaji bir jangchi va o'tni boshqaruvchidan iborat bo'lgan. Jang aravasiga ikki ot qo'shilgan.

Harbiy qurol-aslaha tayyorlash ustaxonalari rivojlanadi. Kamon o'qi uchun sadoq, sovut, oyoq kiyimi,

qalqonlarni teri bilan qoplash hamda jang aravalari va egar-jabduq uchun charm tayyorlaydigan charm bilan ishlash sohasi rivojlanadi.

XVII, XVIII, XX sulolalar davrida Misr armiyasi 5000 kishilik katta qismlarga bo'lina boshladi. Har bir qismga homiy ma'budning nomi beriladi. Ramzes II davrida Kadesh jangida Amon va Ptax korpusi jang qilgan. Har bir korpus 200-300 kishilik polklarga bo'lingan. XVIII va XX sulolalar vaqtida «Fir'avn botirlari» saylanma bo'linmalari tilga olinadi. Asosan, «botirlar» jang aravalarida jang qilganlar. Yangi podsholik davrida Misr armiyasi hujum qilish taktikasini to'la egallab, jangovar qobilyati kuchaygan. Yaxshi qurollangan, jangovar qobilyati yuqori bo'lgan Misr armiyasi bir necha asrlar davomida old Osiyoda g'olibona urushlar olib borganlar.

Istilochilik urushlarida fir'avnlarda davrida ko'p sonli harbiy lavozimlar shakllangan. Fir'avn Tutmos III davrida yurish vaqtida fir'avn tunashi uchun joy bilan ta'minlaydigan harbiy amaldor (kvartirmeyster), otlarga yem-xashak uchun, oziq-ovqat uchun mas'ul intendant bo'linmalar orasidagi aloqalarga mas'ul harbiy mansabdor bo'lgan.

Misr fir'avnlarning, sarkarda, lashkarboshilarning harbiy yurishlari to'g'risidagi sarguzashtlari yozilgan hikoyalar (annallar) bizgacha yetib kelgan. Fir'avnlarda qadimgi Mesopotamiya, Sharqiy O'rta yer dengizi hududlarini bo'ysundirish uchun muntazam urushlar olib boradilar. Yaxshi qurollangan armiya bilan fir'avnlarda Suriya va Falastin ustidan nazorat o'rnatganlar, mil. avv. XV asrda Kichik Osiyo shimolidagi qudratli Mitanni davlatini mag'lub etib, Misr armiyasi Xett davlatiga xavf solgan. Misr chegaralarini g'arb va janubdagi qo'shni xalqlar hujumidan mustahkam himoyasi tashkil qilingan.

Bu urushlar davomida jang taktikasi, armiyani boshqarish harbiy san'ati shakllangan. Fir'avnlarda

qobiliyatli sarkardalar bo'lgan. Yangi podsholikning fir'avnlari (mil. avv. XV–XIII asrlar) Yaxmos, Tutmos III, Amenxotep II, Seti I, Ramzes II, Merneptax, Ramzes III Misr armiyasiga bevosita boshchilik qilib, shaxsan o'zlari askarlarni jangga olib kirganlar. Ular mohir jangchi fir'avnlr bo'lganlar va janglarda bevosita ishtirok etganlar. XVIII sulola davrida armiyada harbiy xizmat qilish faxrli kasbga aylangan, ko'pgina yoshlar uzoq harbiy yurishlarga qiziqib, jozibali harbiy kasbni tanlaganlar.

XVIII sulolaning beshinchi fir'avni Buyuk Tutmos III (mil. avv. 1490–1436-yillar) XVIII sulolaning beshinchi fir'avni edi, u o'z harbiy faoliyati uchun «Buyuk» nomini olgan. Tutmos III Misr tarixida eng ulug' jangchi – fir'avn, lashkarboshi sifatida armiyani shaxsan o'zi jang aravasida jangga olib kirgan hamda janglarda o'zining shaxsiy jasorati bilan jangchilarga namuna bo'lgan. Tutmos III ning tashqi qiyofasi to'g'risida uning bizgacha yaxshi saqlanib qolgan mo'miyolangan jasaki va ko'p sonli haykallari orqali tasavvur hosil qilish mumkin. Tutmos III o'rta bo'lyli, baquvvat, tor peshonali, lablari qalin va burqut burunli odam bo'lgan. U jismonan juda kuchli bo'lib, ovni nihoyatda yaxshi ko'rgan.

Misrda Yangi podsholik (mil. avv. XVI–XI asrlar) va So'nggi podsholik (mil. avv. XI–VI asrlar) davrida harbiy san'atning rivojlanishi bilan harbiylarning siyosiy mavqeyi kuchayadi. Lashkarboshilar ba'zida harbiy kuchga tayanib hokimiyatni bosib olganlar. Exnaton armiyasida (mil. avv. 1365–1348-yillarda hukmronlik qilgan) harbiy xizmat qilgan Xoremxeb uning vorislari Tutanxamon va Eyedan keyin fir'avn hokimiyatini bosib oladi. Fir'avn Ramzes I ning (mil. avv. 1306–1304-yillar) ham kelib chiqishi harbiy bo'lgan.

Oliy hokimiyat egasi bo'lgan fir'avn armiya boshlig'i va qismlar, flot boshliqlarini tayinlagan. Qadimgi podsholik davriga oid hujjatlarda «Qurol uyi» nomli davlat

tashkiloti tilga olinadi. «Qurol uyi» o'ziga xos harbiy muassasa bo'lib, uning tasarrufiga qurol tayyorlash, kemalar qurish, armiya ta'minoti, mudofaa inshootlarini qurish kabilar kirgan. Bu davrda Misr armiyasi soni to'g'risida ma'lumot yo'q. Faqat kedr yog'ochi uchun yuborilgan 40 kema to'g'risida eslatiladi.

Harbiylar fir'avn, nom (viloyat) hokimlari va ibodatxonalar xizmatida bo'lib, ular o'z xizmatlari uchun yer ulushi olganlar. Armiya mamlakat markazi va dushman xavf soladigan yo'nalishlarda joylashgan harbiy manzilgohlarda turgan. Yurishlar vaqtida turli nomlar (viloyatlar)dan to'plangan askarlar qismlari o'rtasida janjallar chiqqan, bu harbiy intizom va armiyaning jangovar qobiliyatiga salbiy ta'sir etgan. Misrliklar boshda harbiy kemalardan foydalanish va harbiy flotni qurishda dunyo tarixida birinchi kemasoz va dengizchi bo'lgan finikiyaliklardan (finikiyaliklar hozirgi Livan hududida yashagan xalq) foydalanganlar.

Fir'avnning qoshida uning shaxsiy qo'riqchilarini tashkil etgan «Fir'avn a'yonlari odamlari», unga sodiq zodagon harbiylar – «Hukmdor yo'ldoshlari» harbiy safarda hamrohlik qilganlar. Ana shu tarkibdan «Armiya boshlig'i», «Yangi olingan askarlar boshlig'i», «O'rta Misr harbiy boshlig'i» va boshqa harbiy boshliqlar tayinlangan.

Armiya ta'minoti bilan maxsus davlat organi shug'ullangan. Mahsulotlar omborlardan qat'iy me'yorlarda berilgan. Qurol-yarog'ni ta'minlaydigan maxsus ustaxonalar mavjud bo'lgan. Bu davrda Misr harbiy tashkiloti yaxshi tashkillashtirilgan. Manbalar fir'avn Tutmos III (mil. avv. 1525–1491-yillar) harbiy yurishlari to'g'risida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlarga asoslanib, Misr armiyasida alohida strategik va taktik masalalar qanday yechilgani to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin.

Yangi podsholik davrida Misr Falastin va Suriyada uzoq vaqt bosqinchilik urushlarini olib boradi. Tut-

mos III bu hududlarga 17 marta harbiy yurish qilgan. Shu bilan bir vaqtda misrliklar janubiy qo'shni Nubiyaqa qarshi urushlar olib borganlar. Shimoliy Falastin va Suriyada Tutmos III hukmronligi davrida Misrga qarshi, uning tazyiqidan qutulish uchun Suriya va Falastin davlatlarining Kadesh shahri boshchiligida ittifoq vujudga kelgan. Misr armiyasiga qarshi kuchli mustahkamlangan Megiddo va Kadesh qal'alari turgan. Megiddo qal'asi muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, Misrni Oront daryosi vodiysiga boradigan yo'lini to'sib turgan. Kadesh esa Misrga qarshi turgan Suriya shahar-davlatlarining siyosiy markazi bo'lgan.

Tutmos III harbiy yurishlari ma'lum maqsadga qaratilgani bilan ajralib turgan. Tutmos III o'z kuchlarini bo'lib tashlamaydi, balki bir mushtga to'plab, muhim strategik nuqtalar bo'yicha yo'naltirilgan tizimli zarbalar beradi. Birinchi besh yurish Kadeshga qarshi hujum uchun zarur baza yaratadi. Kadeshni egallash old Osiyoni ichkari hududlariga yurish uchun qulay imkoniyat tug'dirgan. Koalitsiyaga qarshi Misr yaxshi qurollangan 20 minglik armiyani qo'yg'an. Misr harbiy floti Falastin va Suriya qirg'oqlaridagi har qanday nuqtaga armiya tushirish imkoniyatiga ega bo'lgan, bu hududlarda ozuqa zaxirasi bilan tayanch nuqtalar tashkil etilgan.

Qadimgi Misrda armiyaning to'la tashkiliy shakli paydo bo'lgan. Butun armiya alohida qismlarga bo'lingan. Misr armiyasi shaxsiy tarkibi yopiq qatlamni tashkil etgan. Endilikda Misr harbiylari qatlami intiyozlarga ega bo'lib, avlod-avlodi bilan harbiy xizmatni o'tashlari, turli intiyozlardan merosiy foydalanishlari mumkin bo'lgan.

Harbiy san'atning rivojlanishi jarayonida armiya tuzilmasi murakkablashgan. Piyodalar – kamonchilar, nayzachilar, jang aravalari, otliq qismlar paydo bo'ladi. Jangda jang aravalari va turli piyoda qismlarining o'zaro uyg'un harakatini tashkillashtirish hal qilina boshlangan.

Misr armiyasida saflanish, qatorda turish, bir xil qadam tashlash shakllantirilgan. Jangovar tartib urush

maydonida armiya turlari joylashuvini bildirgan. Jang aravalari bir chiziqda saflangan, piyodalar 10 qator bo'lib ichkari safda turgan. O'ng va chap qanotlarni jang aravalari bilan ta'minlashga katta e'tibor berilgan.

So'nggi podsholik davrida ham harbiylardan fir'avn taxtini egallaganlar bo'lgan. Armiya yordamida ular qulay vaziyatdan foydalanib, fir'avn taxtini egallaganlar. Misrda XXI sulola davrida armiyaning aksariyati Misrning g'arbida joylashgan Liviyadan kelgan liviyaliklar hisobidan to'ldirilgan. Liviyaliklar asta-sekin Misrda fir'avn marhamati bilan harbiy xizmatlari uchun yer-mulklarga ega bo'ladilar va yuqori harbiy va fuqaro hokimiyati lavozimlarini ham egallay boshlaydilar. Misrda ana shunday oliy lavozimlardan birini egallagan armiya lashkarboshisi Sheshonk (mil. avv. 945–924-yillar) fir'avn taxtini bosib olib, o'zini XVIII–XIX sulolalari istilochi fir'avnlarning davomchisi deb e'lon qiladi. U g'ayratli sarkarda bo'lib, Falastinga g'olibona yurish qilib, u yerda Misrning mavqeyini qayta tikladi. Sheshonk Misrda XXII sulolaga asos soldi va poytaxtni Nil ostonasining sharqiy qismidagi Bubastis shahriga ko'chiradi.

Misrda Tanis vohasida 1938–1939-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar vaqtida Sheshonkning shu vaqtgacha qo'l tekizilmagan maqbarasi (Misrda fir'avnlarning aksariyat sag'analari qadimgi davrdayoq boylik izlagan o'g'ri-qaroqchilar tomonidan talon-taroj qilingan) topildi. Bu maqbarada Sheshonkning oltin-kumush qo'shib ishlangan tobutidan yaxshi saqlangan, mo'miyolangan jasadi topilgan.

XXVI sulola fir'avnlari Misrni mil. avv. 656-yilda osuriyaliklarning qisqa davom etgan 16 yillik zulmidan ozod qiladi. Bu sulola yollanma askarlar xizmatidan foydalangan. Bu davrda yunonlar ham Misrga yollanma askar sifatida ko'plab kirib kela boshlaydilar. Ayrim hollarda yollanma askarlar xizmat haqini o'z vaqtida olmaganlari uchun xizmatdan bosh tortganlari to'g'risida qadimqi Misr manbalarida ma'lumotlar uchrab turadi.

Misrliklar mudofaa istehkomlarini qurishda katta yutuqlarga erishganlar. Bu inshootlar alohida qal'alar yoki istehkomlar tizimidan iborat bo'lgan. Qal'alarni qamal qilish va ularni shturm qilish ko'nikmalari shakllantirilgan. Qal'alar hujum yoki qamal bilan olingan. Hujum vositasi taran, narvon, veneya bo'lgan.

Misr harbiy floti. Misrda qadimgi podsholik davrida (mil. avv. XXVIII–XXIII asrlar) kemalardan foydalanilgan. Dastlab misrliklar dengizchilik, kemasozlik yaxshi rivojlangan Finikiya davlatlarining kemalari va dengizchilaridan haq to'lash sharti bilan foydalanganlar. Yangi podsholik davridan boshlab misrliklar kuchli harbiy flotga ega bo'lganlar. Ular finikiyaliklardan kemasozlik va dengizchilikni o'zlashtirib olganlar. Misr harbiy flotidan old Osiyodagi davomli istilochilik urushlarida, «dengiz xalqlari» hujumlarini qaytarishda unumli foydalanilgan.

Misr kemalari eshkakli bo'lib, yelkanlarga ega bo'lgan. Har bir kemada harbiy boshliq bilan muntazam komanda bo'lgan. Kemalar otryadiga flot boshlig'i boshchilik qilgan. Kemalar qurilishi bilan kema quruvchisi deb nomlangan mansabdor shug'ullangan. «Ikkita katta flot» qurilib, biri Yuqori Misrda, ikkinchisi Quyi Misrda joylashtirilgan. Yangi podsholik davrida Misr katta va kuchli flotga ega bo'lgan. Kemalar yelkan va eshkaklar bilan jihozlangan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra kemaning burun qismi dushman kemasiga taran zarbasini berish uchun moslashtirilgan. Norveg olimi, flot tarixchisi V. Lundstrem mil. avv. 1200-yillardagi Misr barelyeflariga qarab qadimgi Misr harbiy kemasining qiyofasini tikladi. Kemaning uzunligi 30 metrdan 40 metrgacha edi. Kemaning borti bo'ylab misr harbiy kemasining zarbdor kuchi bo'lgan, 150-160 metrgacha nishonni bexato uradigan kamonchilar turgan. Kema machtasining tepasidagi savatda ham mergan kamonchilar o'tirgan. Burun qismi dushman kemasiga zarba beradigan metall taran bilan tugallanadi. Kema korpusi oliy navli yog'ochdan tayyorlangan.



1-rasm. Mesexthi sag'anasidagi tasvirlar bo'yicha Misr nayzachilari rasmi. Nayzachilar yarim oval qalqon bilan himoyalanganlar.




2-rasm. Fir'avn jang aravasida.


Giksoslar mil. avv. 1710–1550-yillar atrofida misrga hukmronlik qildilar. Ular o'zlari bilan jang aravalari va otlarni olib keldilar. Shu vaqtdan boshlab Misrda yilqichilik sohasi paydo bo'ldi. Davlatga qarashli ot zavodlari tashkil etildi. Jang aravalari armiyaning zarbdor qismiga aylandi. Zodagon-oqsuyaklar jang aravalarida jang qildilar.



3-rasm. Misr jang aravasi giksos jang aravalaridan farq qilib, doimo takomillashtirib borilgan.



4-rasm. Mil. avv. XVI asrda giksoslar haydalgandan keyin Tutmos IV hukmronligi davrida Misr jang aravalari to'rt spitsaga ega edi. Bu rasmda jang aravasidan turib ov qilish manzarasi tasvirlangan. Haydovchi jilovni beliga o'rab, qo'lini kamondan otish uchun ozod qilgan. Jang aravasida kamon o'qlari qo'yiladigan sadoq ham mavjud.



5-rasm. Bu rasm-tasvir mil. avv. XVI–XI asrlarda mavjud boʻlgan yangi podsholik davridagi jang aravalari toʻgʻrisida toʻliq maʼlumot beradi. Jang aravasi oltita spitsali boʻlib, aravada kamonni qoʻyish uchun sadoq aniq koʻrinib turibdi. Jang aravasining asosi imkoniyat darajasida orqaga siljilgan. Bu jang aravasining manevr qilish imkoniyatini kuchaytiradi. Manevr qilish Misr jang aravalarining jang taktikasida hal qiluvchi omil edi. U burilgan paytda agʻdarilib ketmagan.



6-rasm. XVIII sulola (1567–1320) davridagi Misr piyoda askarlari. Ular kamon, nayza va bolta bilan qurollanganlar.



7-rasm. Malika Xatshepsat Puntga jo'natgan dengiz savdo ekspeditsiyasiga hamrohlik qilgan piyoda askarlar qismi. Askarlar nayza va bronza boltalar bilan qurollanganlar. Oldinda qism sarkardasi qinga solingan kamon va bronza bolta bilan bormoqda. Tutmos III dan oldin taxt egasi malika Xatshepsat davrida Misr askarlari asosan Afrikada Nubiya (hozirgi Sudan) va Puntga harbiy-savdo ekspeditsiyasi uyushtirganlar.



8-rasm. Qadimgi podsholik davri. Misr falangasining birinchi uch qatori.



9-rasm. Yangi podsholik davri. Misr falangasining birinchi uch qatori.

QADIMGI MESOPOTAMIYA HARBIY SAN'ATI

«U shaharga daryo kiradigan joyga o'z armiyasining bir qismini, boshqa qismini uning quyi oqimi bo'yicha shaharga chiqadigan joyga qo'ydi. Keyin u jangchilarga o'zan qachon o'tishga yaroqli bo'lsa, bu o'zan bo'yicha shaharga kirishga ... buyruq berdi».

Gerodot «Tarix»idan (Bobilning forslar tomonidan ishg'ol qilinishi mil.avv. 539-yil)

Mil. avv. IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlarida Dajla va Frot daryolari oralig'i (yunon tilida Mesopotamiya)da ilk shahar-davlatlar shakllanadi. Harbiy san'at rivojlanishining ilk bosqichida Dajla va Frot daryolari oralig'i muhim rol o'ynadi. Bu yerda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishi va chorvachilikning paydo bo'lishi mil. avv. IV ming yillikning oxiri III ming yillikda davlat va jamiyatning paydo bo'lishiga olib kelgan. Mesopotamiyaning janubida Oltoy yoki O'rta Osiyodan ko'chgan shumer xalqi ilk shahar-davlatlarga asos soladi. Shumerlarda iqtisodiyotning asosi sug'orma dehqonchilik bo'lgan. Shumer shahar-davlatlarida sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo kuchli rivojlangan. Savdo yo'llari quruqlik va suv orqali Mesopotamiyani boshqa hududlar bilan bog'lagan. Aholining tez ko'payishi bilan shumer shahar-davlatlari o'rtasida taqchil yer-suv uchun doimo ziddiyatlarning kelib chiqishi harbiy sohaning rivojlanishini taqozo qilgan. Shumer shaharlari hokimlari o'z harbiy qismlarini tuzganlar.

Mil. avv. 3-ming yillikda janubiy Ikki daryo oralig'ida-gi katta-kichik shahar-davlatlar o'rtasida yer-suv, savdo yo'llari uchun urushlar to'xtovsiz davom etgan. Har bir shahar-davlat o'z xavfsizligini ta'minlash uchun harbiy kuchga ega bo'lishga uringan. Urush vaqtida davlat fuqarosi ko'ngilli bo'lib harbiy yurishlarda qatnashgan.

Shahar-davlatlarning boshqaruvchilari boʻlgan koinlar, urugʻ oqsoqollari oʻz harbiy qismlarini tuzganlar. Asta-sekin har bir shahar-davlat oʻz qurolli kuchlarini rivojlantirgan. Shumer shahar-davlatlari armiyasining asosini piyodalar tashkil etgan. Aholining turli qatlamlaridan boʻlgan piyoda askarlar oʻz harbiy xizmatlari uchun yer ulushi olganlar. Bu yerdan foydalangani uchun fuqaro harbiy yurishga tegishli qurol-yarogʻ va oziq-ovqat bilan qatnashish majburiyatini olgan.

Shumer piyoda askari mis uchli qisqa nayza va uzun dastali mis bolta bilan qurollangan. Bundan tashqari askarlarda mis xanjar va tosh choʻqmor ham boʻlgan. Shumer jangchisi mis plastinalar qadalgan jun koʻylak kiyib, mis bilan hallangan charm qalqon orqali himoyalangan. Shumer askarlari saf tortish koʻnikmasiga ega boʻlganlar. Safning birinchi qatorida askarlar katta qalqonlarni olib yurganlar. Bu qalqon bir necha askarni dushman oʻqidan himoya qilgan.

Shumerliklar dunyo harbiy sanʼati tarixida birinchilardan boʻlib, jang aravalaridan foydalanganlar. Shumerlarda ikki gʻildirakli, toʻrt gʻildirakli jang aravalari qoʻllanilgan. Jang aravasi haydovchi va askardan iborat boʻlgan. Askar irgʻitiladigan nayzachalar bilan qurollangan, nayzachalar solingan sadoq arava oldiga qoʻyilgan. Lekin bu jang aravalarining gʻildiraklari yogʻochdan yaxlit boʻlgani uchun aravalar ogʻir va besoʻnaqay boʻlgan. Jang aravasiga yovvoyi eshaklar qoʻshilgan. Jang aravalaridan foydalanish jangda samarali boʻlmagan. Shumerlar uchun piyodalar jang aravalaridan koʻra gʻalabaga eltuvchi asosiy kuch boʻlgan.

Mil. avv. 2400-yillar atrofida janubiy Mesopotamiyadagi Lagash hokimi Urukaginaning islohotlari toʻgʻrisida maʼlumot beradigan yozma manbalar yetib kelgan. Manbada yozilishicha, Urukagina boshliqlarga askarlarni kamsitishlarini, askarlar mol-mulki ni noqonuniy tortib olishni taqiqlaydi. Bundan kelib

chiqadiki, harbiylar bu davrda ijtimoiy qatlam sifatida shakllana boshlagan va davlat himoyasida bo'lgan.

Mil. avv. XXIV asrda butun Mesopotamiya Akkad davlati qo'l ostida birlashdi. Akkad hukmdori Sargon 5400 kishilik muntazam armiya tuzadi. Bu o'sha davr uchun katta armiya bo'lgan. Qadimgi Misrda ham armiya 20 ming kishini tashkil etgan, faqat Osuriya davlati armiyasining soni o'zining eng qudratli davrida 120 ming kishiga yetgan. Armiya ta'minotini davlat hokimiyati o'z zimmasiga oladi. Sargon 5400 kishilik armiya bilan 50 dan ko'proq shahar-davlatlar ustidan g'alaba qilgan. Hozirgi Eron hududidagi o'sha davrning eng qudratli davlati bo'lgan Elamga yurish qilib, uning qator shaharlarini bosib oladi va Fors qo'ltig'iga chiqadi. Kichik Osiyodagi savdo bilan shug'ullanadigan shaharlar ham Sargondan yordam so'rab murojaat qilganlar.

Mil. avv. XIX asrda Mesopotamiyada yangi qudratli Bobil davlati paydo bo'ladi. Bu davrda Mesopotamiyaning markazida yangi iqtisodiy-siyosiy markaz sifatida Bobil shahri yuksaladi. Amoriy sulolasi Bobilni poytaxt qilib, butun Mesopotamiyani birlashtirishga kirishdi. Amoriy sulolasining oltinchi podshosi Xammurapi (mil.avv. 1792–1750) davrida butun Mesopotamiyani Bobil davlati qo'l ostida birlashtirdi. Bobil davlati kuchli armiyaga ega bo'lgan.

Harbiylarning huquq va majburiyatlari. Bobil muntazam armiyaga ega bo'lgan. Urush vaqtida armiya dehqonlarning ko'ngillilari bilan to'ldirilgan. Xammurapi qonunlari to'plamida harbiylarning huquq va majburiyatlari 26–41-moddalarda o'z aksini topgan. Asirga tushgan askarlarning huquqlari 133–135-moddalarda bayon qilinadi. Kodeksda askarlarning ikki toifasi «redu» va «baeru» hamda harbiy boshliqlarning ikki unvoni «deku» va «labuttu» ko'rsatiladi. Xammurapi qonunlar kodeksining ayrim moddalarida Bobilda maxsus jangchi kolonistlar bo'lganligi tilga olinadi. Bu

jangchilar podshodan chek yerlar olganlar va buning evaziga harbiy xizmat o'tashlari lozim bo'lgan. Bunday jangchilar podshoning birinchi chaqirig'i bilan oq urushga otlanganlar.

Qonunga ko'ra agar jangchilar o'zlarining burchlarini bajarmasalar, o'lim jazosiga hukm qilinib, qo'llaridagi chek yerlar tortib olingan. Lekin, ikkinchi tomondan, bunday jangchilarning alohida huquqlari bo'lgan. Asirga tushib qolgan jangchi to'lov berib qaytarib olingan, asirlikda yotgan jangchining chek yeri va mol-mulki uning o'g'liga berilgan. Asirlikda yotgan jangchining mol-mulkini bosib olish jinoyat hisoblangan. Jangchining mulki tortib olinsa, jangchiga zarar yetkazilsa, uni yollab ish berilsa, u kuchli odamga qul qilib berilsa, podsho taqdim etgan yer uning qo'lidan tortib olinsa, buning uchun o'lim jazosi berilgan. Jangchi kolonistga podsho tortiq qilgan qoramol, yer, bog' va uyni sotish mumkin bo'lmagan. Davlat hokimiyati jangchi kolonistlarning mulkiy manfaatlarini shu tariqa himoya qilib, harbiy xizmat o'tashga majbur bo'lgan bu jangchi kolonistlardan iborat ko'pgina mayda dehqon yer egalarining guruhini vujudga keltirgan. To'xtovsiz urushlar olib borilishi va bu urushlar natijasida odamlarning kamayib borishi ana shunday guruh vujudga keltirishni zaruriyatga aylantirgan. Askarlar o'z xizmatlari uchun yer, chorva, uy-joy olib, ularni sotishlari, agar o'g'il harbiy ishni davom ettirsa, ota o'ziga berilgan mulkni meros qoldirishi mumkin bo'lgan.

Qadimgi Mesopotamiyada fortifikatsiya (mudofaa inshootlari qurish) san'ati yuqori darajada rivojlangan. Har bir shahar mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ayniqsa, o'sha davrga ulkan hisoblangan 200000 kishi yashagan Bobil shahri mil. avv. VII asrda balandligi 7,78 metr, qalinligi 3,3 m bo'lgan kuchli uch devor bilan o'rab olingan. Devorlarning birida 300 minora bo'lib, ularning oralig'i 44 metr masofada joylashgan,

devorlarda 100 darvoza bo'lib, ular mis bilan qoplangan. Devorlar suv bilan to'ldirilgan chuqur xandaq bilan o'rab olingan. Hech qanday dushman hujumi Babil shahrini egallashi mumkin bo'lmagan.

Shumer falangasi. Falanga qadimgi davrda armiya harbiy qismlarining zich saf tortgan qatori. Falangaga xos xususiyat zich saf tortgan, uzun nayzalar bilan qurollangan jangchilar. Qadimgi tasvirlarda Mesopotamiya falangasi uch qatorda ko'rinadi.

Mil. avv. XXV asrga oid Mesopotamiya janubidan topilgan shartli ravishda «Kalxatlar stelasi» deb atalgan taxta lavhada Shumer shaharlarining mustahkam qurollangan askarlari tasvirlangan. Rassom Lagash shahri hokimining Umma shahriga qarshi yurishida erishilgan g'alabasini tasvirlaydi. Bu g'alaba yodgorligida halok bo'lgan dushmanlar jasadi bilan qoplangan jang maydoni va ular ustida kalxatlar uchib yurgani tasvirlangan. Shu yerda jangda halok bo'lganlarni dafn qilish, qurbonlik keltirish, asirlarni qatl qilish va nihoyat og'ir qurollangan askarlar qismi oldida jang aravasida borayotgan g'olib hokim ham aks ettirilgan. Lavhadagi yozuv Lagash shahar davlatining qo'shni Umma ustidan g'alabasi va urushning oqibatlarini to'g'risida hikoya qiladi. Yengilgan Umma aholisi Lagashga hujum qilmaslik va Lagash xudolariga don va non bilan o'lpon to'lashga qasamyod qilganlari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Mil. avv. III ming yillikda urushlar asosan Mesopotamiyaning o'zidagi ellikka yaqin shahar-davlatlar o'rtasida bo'lgan... Mil. avv. II ming yillikdan Mesopotamiya shahar-davlatlari Babil, Osuriya, Mitanni, Xett davlatlari tarkibiga kirgan. Ular old Osiyodagi qudratli davlatlarning keng qamrovli urushlarida qatnashganlar. Endilikda armiyaning qurol-yarog'i misdan emas, bronzadan tayyorlangan, shaharlar kuchli mudofaa inshootlari devorlari bilan o'rab olingan. Mil. avv. I ming yillikda Mesopotamiya va unga qo'shni Suriyada

qurol-yarog'larni tayyorlash markazlari paydo bo'lgan. Ana shunday markazlardan biri Damashq shahri bo'lgan. Damashq o'zining oliy navli po'lat qilichlari bilan mashhur bo'lgan. Damashqda yasalgan qilichlar juda o'tkir bo'lib, unga teng qilich bo'lmagan. Qilichsoz ustalar bunday oliy sifatli qurol tayyorlash texnologiyasini sir saqlaganlar. Damashq ustalari tayyorlagan qilichlarning narxi juda yuqori bo'lgan.


Mitanni. Mil.avv. XVI asr atrofida hozirgi Suriyaning shimolida kuchli Mitanni davlati vujudga kelgan. Mitanni davlati ko'p sonli savdo yo'llari kesishgan hududda joylashgani uchun xalqaro savdoda faol qatnashgan. Tez orada kuchli armiyaga ega bo'lgan Mitanni Osuriyaning bir qismini, Kichik Osiyo, Suriya, Finikiya va Falastinni bosib oladi. Mitanni Xetlar davlati va Misr bilan old Osiyoda hukmronlik qilish uchun uzoq urushlar olib borgan. Bu davlat qudratining asosi kuchli jangovar armiya bo'lgan. Mitanni armiyasi uch qismdan iborat bo'lgan: 1) piyoda – ko'ngilli qism: bu qism yengil va og'ir qurollangan piyoda askarlardan iborat bo'lgan; 2) jangovar qobilyati yuqori darajada bo'lgan otliq suvoriylar; 3) imtiyozli jang aravalari qismi. Bu qismni oqsuyak-zodagonlar tashkil etgan. Boy oqsuyak-zodagonlar jang aravalarini qurish uchun juda katta miqdorda mablag' sarflaganlar. Mitanni jang aravalari yuksak mahorat bilan boshqarilgan. Ko'pincha bu jang aravalari janglar taqdirini hal qilgan yoki armiyaning g'alabasini ta'minlagan zarbdor qism bo'lgan. Raqib bo'lgan xetlar va osuriyaliklar Mitanni jang aravalari qismining yutuqlarini o'zlashtirishga harakat qilganlar. Mitanni davlati hokimiyati harbiy maqsadlar uchun yilqichilikni rivojlantirgan. Misr fir'avni Mitanni bilan hamkorlik qilganda, Mitanni podshosidan bir necha marta jang aravalari va otlarni sovg'a sifatida olgan.



10-rasm. Shumerliklar.



11-rasm. Mil. avv. III ming yillikdagi Mesopotamiya shahar-davlatlarining oqsuyak-zodagonlari to'rt g'ildirakli va ikki g'ildirakli jang aravalarida jang qilganlar.



12-rasm. Shumer falangasining birinchi uch safi.

OSURIYA HARBIY DAVLATI

Men unga qarshi jang qildim va unga zarba berdim. Uning askarlarini qurol bilan yanchdim. 1121 jang aravasini, 470 otliqlarini lageri bilan bosib oldim. O'z hayotini qutqarish uchun u [toqqa] ko'tarildi, uning ortidan men Damashqqa, uning poytaxtiga yurdim, men uni qamadim.

Ossuriya podshosi Salmanasar III (mil. avv. 705–681) annallaridan

Mil. avv. XIX asrda Dajla daryosining yuqori oqimida markazi Ashshur shahri bo'lgan Osuriya davlati vujudga keladi. Bu davlat o'z tarixida yuksalishlar va qiyinchiliklar davrini boshidan kechirib, mil. avv. XIX asrdan 605-yilgacha hukm surgan. Osuriya tarixi davomida qudratli armiya tuzib, istilochilik urushlarini muntazam olib borgan.

Osuriya harbiy san'ati Misrnikiga qaraganda yuqori darajada taraqqiy etgan edi. Osuriya davlati harbiy sohaga jiddiy e'tibor berib, kuchli, jangovar armiyani shakllantirgan. Bu armiya murakkab tuzilma, yuqori darajada tashkiliy shaklga ega bo'lib, bu harbiy taktikaning rivojlanishiga katta imkoniyat yaratgan. Mil. avv. XV asrdan boshlab Osuriya yuksalishining yangi davri boshlanadi.

Osuriyaning ko'p sonli armiyasi harbiy kolonistlardan iborat bo'lib, shu bilan birga, bu armiya erkin aholining keng qatlamlari orasidan harbiy maqsadlar uchun terib olinadigan odamlar bilan to'ldirib turilgan. Har bir viloyatning boshlig'i o'z qo'l ostidagi hududdan askar to'plab, bu askarlarga o'zi boshchilik qilgan. Armiyaga «ittifoqchilar»dan, ya'ni Osuriya tomonidan bo'ysundirilgan va unga qo'shib olingan mamlakatlarning aholisi ham kiritilgan. Masalan: Sargonning o'g'li Sinaxxerib (mil. avv. 705–781-yillar) «G'arbiy mamlakat»dan keltirilgan asirlardan 10 ming kamonchi va 10 ming qalqonchi askar

tuzib, ularni o'z armiyasiga qo'shgan. Ashshurnosirpal esa (eramizdan avvalgi VII asrda) Elamning urushib olingan o'lkalaridan keltirilgan kamonchilar, qalqonchilar, kosiblar va temirchilar bilan armiya safini to'ldirgan.

Osuriya armiyasida old Osiyoda birinchi bo'lib mil. avv. IX asrda otliq qismlar va alohida muhandis qismlar tashkil etilgan. Bu osur armiyasining jangovar qobiliyatini yanada kuchaytirgan. Dastlab otliq egarlanmagan otda o'tirgan, keyin esa uzangisiz baland egar kashf qilingan. Otliqlar juft bo'lib jang qilganlar: otliqlarning biri kamon bilan, boshqasi nayza va qalqon bilan qurollangan. Ba'zida suvoriy qilich va cho'qmor bilan qurollangan. Otliq qismlarga oqsuyak-zodagonlar va kasbi harbiy bo'lgan tabaqa xizmat qilgan.

Osuriyaliklar ko'p sonli urushlarda jang qilish usullarini ishlab chiqqanlar. Osuriya armiyasining jangovar tartibini kamonchilar, nayzachilar, jang aravalari va otliqlar tashkil etgan. Jangovar saflanishning asosi bo'lgan jang aravalari orqasida otliqlar turgan. Piyodalar uch qator saflanib turganlar. Kamonchilar oldinda yoki qalqonbardorlar panohida orqa qatorda jang qilganlar. Kamonchilar orqada turganda qalqonbardorlar ikki qatorda turib, bukilib yoki cho'kka tushib, kamonchilarga o'zlarining orqasida turib dushman ustiga o'q yog'dirishiga imkon berganlar. Otliqlar saf bo'lib hujum qilganlar, ularning hujumi saflangan jips piyodalar tomonidan yengil qaytarilgan. Ammo otliq qismlar to'zg'itilgan, parokanda qilingan dushman armiyasini yanchib tashlashda dahshatli kuch bo'lgan. Jang aravalari qismi jadal yurib, dushman saflarini to'zitib yuborgan. Kutilmagan taktik vaziyatni tug'dirish uchun Osuriya sarkardalari tungi hujum qilish usulini keng qo'llaganlar.

Miloddan oldingi VIII asrda Osuriyaning islohotchi podshosi Tiglatpalasar III (745–727) harbiy islohot o'tkazgan. Islohotgacha armiya aholidan olingan ko'n-gillilardan tashkil topgan. Armiya ta'minoti har bir as-

kar o'z hisobidan qurollangan va oziq-ovqatni ham o'zi topishi hisobiga bo'lgan. Islohot natijasida muntazam armiya tuzilib, armiya ta'minoti to'la davlat hisobidan tashkil etilgan. Armiya qurol turlari bo'yicha qismlarga bo'lingan, bir xil turdagi qurol joriy qilingan. Yengil qurollangan piyoda askarlar soni ko'paytirilgan. Armiyadagilar soni o'rta va kambag'al qatlamlar hisobidan ko'paytirilgan. Tiglatpalasar III urush vaqtida qabilalardan olinadigan ko'ngillilardan voz kechgan. Shuningdek, asosiy harbiy bo'linma ham bo'lib u podshoni qo'riqlagan. Doimiy armiyaning soni shu tarzda o'sib borgan. Tiglatpalasar qullarni harbiy xizmatga olishni yo'lga qo'yadi. Shu tarzda Tiglatpalasar III davlat hududi va chegaralarini doimiy qo'riqlaydigan hamda istilochilik yurishlarini g'olibona olib boradigan zamonaviy qurollangan jangovar armiyani yaratadi. Osurlar uchun harbiy ish, urushlar asosiy kasb bo'lgan. Doimiy istilochilik urushlari, urushlarda olingan o'ljalor, xalqaro savdoda faol ishtirok etish, xalqaro savdo yo'llari ustidan doimiy nazorat osur davlati va jamiyatining barqaror rivojlani-shini ta'minlagan. Tiglatpalasar III ning istilochilik siyosati uning vorislari tomonidan davom ettirilgan.

Osuriya armiyasi tuzulmasi. Osuriya armiyasi qat'iy tuzilmaga ega bo'lgan: Asosiy tashkiliy birlik kisir (otryad) 500-200 askardan iborat bo'lib, kisir elliklik, u yana o'nliklarga bo'lingan: 2000→50→10. Bir necha kisir emuka (kuch)ni tashkil etgan. Har 200 piyoda askarga o'rtacha 10 otliq, bir jang aravasi, bir yaxshi qurollangan piyoda askarga ikki kamonchi to'g'ri kelgan. Osuriya piyoda armiyasi mukammal va yengil qurollangan qismlarga bo'lingan. Mikammal qurolli piyoda qismlar nayza, qilichlar bilan qurollanib, himoya vositalari qalpoq, katta qalqon, sovutlarga ega bo'lgan. Yengil piyoda qism kamonchi va sopqonchilardan tashkil topgan. Jangovar birlik, odatda, kamonchi va qalqonbardordan tashkil topib, jang paytida qalqonbardor qalqoni bilan o'z yo'l boshchisini himoya qilgan.

Bundan tashqari Osuriya armiyasida alohida jangovar qobilyatga ega bo'lgan muntazam harbiy qism – podsho polki bo'lgan. Podsho polki xazinadan oziq-ovqat bilan ta'minlangan. Bir xil qurol-yarog' va kiyimda bo'lib, muntazam harbiy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan. Polk tarkibi jang aravalari, otliqlar, piyodalar (nayzachi, kamonchi va qalqonbardorlar) va muhandis qismidan iborat bo'lgan.

Osuriyaliklar armiyasining qurollanishi o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turgan. Osur armiyasining qurollari kamon, temirdan yasalgan o'q uchlari, palaxmon, bronza uchli kalta nayza, qilich, xanjar, temir bilan qoplangan qalqondan iborat bo'lgan. Askarlar kuchli himoyalangan: bosh uchun dubulg'a, temir, charm va qattiq matodan ishlangan sovutlardan foydalanilgan. Qamalda qal'a devorlariga hujum qilayotgan askarlarning butun tanasi bronza plastinkalar yopishtirilgan sovut bilan himoyalangan.

Urush taktikasi. Osuriya piyoda askari jang vaqtida kamonchilarning jips safida harakat qilgan. Yengil qurollangan piyoda og'ir qurollangan piyodalarning katta qalqonlari himoyasida jang qilgan. Bu hujum qiladigan qalqonlar devori bo'lgan. Piyodalar dushman saflari ustiga kamon o'qlari, kalta nayza, tosh yog'dirganlar. Jangda qurol-yarog' turlaridan kamon, kalta qilich va nayza ko'proq qo'llanilgan. Piyoda jangchilarning uyg'un jips harakatining bunday usuli qatorni va ularning harakatini to'g'ri qurishni askarlarni uzoq vaqt davomida o'qitish-o'rgatish mashqlari orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan. Osuriya armiyasining zarbdor qismini jang aravalari tashkil qilgan. Jang aravasiga 2 yoki 4 ot qo'shilgan. Jang aravasining kuzoviga sadoq kamon o'qlari bilan birlashtirilgan. Jang aravasining ekipaji, odatda, ikki askar – kamonchi va nayza, qalqon bilan qurollangan haydovchidan tashkil topgan. Ba'zida ekipaj kamonchi va haydovchini hi-

moya qiladigan ikki qalqonbardor bilan kuchaytirilgan. Jang aravalari tekis joyda qo'llanilib, dushman piyoda qismlarini jang vaqtida to'zitib yuborishga, uning saf-larini parokanda qilishga qodir bo'lgan, tezkor harakat qiladigan kuchli harbiy qism bo'lgan.

Osuriya armiyasining kamonchilar qismi mukam-mal jang san'atiga ega bo'lib, yuqori darajada tashkil-lashtirilgan. Kamonchilarning temir uchli o'qlari doim nishonga aniq yetib borgan. Ushbu harakatlar dush-manlarni sarosimaga solgan va armiyaning boshqa qismlarini, jumladan, jang aravalarining hujum hara-katlarini boshlashga qulay shart-sharoit yaratgan.

Osuriya armiyasi taktikasiga kelganda mil. avv. 655-yilda Elamlıklar bilan Suza shahri yaqinidagi jang orqali ba'zi tasavvurlarni hosil qilish mumkin. Mil. avv. 655-yilda Elamlıklar Osuriyani Mesopotamiyadan siqib chiqarish maqsadida unga urush e'lon qildilar. Osuriya armiyasi Elamga bostirib kirdi. Elamlıklar Ulam daryosi orqasida mudofaa chizig'ini egalladilar. Ularning orqasi-da qalin o'rmon bor edi. O'ng qanot Ulam daryosi buril-masi bilan himoya qilinib, chap qanot Shushan shahri istehkomlari bilan ta'minlangan. Markazda Tulliz aholi punkti. Osuriyaliklar son jihatidan ustun bo'lib, otliq qismlar ham ularning mavqeyini yanada kuchaytirgan. Elamlıklarning ahvoli ularga ittifoqchi bo'lgan ikki qabi-la boshlig'ining o'z askarlari bilan dushman tomoniga o'tib ketishi bilan yanada og'irlashgan. Elam piyodala-ri osuriyaliklarning hujumiga dosh bera olmay o'rmon tomon qochadi, boshqa qism esa daryoga siqib qo'yilib, daryoni kechib o'tish bilan osurlar ta'qibidan qutulgan. Elamlıklar yengildi. Bu jang joydan mudofaaga turish chekinayotgan dushmanni osur otliqlari ta'qib qilishi bilan qiziqarlidir.

Osuriya suvoriylari bu vaqtda sezilarli o'rinni egal-lab, jang aravalarini siqib chiqara boshlagan. Qamal mexanizmlari, kechuv vositalari kashf qilinib, yo'l,

ko'prik qurilishi texnikasi yaxshilanadi. Osuriya davlati mamlakatda harbiy yo'llar va aloqani yo'lga qo'yib, armiya ta'minotini yuqori darajada tashkil etgan.

Harbiy dengiz floti. Boshda Osuriyada deyarli dengiz floti bo'lmagan. Harbiy yurishlar paytida daryolarni kechib o'tishga ham to'g'ri kelgan. Armiya suv havzasini teriga havo to'ldirib suzib o'tgan. Otlar esa o'zlari suzib o'tishgan.

Keyinchalik Osuriya o'z dengiz flotini qurishni boshlaydi. Ko'pincha Osuriya boshqa mamlakatlarning, birinchi galda, kemasozlik, dengizchilik yuqori darajada rivojlangan, qudratli savdo flotiga ega bo'lgan Finikiyaning dengiz flotidan foydalangan. Osuriya Finikiya kemasozlariga harbiy kemalarni qurishga buyurtma bergan. Bu kemalar raqib kemasiga taran zarbasi berish uchun o'tkir burunli qilib yasalgan. Eshkakchilar ikki qavatda joylashgan. Kemalar Dajla va Frotida qurilib, Fors qo'ltig'ida suvga tushirilgan.

Osir podshosi Sargon Kipr oroliga kuchli harbiy dengiz ekspeditsiyasini tashkil qilganda Finikiya dengiz flotidan foydalangan. Finikiyaliklar dengizchilik sohasida mohir bo'lganlari uchun ular butun old Osiyoga o'z kemalari, dengizchilari, kemasozlari bilan turli shartlar asosida o'zlari uchun foydali shartlarda xizmat ko'rsatganlar. Sinaxerib podsholigi davrida Eron qo'ltig'iga flot jo'natilishi Osuriya yozuvlarida juda mufassal tasvirlangan. Shu maqsad uchun zarur bo'lgan kemalarni Nineviyada Finikiya kemasoz ustalari qurgan. Bu kemalarga Tir, Sidon va Ioniyadan keltirilgan tajribali dengizchilar xizmat qilgan. Bu kuchli flot Tigr daryosining quyi oqimi bilan Opisga jo'natilgan. Shundan keyin kemalar quruqlikdan sudrab o'tilib, Araxtu kanaliga tushirib yuborilgan. Frot daryosiga yetgach, kemalarga Osuriya harbiy armiyasi, qurol-aslaha, oziq-ovqat o'tiriladi. Bu kuchli harbiy flot osir harbiy maqsadlarini bajarish uchun Eron qo'ltig'iga jo'nab ketadi.

Ashshurbanipal hukmronligi davrida (mil. avv. 669–626-yillap) Osuriya Fors qoʻltigʻida oʻz hukmronligini mustahkamlash uchun Eron qoʻltigʻida flot qurishga harakat qilganlar. Ammo bunda ham Finikiya kemasozlarining yordamisiz ish bitmagan. Dengizboʻyi Xaldeyasidagi osur bosh qoʻmondoni Belibni Ashshurbanipalga yozgan maktublaridan birida kemalar qurish uchun finikiyaning Sidon shahridan 20 ta mohir kemasoz ustalarni yuborishni soʻrab murojaat qilgan.

Osuriya davlati yaratilgan davridan toki oʻzining halokatigacha boʻlgan uzoq asrlar davomida uzluksiz istilochilik urushlari olib borgan. Osuriyaning siyosati urush edi, bu qonli istilochilik urushlari davomida Osuriya old Osiyoda eng kuchli harbiylashgan davlatga aylandi. Osuriya harbiy sanʼati oʻsha davr uchun nihoyatda mukammal rivojlangan. Osuriya lashkar-boshilari dushmanga toʻgʻrisidan va yon tomonidan hujum qilish usulini qoʻllagan. Front boʻylab keng hujumga oʻtishda bu usullarning har ikkalasini ham biryoʻla qoʻllashni bilganlar. Koʻpincha, osuriyaliklar turli harbiy hiylalarni ham ishlatganlar. Chunonchi, ular dushmanga kechasi hujum qilganlar. Dushmanni qirish taktikasi bilan birga, tinkasini quritish taktikasini ham qoʻllaganlar. Shu maqsadda dushmanning barcha kommunikatsiyalaridan ajratib qoʻyish, uni suvdan, oziq-ovqat keltirish va harbiy yordam olish imkoniyatidan mahrum qilish uchun harbiy qismlar qamal qilingan dushman shaharining barcha darvozalarini, suv manbalarini, quduqlarni, daryolardan kechib oʻtiladigan joylarni egallab olganlar.

Osuriya armiyasi istilochilik urushlarida dushmanga yashin tezligida hujum qilib, dushmanni oʻzini oʻnglab olishiga imkon bermay, tor-mor qilish taktikasini qoʻllagan. Ashshurbanipal (eramizdan avvalgi VII asrda) Elam mamlakatini bir oy ichida bosib olgan. Osuriya armiyasi jangda qattiq zarba berib, dushman ketidan jadal va shiddat bilan quvib borib, uni yoʻq qilgan.

Osurlar birinchi galda qo'shni mamlakatlarning eng muhim shahar va hududlari, savdo yo'llarini bosib olishni, shuningdek, o'ljalari va asirlar qo'lga kiritishni ko'zda tutib urush olib borganlar. Qo'lga tushgan asirlarni esa, odatda, qullarga aylantirib, bir qismi sotib yuborilgan. Osur podsholarining g'olibona harbiy yurishlarini hikoya qilgan bizgacha yetib kelgan yozuvlarida urushlarda olingan o'ljalari batafsil tasvirlanadi. Masalan, podsho Sinaxxerib Bobildan 208 ming asir, 720 ta ot va xachir, 11073 eshak, 5230 tuya, 80100 buqa va sigir, 80600 bosh qo'y va echki haydatib keltirgan. Urushda qo'lga tushirilgan o'ljalarni podsho, odatda, ibodatxonalarga, shaharlarning boshliqlari, podsho ayonlari va askarlariga taqsimlab bergan. O'ljaning katta qismini, albatta, podsho o'ziga olib qolgan.

Osuriyaliklarning yana bir harbiy strategik taktikasi bu – dushmanni terror qilish usuli, ya'ni istilo qilinayotgan mamlakat aholisini va armiyasini dahshatga solib qo'rqitish bo'lgan. Osur armiyasi old Osiyoda o'zining shafqatsizligi bilan tanilgan. Mag'lub bo'lgan dushman qoziqqa o'tqazilgan, tiriklay terisi shilib olingan, burni kesilgan, bosh terisi shilib tashlangan. Mil. avv. XIV asr boshlarida podsho Salmanasar I old Osiyoda osurlarning azaliy raqibi bo'lgan xett armiyasiga qaqshatqich zarba bergan. Xett armiyasining katta qismi asirga tushgan. Salmanasar I asirlardan 15 mingtasini ko'zini ko'r qilgan. Osur askari bosib olingan mamlakatdagi erkaklar, ayyollar va bolalarni o'ldirishdan toymagan. Homilador ayollar va go'daklar shafqatsizlarcha o'ldirilgan. O'sha davrdagi odatga ko'ra bosib olingan shahar aholisining bir qismi o'ldirilgan, qolgan qismi asirga olinib, qul qilib sotib yuborilgan.

Razvedka. Osuriyaliklar harbiy san'at tarixida ilk bor razvedka, ayg'oqchilik maxsus xizmat turini yo'lga qo'yganlar. Razvedka xizmatiga taxt vorisi shahzoda boshchilik qilgan. Osuriya harbiy boshliqlari dushman

mamlakatining ichki va tashqi siyosiy ahvoli to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lganlar. Buning uchun ular razvedka, ayg'oqchiik xizmatini nihoyatda yuqori darajada tashkil qilganlar. Dushman mamlakatlar, qo'shni davlatlar doimo osur ayg'oqchilari bilan to'lib toshgan. Ular ichki ziddiyatlar, harbiy tadbirlar, mudofaa inshootlari, ozuqa zaxiralari, armiyaning jangovar qobiliyati, yo'llar, ko'priklar, kechuvlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'plab yurganlar. Osur armiyasi bosib olinayotgan mamlakat yoki shaharga hujum qilish arafasida yoki urush vaqtida dushman aholisini vahimaga tushirish va dusman armiyasi ichida qo'rquv, vahima tug'dirishga harakat qilgan. Bunday psixologik ta'sir dushmanning qarshiligini susaytirib, uni ishg'ol qilishni yengillashtirgan.

Qamal. Osuriya armiyasi qal'a va shaharlarni qamal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. Armiya qamal qilish uchun zarur bo'lgan uskunalarga ega edi. Qal'alarni buzishda tarandan foydalanilgan. Taran – qalin g'ola bo'lib, uchi keng va o'tkir bo'lgan. Taran taxta qurilma (karkas)ga zanjir bilan osilgan va 4 yoki 6 g'ildirakli aravaga o'rnatilgan. Karkas teri bilan qoplangan bo'lib, ichidagi jangchilarni himoya qilgan. Uning old qismida minora bo'lib, unda kamonchi joylashgan. U taranni himoya qilgan. Osuriyaliklar tog'dagi qo'rg'onni qamal qilishda kamida 7 ta tarandan foydalanganlar. Himoyalannuvchilar taranga qarshi zanjir ishlatgan. Taranning old qismiga zanjir tashlanib, old qismini yuqoriga ko'tarishgan yoki uloqtiruvchi snaryadlar yoqib, taranning karkas qismini yoqqanlar. Bundan tashqari, osuriyaliklar qamal qilishda harakatlanuvchi minora qo'llaganlar va qal'a devorlari ostidan lahim qazishgan. Qamaldagi shahar qal'aga olovli o'q yoki mash'ala ham otishgan.

Osuriyaliklar qal'alarni qamal qilish va shturm qilishda juda katta tajribaga ega bo'lganlar. Qal'aga hujum qilishning asosiy vazifalaridan biri devorda teshik

ochish yoki darvozalarni buzish bo'lgan. Bu maqsad uchun keng yoki o'tkir uchliklar bilan yo'g'on yog'och taranlar qo'llanilgan. Taran zanjirlar bilan to'rt yoki olti g'ildirak ustida turgan qurilmaga osilgan. Odatda, qurilma uning ichida turgan askarlarni himoya qilish uchun qamish yoki teridan qilingan qalqonlar bilan yopilgan.

Mustahkamlangan qal'alarni ishg'ol qilish uchun qamal qurollari ishlatishni talab qilgan. Binobarin, Osuriyada qal'a qurish ishlari taraqqiy qilishi munosabati bilan eng qadimgi «artilleriya»ning kurtaklari ham paydo bo'la boshlagan. Qal'aning qamal qilinishini tasvirlovchi rasm-tasvirlar Osuriyadagi saroy devorlarida saqlanib qolgan. Osuriyaliklar shahar qamalida harakatlanadigan minoralardan foydalanganlar. Minoralar devor bo'ylab harakatlantirilib, qamal qilinganlar ustiga mash'alalar, yondiruvchi o'qlar otilgan. Qal'a-shahar devorlari tagidan lahim qazilgan. Qamal-dagilarning o'qlaridan kamonchilarni himoya qilish uchun yerga qalqonlar ko'milib, pana hosil qilingan.

Qal'ani egallash quyidagicha amalga oshirilgan: taranlar bilan devorda yoriqlar hosil qilingan, keyin piyodalar shu yoriq orqali o'tib yoki narvonlar orqali devorga chiqib hujumga o'tganlar; og'ir piyodalar katta qalqonlar bilan kamonchi va sopqonchilarni himoya qilganlar, qaysiki ular panada turib, kamon o'qi va toshlar otib, hujum qilayotgan harbiy qismlarning samarali hujum harakatini ta'minlaganlar. Qamal qilayotgan osur askarlar qal'a ichidan kelayotgan o'qlardan himoyalaniish maqsadida yer tagidan lahim qazib o'zlariga himoya qalqoni qurishgan. Qal'alarni ishg'ol qilishda taran bilan devor teshilgan. Qalqonlar bilan himoyalangan piyoda askarlar bu devorning teshigi orqali shaharga kirishgan, boshqa bir qism askarlar narvonlar yordamida dushman kamon o'qlari yomg'iri ostida devordan oshib o'tishgan va shaharni ishg'ol qilishgan.

Osuriyaliklar qal'alarni ishg'ol etish mexanizm va moslamalarini o'z davriga nisbatan yuqori darajada

rivojlantirganlar. Dushman shahar-qal'asini ishg'ol etuvchi aravalarni maxsus jihozlar bilan ta'minlaganlar. Qal'ani ishg'ol qilishda foydalaniladigan yog'och minoralarning tomlari qal'a himoyachilarining olovli kamon o'qlaridan saqlaydigan nam terilar bilan himoyalangan hamda devor teshuvchi taranlar bilan ta'minlangan. Minora ustida joylashgan kamonchilar dushmanlarga o'q uzgan, chunki bu harakat dushman tomonidan minorani buzishga yo'l qo'ymagan. Minora yonidagi kamonchilar qalqonlar himoyasida qal'a devoridan balandlatib o'q uzganlar. Bu harakatlarni himoyachilarni va ichkaridagi mahalliy aholini sarosimaga solgan. Osuriyaliklar foydalangan qurollar ular tomonidan ixtiro qilinmagan, balki shumerliklardan o'zlashtirib olingan, lekin Osurlar shumerliklar tajribasini boyitib, yanada takomillashtirganlar.

Qamal qilingan qal'a atrofini, odatda, tuproqdan do'nglik qilib va xandaq qazib o'rab olganlar. Qal'a devorlari yoniga muhandislar taxtadan qamal qurollarini o'rnatish uchun maxsus supalar yasagan. Osurlar shahar-qal'a devorlarini buzish uchun devor buzadigan qamal qurollari, o'ziga xos g'ildirakli taranlarni ishlatganlar. Taranning devorni urib ag'daradigan qismi temir bilan qoplangan va zanjirga osilgan katta va yo'g'on xaridan iborat bo'lgan. Osilib turgan xarini askarlar tebratib, qal'a devorlariga urib, devorni qulatganlar. Qamaldagi shahar ustiga maxsus mexanizmlar bilan yoqilgan moy quyilgan ko'zalar uloqtirilgan. Qamalda ishlatiladigan bu mexanizm-qurollar namunasini eronliklar osurlardan olganlar. Keyinchalik bu qurol qadimgi rimliklar qo'llagan mukammalroq qurollarga asos bo'lgan.

Qal'ani qamal qilgan Osuriya armiyasi to'rt tараfi himoyalangan qarorgoh (lager)da joylashganlar: Lager ichida to'g'ri ko'chalar bo'lib, armiya lagerdan chiqib-kiradigan darvozalar o'rnatilgan. Lager joylashishiga qarab himoya to'siqlari bilan o'ralgan. Osurlarning bu ko'rinishdagi harbiy qarorgoh – lager quri-

lishi tuzilmasi boshqa xalqlar, jumladan, keyinchalik rimliklar tomonidan o'zlashitirib olingan.

Osir podsholari armiyani yuqori sifatli qurol-yarog' bilan ta'minlashga katta e'tibor berganlar. Osir armiyasi o'sha vaqtda qurol-yarog' bilan eng yaxshi ta'minlangan armiya bo'lgan. Osuriya armiyasida bir xil turdagi qurol-yarog' joriy qilingan. Armiya uchun davlat ustaxonalarida o'z davriga nisbatan qurol-yarog'lar yuqori sifatli tayyorlangan. Osuriya armiyasida sovut, qalqon va dubulg'alar bo'lgan. Qurol ustaxonalarida metall o'q, uchli kamon, sopqon, jez uchli kalta nayza, sovut, qilich, xanjar, temir qoplangan yo'g'on yog'och tayoq hamda jang aravalari, otning egar-jabduqlari, qamal uchun turli mexanizm va moslamalar tayyorlangan.

Arxeologik qazishmalar vaqtida Sargon II ning (mil. avv. 722–705-yillar hukmronlik qilgan) saroyidan juda ko'p qurol-yarog'lar topilgan. Osir podsholari Sinaxxerib, Asarxaddon tomonidan (mil. avv. VII asr) «qora boshlilarni qurollantirish uchun otlar, xachirlar, eshaklar, tuyalar, jang aravalari, yuk arava va oddiy aravalalar, g'ilofdonlar, o'qlar, kamonlar, har turli asbob-anjomlar hamda ot-xachirlarning egar-jabduqlarini yana qabul qilish uchun» Nineviya shahrida chinakam aslahaxona, ya'ni «shu narsalarning hammasi saqlanadigan saroy» qurilgan.

Birinchi marta «muhandislik» askariy qismlari ham Osuriyada paydo bo'lgan, bu askariy qismlardan tog'lardan yo'l ochish, oddiy va ponton ko'priklari hamda askarlar uchun lagerlar qurishda foydalanilgan. Saqlanib qolgan tasvirlar qadimgi Osuriyada istehkomlar qurish san'ati o'sha zamon uchun g'oyat yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Bir qancha joylarda, jumladan, Zanjirlida (hozirgi Turkiya hududi) topilgan qal'alarning hozirgacha saqlanib qolgan xarobalari qadimgi Osuriyada qal'a qurish texnikasi g'oyat yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi. Osuriya davlati mamlakatni strategik

jihadidan muhim bo'lgan hududlari va chegara viloyatlarida to'rt tomoni qalin devorlar va minora (qorovulxonalar) bilan mustahkamlangan doimiy qal'a-istehkomlarni yuqori darajadagi muhandislik san'ati bilan qurganlar. Bunday nihoyatda mustahkam, ishg'ol qilish mumkin bo'lmagan qal'alar to'rtburchak yoki doira shaklida bo'lgan. Qal'a – mudofaa istehkomlar qurish texnikasini eronliklar osurlardan o'rganganlar, so'ngra u eronliklardan qadimgi rimliklarga o'tgan.

Harbiy yurish vaqtida Osuriya armiyasida yer qazish, yo'l, ko'prik qurilishi va boshqa ishlarni bajaradigan alohida muhandis qismlari mavjud bo'lgan. Armiya ixtiyorida shahar-qal'alarning devorlarini buzish uchun taranlar, qamal minoralari va shturm narvonlari bo'lgan. Daryodan askarlarning o'tishi uchun charm meshlar bo'lib, ulardan askarlar daryodan kechib o'tishda foydalanganlar hamda ular yordamida sol va suzuvchi ko'priklarni qurganlar.

Osuriyada yaxshi qurilgan yo'llar katta strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Osur muhandis qismlari harbiy yo'llarni qurish va ta'mirlashda tosh va yog'ochdan unumli foydalanganlar. Harbiy maqsadlar uchun foydalaniladigan yo'llarni qurish va ta'mirlash armiya zimmasiga yuklangan. Osurlarning bu tajribasidan keyinchalik rimliklar foydalanganlar. Qadimgi Rimda barsha yo'llar rim armiyasi tomonidan barpo etilgan. Osuriyada strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarni maxsus harbiy bo'linmalar qo'riqlagan. Yo'llarda pochta va signal bo'limlari harbiy aloqani ta'minlash vazifasini o'tagan. Yo'llar birinchi navbatda armiyaning jangovar tayyorgarligi, qo'zg'olonlarni zudlik bilan bostirish uchun, har qanday qo'shni davlat hujumidan o'z vaqtida xabar topib himoyalaniish maqsadida tezkor aloqani amalga oshirish vositasi bo'lgan. Bundan tashqari, Osuriya old Osiyda asosiy xalqaro savdo yo'llariga egalik qilgan. Bu yo'llarning xavfsizligini ta'minlashga ham yuqori darajada e'tibor berilgan.

Har bir askar mudofaa inshooti, yo'l qurulishi va qal'alarni buzish uchun uzun yog'och sopli jez cho'kich va temir bolta olib yurishga majbur bo'lgan. Qurol-ya-rog' va oziq-ovqat zaxirasi podsho harbiy omborlarida saqlangan.

Osuriya askarlarining qalqonlari har xil shaklda: yengil aylana shaklidan boshlab to'rtburchak yoki to'g'ri burchakli qilib egilgan. Askarlar balandlikda hujumdan himoya qilish uchun undan foydalanganlar.

Shahar qamali. Qadimgi Osuriya manbalaridan birida osur armiyasining mil. avv. 734-yilda Suriyadagi o'sha vaqtdagi kuchli Damashq shahar-davlatini bosib olishi yorqin tasvirlangan.

Osurlarning 30 ming kishilik armiyasi Damashqni qamal qilish uchun Farfor daryosidan o'tishi kerak edi. Tajribali ustalar daryodan o'tish uchun charm meshlarni puflab shishirib, bir-biriga bog'ladilar. Bog'langan qoplar ustiga kedr yog'ochi taxtalarini to'shadilar. Bunday ko'prikdan jang aravalari va otliqlar o'tishi mumkin edi.

Damashq shahrining ilg'or harbiy qismi osurlarni daryodan kechib o'tishiga xalaqit bera olmay shahar devori panohiga chekindi. Shahar hokimi Retsin shahar yonida jang qilishga qaror qildi. Kuchlar teng emas edi. Damashq podshosi dushmanning 5000 jang aravasiga qarshi zo'rg'a 2000 jang aravasini qo'ydi. Osuriya qo'shinlari Retsin piyodalaridan ikki marta ko'p edi, osur otliqlari «dengiz qirg'og'idagi qum» kabi ko'p sonli edi. Retsin hech qanday chorasi qolmagani uchun dahshatli dushmanga qarshi chiqdi.

Tiglatpalasarning buyrug'i bilan osur qo'shini keng tekislikda saflandi. Yuzliklar o'zlariga belgilangan joyni egalladilar, har bir yuzlikda 5 jang aravasi oldinga chiqdi, ularning orqasida 15 otliq qatorga turdilar, uchinchi qatorda 25 og'ir qirolli piyodalar, qo'shinning ikki chetida va orqada 50 yengil qurolli piyoda joylashdi.

Harbiy qismga harbiy boshliq boshchilik qildi. Uning yordamchilari 2 ellikboshi edi. Mana Tiglatpalar ishora qildi va osur jang aravalari oldinga yurdi. Og'ir g'ildiraklar tez aylandi va mis spitsalar yaltiradi.

Oldingi jang aravasida turtonning o'zi – oliy harbiy boshliq, podshoning o'ng qo'li turar edi. U tog' echkisining shoxlaridan qilingan – kumush plastinkalari bilan ziynatlangan, bukilgan katta kamonni tortdi. U muvozanatini saqlab turishi uchun sodiq qurolbardor bir qo'li bilan xo'jasini belini quchdi, boshqasi bilan turtanning ko'kragi oldiga qalqon tutdi. Orqada turgan arava haydovchisi jilovni tortdi. Boshqa jang aravalari ekipaj faqat 2 kishi (qalqonbardor bir vaqtning o'zida jang aravasini boshqarar edi) dan iborat. Har bir jang aravasining orqa qismida alohida joyda og'ir temir nayza osilgan, kuzovning yon tomonida kamon o'qlari bilan to'la sadoq, mis chopqi – sekira chayqaladi. Jang aravalari orqasidan plastinkali sovut kiygan otliq kamonchilar yelib boradilar.

Nihoyat, ikkala armiya bir-biri bilan yaqinlashdi. Qisqa o'q otishlaridan so'ng jang aravalari jang aravalari bilan, otliqlar otliqlar bilan to'qnashdi. Askarlar kamonlarini chetga qo'ydilar. Chopqi (sekira) va kalta qilichga yopishdilar. Qo'l jangi boshlandi. Retsinning jang aravalari osuriyalikning soni ko'p, a'lo darajali kuchlarining bosimiga dosh bera olmadilar. Ular qal'a minoralari himoyasi ostiga chekindilar, u yerdan chekinayotganlarni ta'qib qilayotgan osuriyaliklarning mergan kamonchilari aniq nishonga olib o'ldirdilar.

Mana og'ir qurolli piyodalar olg'a yurdilar, u ta'qib paytida o'z saflarini buzgan osuriya jang aravalari va otliqlarini uloqtirib tashladi. Shunda turtan jang aravalari haydovchilari va otliqlarga chekinishga va osur piyodalarini oldinga o'tkazishga ishora qildi. Og'ir piyoda qismlari qanotlarida yengil askarlar harakat qildilar. Ularga alohida qalqonbardorlar odam bo'yi keladigan egiluvchan xivchinlardan to'qilgan qalqonlar bi-

lan hamrohlik qiladilar. Qalqonlarning tepasi egilgan. Piyodalar olg'a yugurib kamon o'qlarini yoki charm sopqonlardan toshlarni otib, orqaga tezlik bilan qaytib, qalqonlar panasiga yashirindilar.

Suriyaliklarning ahvoli og'irlashdi. Og'ir qurollangan osur piyodalari ularni qadam-baqadam siqib qo'ydi, tutqich bermas kamonchilar va sopqonchilar ularni har tomondan nishonga olib halok qildilar. Tezda Damashq hokimi qo'shini aralash-quralash bo'lib ketdi va ular qochdilar, Retsinning o'zi bosh darvozaga chekindi. Uning orqasidan bir-birini bosib jang aravalari, otiqlar, piyodalar yugurdilar. Jang maydonida 5000 o'lgan va yarador bo'lganlar qoldi. To'rt harbiy boshliq tirik ushlanib, osur podshosi oldiga keltirildi. Podsho ularni Damashq darvozalari oldidagi qoziqqa o'tqizishga buyruq berdi.

Qamal boshlandi. Tiglatpalasar bo'ysunmas Damashq devorlari ostida bir yildan ko'p turdi, shundan so'ng shaharni hujum bilan olishga qaror qildi. Tiglatpalasarning amri bilan Damashqning janubiy devoriga «katta chivin» deb ataladigan qamal uskunasi taqab qo'yildi. Bu katta yog'och to'rtburchak qurilma bo'lib, unga ot qili va dub daraxti po'stlog'i qo'shib to'qilgan kuchli arqonlar tortilgan. Arqonlar alohida plastinkalar bilan kuchli buraladi, keyin ulkan kuch bilan bo'shatilib, og'ir tosh bo'laklarini qamal qilingan qal'a devori va darvozalariga otiladi.

«Katta chivin» tarang qilib ko'p joylarda janubiy devor va bosh darvozaga zarar yetkazdi. Bundan mamnun Tiglatpalasar zarar yetgan joylarga taranlarni olib kelishni buyurdi. O'nlab askarlar ulkan qafasni eslatadigan to'sinlardan qilingan inshootlarni siljitdilar. Ularning har birining ichida temir bilan qoplangan og'ir uchli yo'g'on g'o'lalar arqonlarda tebranar edi. Uzun qalqonlar bilan himoyalangan osur askarlari barcha qurilmani bosh minoraga g'ildiratib keldilar. To'rt pahlavon arqonlarni tebratdi, taran minoraning chetiga urdi, g'ishtlar to'kildi. Qamaldagilardan kimdir minora

tepasidan bronza zanjir tushirib, taranni chulg'ab olmoqchi bo'ldi. Bir necha daqiqa davom etgan to'xtashdan foydalangan qal'a himoyachilari taranlarni ushlab turgan yog'och asosga olovli o'qlarni yog'dira boshladilar. Lekin osur askarlari qalqonlar bilan himoyalaniib, yonayotgan olovni o'chira boshladilar.

Ikkita jasur askar bronza zanjirga yopishib, o'z gavalalarini bor og'irligi bilan uni pastga tortdilar. Yana bir lahzada u toyib ketdi va taran yana ishlay boshladi.

Tezda minora devorida katta yoriq paydo bo'ldi va osur askarlari himoyachilarning qarshiligini yengib, ichkariga yopirildilar. Keyingi kun bosh darvoza quladi va ilg'or osur qismi shahar ichiga kirib oldi. Uzoq qarshilikdan qahri kelgan osurlar hech kimni ayamadilar. Yaradorlarning boshini gurzi bilan majaqladilar yoki xanjar bilan bo'ynini kesdilar.

Yong'in ichida qolgan uylardan shoshilinch ro'zg'or ashyolarini olib, ayollar, bolalar va qariyalarni sudrab chiqib, juft qilib bog'lab asirlikka haydadilar. Sakkizinchi kun Tiglatpalasarga jarohatlar olgan, qonga belangan Retsinni olib keldilar. Osur podshosi unga qahr bilan qarab, mag'lubning boshini olishni buyurdi. Bir necha harbiy boshliqlarning burnini kesdilar. Shaharning shimoliy darvozalarida kesilgan boshlardan butun bir tepani uydi- lar. 20000 tinch aholi asirlikka




13-rasm.




14-rasm. Osuriya qalqonlari. Nimruddagi Ashshurnasirpal II ning saroyidagi relyeflardan chizilgan (mil. avv. IX asr).

haydab ketildi. Osuriyaliklar bo'ysunmaganlarni shunday jazoladilar (Древний Восток. книга для чтения. Учпедгиз. – М.: 1968. 120-123-betlar).

Osuriyada dumaloq qalqonlar keng tarqalgan edi. Ularning diametri 60-70 santimetr bo'lib, bronzadan yapaloq uchburchak shaklda yoki to'qilgan po'stloqdan yasalar edi. Po'stloqdan to'qilgan qalqon teri bilan qoplanar va bronza plastinkalari bilan hoshiyalangan edi. Osur qo'shinlarida dumaloq qalqonlardan tashqari to'g'ri burchakli ikki o'lchovdagi qalqonlar qo'llanilar edi. O'rtachalari 40x100 sm o'lchamda bo'lgan. Katta qalqonlar odam bo'yi, hatto undan baland qilingan.



15-rasm. Osurlar qalqonlarni yasashda qamishni vertikal qo'yib, gorizontaltaxtachalar bilan birlashtirganlar. To'g'ri burchakli qalqonlar to'qilgan po'stloqdan qilingan.



16-rasm. Osuriyaliklar va bobilliklarning harbiy kemalari.

XETT HARBIY SAN'ATI

Akiyani, Araxati podshosini va uning jangchilarini mulklari bilan birga asir oldim va Xett mamlakatiga olib ketdim. Men Nuxashish mamlakatiga yurish qilganimda, uning mamlakatini egalladim. Podsho o'ldirildi, uning onasi, akalari, o'g'illarini asir oldim va xettlar mamlakatiga olib ketdim.

**Mil. avv. XIII asr o'rtalarida
hukmronlik qilgan Xett podshosi
Arnuvandashani yozuvidan**

Mil. avv. XVIII asrning birinchi yarmida (hozirgi Turkiya hududi) Kichik Osiyoda yashagan Xett qabilalari hududdagi Nesa (Kanish), Burusxan, Kussar va Xattusi kabi shahar-davlatlarini shakllantiradilar. Kichik Osiyodagi viloyatlardan birining hokimi bu shahar-davlatlarni birlashtiradi. Anita Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi tuz ko'ligacha hududlarni egallab, bepoyon davlat barpo qiladi. Xett davlati asoschilarini birlashtiruvchi siyosatini istilochi va islohotchi podsho Labarna (yoki Tabarna) (mil. avv. 1675–1650-yillar) tugallaydi. U yaxshi qurollangan armiya bilan istilochilik yurishlarini davom ettirib, Tavr tog' tizmasining shimoliy qismini egallaydi va shimoliy Qora dengizga chiqadi.

Labarna mavjud Xett an'analariga zid ravishda o'g'li Xattusilini o'z vorisi deb e'lon qiladi. Uning vorisi Xattusili I (mil. avv. 1650–1625-yillar) poytaxtni xettlarning sobiq bosh markazi Xattusiga ko'chirgan. (Shu voqeadan keyin davlat rasmiy ravishda «Xatti», zamonaviy fanda «Xett» deb atala boshlanadi).

Xett davlatida vaqt o'tishi bilan mamlakat xavfsizligi va istilochilik urushlarini olib borishi uchun yaxshi qurollangan jangovar armiya shakllantirilgan.

Armiya tuzulmasi. Xett armiyasining asosiy qismini piyoda askarlar tashkil etgan. Qadimgi Xett podsholigi

davridan bizgacha yetib kelgan yozuvlarda podsho Anitaning 1400 piyoda askariga 40 jang aravasi to'g'ri kelgani aytiladi. Mil. avv. 1280-yilda bo'lgan Qadesh yonidagi jangda Xett armiyasining soni 20 ming piyoda askar, 2500 jang aravasini tashkil etgan. Bu o'sha davr uchun katta son edi. Xett armiyasi katta g'alabalar, g'olibona urushlar bilan davlatni mustahkamlagan.

Jang aravalari. Osuriya, Misr davlatlari armiyasida bo'lgani kabi Xett armiyasining zarbdor qismini jang aravalari tashkil etgan. Xettlar old Osiyoda birinchi bo'lib, yengil jang aravalaridan foydalanganlar. Jang aravalari alohida harbiy qismni tashkil etib, bu qismda aksariyat oqsuyak-zodagonlar xizmat qilgan. Chunki jang aravasi, qurol-aslaha va jihozlari hamda jang aravasiga qo'shiladigan otlar juda katta mablag' talab qilgan. Xett armiyasining zarbdor qismi bo'lgan yengil jang aravalari istilochilik urushlarida armiyaning g'alabasini ta'minlashda muhim o'rin tutgan.

Ma'lumki, jang aravalari ilk bor g'arbiy Osiyoda mil. avv. 1600-yildan keyin paydo bo'ldi. Lekin bunday qurol turi yangilik emas edi. Jang aravalari mil. avv. III ming yillikda shumerlarda ham mavjud bo'lgan. Shumerda mil. avv. III ming yillik jang aravalariga ilk bor xachir va eshaklar qo'shilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, otlar qo'shilgan spitsali g'ildirakli jang aravasi mil. avv. XVI asrda bir vaqtning o'zida Bobilda, XVII sulola davrida Misrda va Kichik Osiyo shimolidagi Mitanni davlatida paydo bo'ladi. Jang aravasi jangda tezligi va yengilligi bilan hal qiluvchi o'rinni egallagan. Xett armiyasida istilochilik urushlarida yengil jang aravasidan keng foydalanilgan.

Xett jang aravasi Misrnikidan katta farq qilmagan. Har ikki jang aravasining ham g'ildiraklarida olti spitsa mavjud bo'lgan. Shu bilan bir vaqtda Misr jang aravasi ekipaji ikki kishi – haydovchi va jangchidan iborat. Xett jang aravasi misrliklarnikiga qaraganda yengil va tez yuradigan bo'lgan. Xetlarda jang aravasi ekipaji 3 ki-

shidan tashkil topgan. Haydovchi, kamonchi va qalqon-bardordan iborat jang aravasi dushman saflarini to'zgi-tib yuborgan. Hujum quroli – nayza va kamon, qalqon – to'g'riburchakli yoki shakli bo'yicha vertikal qo'yilgan ikki tomonlama boltaga o'xshash qurol bo'lgan.

Xettlarning ko'p sonli jang aravalari urushlarda boshlang'ich hujumdan keyingi boshlanadigan yaqin masofada bo'ladigan jangda ko'p sonligi bilan ustunlikni ta'minlashi lozim bo'lgan. Misrliklar kabi xett jang aravalari zarba beruvchi kuch edi. Xetlar istilochilik yurishlarida jang aravalarining imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadida tekis joyni jang maydoni sifatida tanlashgan.

Xett imperiyasi podsholari qobilyatli strateg (yo'l-boshchi) va harbiy rejalar tuzishda mahoratli bo'lganlar. Ularning harbiy taktikasi quyidagicha bo'lgan: birinchidan, xetlar o'z zarbdor kuchlari bo'lgan jang aravalarini harakatlanishi qulay bo'lgan joyga joylashtirganlar. Keyin esa dushman armiyasini o'zlarining jang aravalari kutib turgan joyga yo'naltirib, dushman armiyasini jang aravalari yordamida jadal sur'atda tor-mor keltirishgan. Xuddi mana shu jang uslubidan Xett podshosi Suppilulium foydalangan. Lekin bu harbiy rejalar Shimoliy Mesopotamiyaga hujum paytida yordam bermagan.

Xett armiyasining tashkiliy tuzilishi o'z davrining eng yaxshi harbiy tashkillashtirilgan tuzilmasiga ega bo'lgan. Armiya asosan og'ir qurollangan piyoda qismlar va jang aravalaridan iborat bo'lgan. Armiya muntazam qism va urush vaqtida qaram hududlarda olinadigan ko'ngillilardan tuzilgan. Xett armiyasida yordamchi harbiy qismlar ham mavjud bo'lgan. Ba'zida po'satdan tez bo'ladigan hujumlarda yordamchi qismlar – «sutu» deb atalgan, kamon va nayza bilan qurollangan askarlardan foydalanilgan. Dushmanga tunda hujum qilish taktikasi qo'llanilgan. Asrga olinganlarni askarlik xizmatiga olganlar va ularga harbiy xizmati

uchun yer ulushi berilgan. Muntazam armiya doimo harbiy mashqlar bilan band qilingan. Armiya maxsus qurilgan qarorgohda, chegara qal'alarda va garnizonlarda turgan. Xettlar qal'a-shaharlarni qamal qilish tajribasiga ega bo'lganlar va qamalda turli uskunalardan yaxshi foydalanganlar.

Xettlar imperiyasi fasllarga qarab qo'shni davlatlarga harbiy yurishlar uyushtirishgan. Bahor va yoz fasllarida xettlar faol tashqi harbiy yurishlar olib borishgan. Kuz va qish fasllarida yurishlar to'xtatilgan. Buning asosiy sababi jangchilarni qishki issiq kiyimlar bilan ta'minlash muammosi bo'lgan. Bahor fasli boshlanganda barcha askarlar chaqirilib, harbiy ko'riklar, harbiy yurishga tayyorgarlik o'quv mashg'ulotlari, mashqlar o'tkazilgan. Ayni shu paytda Xett askarlari yangi qurollar bilan qurollanishgan. Askarlar aytilgan paytda, aytilgan joyda yig'ilishlari majburiy bo'lgan. Ofitserlar yoz bo'yi armiyaga boshchilik qilib, istilochilik yurishlari olib borishgan. Hatto 6 oy katta harbiy operatsiyalar uchun kamlik qiladi. Shu sababli yilning boshqa fasllarida ham kichik harbiy operatsiyalar o'tkazishga podshodan rozilik so'rashgan. Askarlar kuzning boshigacha jang qilib, kuz faslida oilasiga xo'jalik ishlariga yordam berishgan. Qishda askarlar qishlash uchun maxsus harbiy yotoqlarga joylashtirilgan.

Xett armiyasi qurol-yarog'i. O'sha davrdan qolgan relyef- tasvirlarda xett askari kalta yubka, oyog'ida etik, dubulg'a, jangovar bolta va kalta qilich, xanjar bilan tasvirlangan. Lekin ko'pgina tasvirlarda Xett jangchilari oyoqyalang tasvirlangan.

Xett qilichi yarim oy shaklida yasalgan bo'lib, qilichning uchi tepaga qarab qayrilgan. Jangovar boltalar qo'lga ushlash uchun mos qilib ishlangan. Xettlarning tig' uchi keskin qayrilgan, jangovar boltasiga odam qo'li shakli berilgan. Boltalar ko'pincha bronzadan bo'lib, uchi juda o'tkir bo'lgan. Bolta asosan yuzma-yuz jangda raqibga zarba berish quroli bo'lgan.

Xett piyoda askarlari Misr relyeflarida kalta yengli, uzun ko'ylakda tasvirlangan. Anatoliya (Turkiya) yodgorliklarida esa Xett piyoda askarlari tizzagacha tushadigan qisqa ko'ylaklarda tasvirlangan. Askarlar himoya uchun qalpoq va qalqonlardan foydalanganlar. Yunonlar keyinchalik xettlarning harbiy qalpoq va qalqonlarining tuzilishini o'zlashtirib olganlar. Xett askarlarining kiyinishi turli Xett va Misr relyef tasvirlarida uchraydi. Taxminlarga ko'ra, Misr manbalarida tasvirlangan uzun ko'ylak Xett askarining bayram libosi bo'lgan deb faraz qilinadi.

Xettlar misrliklardan farq qilgan holda uzun soch qo'yib yurganlar. Shu sababli Ramzes II (mil. avv. XIV asr) davrida misrliklar xettlarni «ayollar» deb mazax qilganlar. Xett poytaxti darvozasidagi relyef tasvirida xett askari qisqa yubkada, qalpoqda, kalta qilich va bolta bilan turibdi. Qalpoq quloqchinli va jig'ali bo'lib, askarning bo'yni va bo'yni orqasini yopgan. Xett askarining kiyinishi va qurollanishi Xett poytaxti Xattusi (hozirgi Turkiya hududi) shahridagi «Podsho darvozasi» deb ataladigan ustunda boshqa manbalarga qaraganda yaxshiroq va mukammalroq tasvirlangan. Bunda yubka – yo'lbars, ilonlarning terisi parchalaridan kesib tikilgan, yubkada gorizontaal va vertikal chiziqlar ham mavjud. Yubka faqat beldan past qismni yopgan va askarning belini kamar bilan ushlab turilgan. Dubulg'a ham juda ajoyib tarzda ishlangan. Dubulg'a ikki yon tomondan tushib, quloqchin vazifasini bajarib, quloqlarni berkitib turgan. Dubulg'aning orqa tomoni ham ajoyib ishlangan. Bunda dubulg'a yelkani ham himoya qiladi.

Davlat hokimiyati harbiy sohani birinchi darajaga qo'yan. Armiyaning jangovar qobiliyatini ta'minlash uchun doimo harbiy mashqlar, o'quv mashg'ulotlari, harbiy ko'riklar muntazam o'tkazilgan. Xett armiyasining jangovar qobiliyati yuqori darajada bo'lgan. Shu sababli o'sha vaqtdagi old Osiyoning qudratli davlatla-

ri bo'lgan Misr, Bobil, Osuriya va Mitanni qo'shinlarini ko'p marta janglarda mag'lub qilganlar. Xett armiyasi Bobilni bosib oladi, qudratli davlat Mitanniga qarshi g'olibona urush olib borib, uni ikkinchi darajadagi davlatga aylantirgan.

Xett armiyasining jang uslubidagi mahoratini, ayniqsa, Misr manbasida keltirilgan Kadesh jangida ko'rish mumkin. Xett armiyasi Kadesh shahri yaqinida shunday pistirma qo'yadiki, buni Misr jangchilari sezmay o'tib ketishadi. Misrliklar yurishda davom etib, qal'ani vayron qilishga kirishadilar. Xett armiyasi misrliklarning orqasidan o'tib, Misr jang aravalari qismiga hujum qiladi. Misr armiyasi butunlay yanchib tashlanadi. Agar Misr armiyasining bir qismi boshqa tomondan tezlik bilan harakat qilib Xett armiyasiga hujum qilmaganida. Misr armiyasining to'la yanchib tashlanishi aniq bo'lgan. Mana shu baxtli tasodif tufayli Misr armiyasi omon qoladi. Lekin Misr fir'avni Tutmoz III annallarida bu jang g'olibona tugallangani tasvirlanadi.

Mill. avv. XV asrda Xett davlati qudratli davlatlar bo'lgan Misr, Bobil, Osuriya va Mitanni davlatlari bilan old Osiyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun raqobat qilgan. O'sha davrda old Osiyoda xalqaro savdoni o'z qo'liga to'plagan Bobil davlati tez orada xetlar tomonidan bosib olinadi. Yana bir qo'shni qudratli davlat Mitanniga qarshi g'olibona urush olib boradi, uzoq urush harakatlari natijasida Mitanni ikkinchi darajadagi davlatga aylangan.

Xett davlati mil. avv. XIV asrda ham o'zining kuchli armiyasi bilan old Osiyoda istilochilik urushlarini olib boradi. Falastin, Finikiya uchun Xett armiyasi Misr bilan to'qnashadi. Mil. avv. 1290–1280-yillar oralig'ida Xett va Misr armiyasi o'rtasida hozirgi Suriya hududida qonli urush harakatlari bo'lib o'tgan. Bu urush harakatlari mil. avv. 1280-yilda tuzilgan Misr-Xett tinchlik shartnomasini imzolanishi bilan tugaydi. Bu shartnoma dunyo tarixida birinchi xalqaro shartnoma edi.

Shartnoma matni xett, misr, bobil tillarida bizgacha yetib kelgan. Shartnomaga ko'ra Xett davlati tarkibiga Kichik Osiyo, Suriyaning bir qismi, Shimoliy Mesopotamiya va Shimoliy Finikiya kirgan. Bu shartnoma qariyb yuz yil davomida amal qilgan. Shartnomada har ikkala davlat o'rtasida harbiy hamkorlik qilish, tashqi dushmanlar hujum qilganida bir-birlariga o'z armiya va jang aravalari bilan yordam berishga kelishib olingan. Ushbu tinchlik shartnomasida shunday yozilgan: «Tashqi va ichki dushmanlarga qarshi o'zaro yordam to'g'risida». Agar boshqa dushman Usermaatra-Setependra Misrning buyuk hukmdori yerlariga qarshi chiqsa, u xetlar hokimiga «Men bilan birga yordamga yur, unga qarshi(?)» deb (xabar) yuboradi va shunda xetlar hokimi uning dushmanini yengadi. Agar xetlar hokimining (o'zi) kelishiga istagi bo'lmasa, shunda u tezda... o'zining (piyoda) armiyasi va jang aravalari armiyasini yuboradi va uning (Misrning) dushmanini yengadi» (R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. –T.: «Adib» nashriyoti. 2013-y. 22-b.).

Himoya. Xetlar hujumda qanday mohir bo'lsalar, himoyada ham shunday edilar. Xetlar o'z mamlakatlari himoyasini yuqori darajada tashkil etganlar. Mamlakat hududida mustahkam shahar va qal'alar bunyod qilinib, ularning har birida himoya uchun tegishli harbiy qismlar joylashtirilgan. Hozirgi Turkiyaning Bo'gazqoya hududida qadimda xetlar bunyod qilgan qal'a o'zining yuqori darajadagi himoyasi bilan diqqatga sazovor. Bo'gazqoyada qurilgan qal'aning faqat janub tomoni devorlar bilan o'ralgan. Qal'aning qolgan tomonlari mustahkam qoya va to'g'lar bilan o'ralgan. Shuning uchun qal'ani boshqa tomonlariga mudofaa devorlari qurishga ehtiyoj bo'lmagan. Shaharni himoya qilgan janub devorlari hozirgacha saqlanib qolgan. Himoya devorlari 2 qismdan iborat bo'lgan: asosiy qism va yordamchi qism. Asosiy qism qalin devor, yordamchi devorlar ancha ensiz bo'lib, asosiy devordan 20 fut uzoqlikda joylashgan.

Asosiy devorning o'rta qismi qattiq katta tog' toshlari bilan to'ldirilgan. Bunday qurilish xettlarning an'anaviy himoya devorlarini qurish uslubi hisoblangan. Devorlar balandligi 8-10 metr balandlikda bo'lgan. Har bir devorda darvoza bo'lgan. Darvoza to'g'risida xandaq qazilib, ustiga ko'prik qurilgan. Bu ko'prik tunda ko'tarilib qo'yilgan. Darvoza 14 fut balandlikda joylashgan. Bundan tashqari qal'aga kirish uchun maxfiy yo'llar ham bo'lgan. Bu maxfiy yo'llar qal'ani dushman bosib olishi xavfi tug'ilgan paytda va qamal qilinganda faqat podsho va uning oilasi foydalanishi uchun mo'ljallangan. Istehkomlar qurilishi to'g'risidagi ma'lumotlarda sapyorlar haqida faktlar beriladi. O'sha davrda sapyorlarning vazifasi qamal qilinayotgan qal'a-shaharlar devorlari tagida lahim qazish, shaharga kiradigan maxfiy yerosti yo'llarini kavlash bo'lgan.

Davlat hokimiyati tomonidan armiyaning qurol-yarog', oziq-ovqat ta'minoti yuqori darajada tashkil etilgan. Jang aravalarini yasash markazlashgan tartibda davlat ustaxonalarida bajarilgan. Podshoning maxsus buyrug'i asosida jang aravallari tayyorlangan. Jang aravasining xomashyosi uchun yog'ochning bir necha navlari, charm va metallar ishlatilgan.

Harbiy ishda otlarga ehtiyoj katta bo'lganligi sababli xetlar yilqichilikka alohida e'tibor berganlar. Bizgacha Xett podshosi otboqari Kikkulining chavandozlik san'ati otlarni parvarish qilish va jang aravalariga qo'shiladigan otlarni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomasi yetib kelgan. Otlarni aravani tortishga o'rgatish bo'yicha mashqlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Mashqlarda asosan otlarda chidamlilik shakllantirilgan. Xett armiyasida otlar jang aravalariga qo'shilgan. Armiya ta'minotida yuk tashish ot qo'shilgan og'ir aravalarda amalga oshirilgan. Armiyaning yuklarini tashish uchun alohida aravalar yasalgan. Bu aravalarda 2 tonnagacha bo'lgan yukni otlar bermalol torta olgan. Misr manbalarida yozilishicha, Xett armiyasi yuk tashishda eshak,

xachirlardan ham foydalangan. Xettlar harbiy yuklarni ho'kiz va eshaklar qo'shilgan to'rt g'ildirakli og'ir aravalarda olib yurganlari to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Otlarning nasli muntazam yaxshilanib borilgan. Xett armiyasida otliq qismlar ham mavjud bo'lgan.

Xett podsholarining o'zlari jang san'atini mukammal egallaganlar. Ular yoshligidan harbiy ishga o'rgatilgan. Podsholar Anita, Telepin va boshqalarning istilochilik urushlari to'g'risidagi yozma matnlar bizgacha yetib kelgan.

Qadimda sharq mamlakataridagi cho'l va dashtlarda yirtqich hayvonlar mo'l-ko'l bo'lgan. Podsholar va aslzodalar sher va yo'lbarslarni ov qilish bilan ko'ngil ochganlar. Maxsus ovchilar shahzoda va oqsuyak-zodagonlarning bolalarini yoshlikdan ov qilish san'atiga o'rgatganlar. Hozirgi Turkiya hududida saqlanib qolgan relyef tasvirida Xett podsholarining sher ovi tasvirlangan.

Xett davlatida maxsus davlat idorasi harbiy soha bilan shug'ullanib, armiyaning qurol-yarog', oziq-ovqat ta'minoti va askarlar olish bilan mashg'ul bo'lgan. Xett harbiylari davlat himoyasida bo'lib,

ularning huquqlari qonun bilan himoyalangan. Harbiy xizmatdan bo'yin tovlash og'ir jinoyat hisoblangan va bundaylar o'lim jazosiga hukm qilingan. Harbiy xizmat umrbod bo'lgan. Xettlar urushlarda asir olinganlarni ham askarlik xizmatiga olganlar va ularga yer ulushi berilgan.



17-rasm. Xett poytaxti darvozasidagi relyef tasvirida Xett askari kalta yubkada, qalpoqda, kichkina qilich va bolta bilan turibdi.



18-rasm. Xett jang aravasi.



19-rasm. Xett jangchisi. Sanshirlidagi bazalt relyef tasviridan ko'chirma.



20-rasm. Xett jang aravasi. Xett falangasining birinchi uch qatori. Xettlar jangda saflanish tartibini bilganlar. Ular harbiy ish tarixida birinchilardan bo'lib falanga tarzida jang qilish san'atini egalladilar.



21-rasm. Xett jang aravasi. Abu Simbeldagi Ramzes II relyefidagi tasvir (mil. avv. XIII asr).



22-rasm. Zodagon xettlar jang aravalarida. Qadimgi Misr relyeflaridan.

SAK – MASSAGET, SKIFLARNING HARBIY SAN'ATI

Massagetlar skiflar kabi kiyinib, ularga o'xshab hayot kechiradilar. Ular otda va piyoda safda ham jang qiladilar. Ularda, odatda, kamon, nayza va jangovar cho'qmorlar bor. Lekin nayzalar, kamon o'qlari va jangovar cho'qmorlarning metall qismlarini misedan yasaydilar, bosh kiyimlari, kamar va belbog'larni tilla bilan bezaydilar.

Gerodotning «Tarix» asaridan

Sak-skif qabilalari mil. avv. III ming yillikdan shimoliy Xitoydan sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Kaspiy dengizi sohillaridan Qora dengiz bo'yigacha sahro, cho'l, o'rmon zonalarini, katta-kichik daryo vodiylari, tog' yonbag'irlarida yashaganlar. Ular ko'chmanchi chorvachilik, baliqchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ko'chmanchilar doimo minglab chaqirim bepoyon dashtlarda chorva mollari orqasidan muntaзам ko'chib yurganlar. Antik mualliflar Yevropada yashagan saklarni O'rta Osiyoda yashagan saklardan farqlash uchun ularni «skif» nomi bilan ataganlar. Ilmiy adabiyotlarda shimoliy Xitoydan sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Kaspiy dengizi sohillaridan Qora dengiz bo'yigacha yashagan yuzlab tillarda so'zlashgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi urug'-qabilalarni umumiy nom bilan sak-skif qabilalari deb ataydilar.

Bizning o'lkamizda saklar, ularning bir ko'rinishi bo'lgan massagetlar qadimdan yashagani e'tirof etiladi. Ularda xo'jalikning asosiy sohasi chorvachilik bo'lib, yilqichilik muhim o'rin tutgan. Mil. avv. VII asrda sak-massagetlar harbiy demokratiya davriga o'tadilar. Mil. avv. VI asrga kelib sak-skif davlatlari vujudga kelgan. Ular atrofdagi davlat va jamiyatlar bilan ziddiyatli, tinch munosabatda bo'lganlar va ko'plab urushlar olib borganlar.

Sak-massagetlar yaylov-o'tloq, yer-suv uchun doimo boshqa urug'-qabilalar bilan urush-to'qnashuvlar girdobida yashaganlar. Urug'-qabilaning har bir a'zosi jangchi bo'lgan. U o'z uyi, podasi, o'tloq-yaylov va suv havzasini himoya qilish uchun qilich, kamon, nayza va boshqa qurollardan foydalana bilishi hamda chavandoz bo'lishi hayotiy zarurat bo'lgan. Qurg'oqchiliklar, uning natijasida ochlik, qahraton qish, izg'irin sovuqlar ko'chmanchilar hayotini doimo xavf-xatarga qo'ygan. Yer-suv, o'tloq-yaylovlari uchun qo'shni urug'-qabilalar bilan o'zaro to'qnashuvlar ko'chmanchilarning doimiy hamrohi bo'lgan.

Ana shunday xavf-xatarga to'la hayot ko'chmanchi urug'-qabilalardan o'zini himoya qilish va tirik qolish uchun harbiy jang san'atini o'rganishni taqozo qilgan. Ko'chmanchilar tug'ilgan bolani qor yoki sovuq suvga tashlaganlar. Agar u tirik qolsa, sog'lom, kuchli bo'lib o'sish imkoniyati bo'lgan. Bola kichkinaligidan ovga o'rgatilgan: «... qo'yga minishga qodir bo'lgan bola kamondan qush va mayda jonivorlarni otishni eplaydi... va uni ovqatga ishlatadi» – deb yoziladi ko'chmanchilarning hayotiga oid qadimgi yozma manbalardan birida. O'smirlarning balog'at yoshiga yetgani turli sinovlar bilan tekshirilgan: Ko'chmanchi qabilalardan birida o'smirlarning haqiqiy erkakligini quyidagi sinov bilan aniqlaganlar: O'smir 15 yoshga yetganida jasorat kamari bilan belini bog'lab, dushman qo'shnilarga bosqinga yuborilgan. Agar u dushmanning boshini keltirsa, u haqiqiy «ikki marta tug'ilgan erkak»ga aylangan. Agar u qaytib kelmasa, hech kim uni eslamagan. Ko'chmanchilarda och qolmaslik, sero't o'tloq-yaylovlarni qo'ldan chiqarmaslik uchun boshqa raqib urug'-qabilalarga qarshi doimiy urush qilish odatdagi hol bo'lgan. Qadimgi yozuvchilardan biri shunday yozib qoldirgan: «... bizda doim urushlar olib boriladi yoki biz hujum qilamiz, yoki bizga hujum qiladilar, yoki biz yaylovlari uchun

urush qilamiz», – deydi bu yozuvchining qahramoni Toksaris. «Ularning kelishini kutmagan odamlarga hujum qilganlar, ularning barchasini qochishga majbur qildilar... qurol ko'tarishga qodir bo'lganlarning ko'pchiligini o'ldirdilar, boshqalarini tirik olib ketdilar va shu vaqtning o'zida o'ljani olib, asirlar to'dasini to'plash, o'tovlarni talashni boshladilar...» Toksaris cho'l va sahrolardagi ko'chmanchilarning odatdagi hayotini shunday tasvirlagan.

Sak-skiflarda o'smirlar bolalik davridanoq harbiy ishni o'rganib, murakkab sinovlardan so'ng haqiqiy jangchi sifatida tan olinganlar. Ular erkak jangchilar qatoriga qo'shilish uchun bir necha sinovlardan o'tganlar. Har bir o'smirga go'dakligidan sabr-toqat, chidam, iroda shakllantirilgan. O'smirlarga ekstremal vaziyatlardan chiqib ketish ko'nikmasi singdirilib, o'zini himoya qilish, jang san'ati hamda chavandozlik o'rgatilgan.

Otga minish, chavandozlik o'smirlik yoshidan o'rgatilgan. Ot sak-massagetlar uchun eng yaqin do'st, yordamchi bo'lgan. Chavandozlik, otda jang qilish bo'yicha turli bellashuv va musobaqalar o'tkazilgan. Bizgacha yetib kelgan ko'pkari, ot poygasi qadimgi avlodlarimizdan qolgan ot bilan bog'liq bellashuvlardan dengizdan bir tomchi xolos. O'rta asrlarda Yevropada harbiy turnirlar qadimgi sharq dunyosidagi jangchilar bellashuvidan o'zlashtirilib olingan xolos. Saklar uchun yugurib ketayotgan yaydoq otda kamondan 200 metrgacha nishonga bexato urish odatiy hol bo'lgan. Harbiy yurishlar vaqtida jangchilar, odatda, ikki otda chiqqanlar. Sak-skiflarda ayollar yaxshi chavandoz va mohir jangchi bo'lib, harbiy yurishlarda qatnashganlar. Ko'chmanchilar yilqichilikka alohida e'tibor berganlar. Nasldor otlar ko'paytirilgan va ular yuqori baholangan. Otlarning egar-jabduqlarini tayyorlaydigan mohir ustalar bo'lgan.

Sak-skiflarda asosiy qurol kamon va uzun nayza bo'lgan. Kamon ikki o'roqsimon qismlardan tashkil top-

gan, ehtimol, to'g'ri qo'shilgan ikki hayvon shoxidan iborat bo'lgan. Ular kamon ipini ko'krakka tayanib emas, yelkaga tayanib tortganlar, chap va o'ng yelkadan ham birday mohirlik bilan o'q uzganlar. Kamon uchlari har xil shaklda qilingan. Sak-massagetlar boshqa skiflar kabi otda turib kamondan o'q uzganlar. Ular yugurib ketayotgan ot ustidan aniq nishonga olganlar. Ovidiyning aytishicha, skif askari otliq kamonchi edi. Uning kuchi «o'qda, o'q bilan to'la sadoqda va charchashni bilmaydigan tez yuradigan otda». Jangchida kamon va nayzadan tashqari kalta qilich va arqon bo'lgan.

Sak-massagetlarning himoya anjomi qalqon, sovut va qalpoq bo'lgan. Otlari ko'kragi va tanasini o'qdan himoya qiladigan yoping'ich (bargustvon) bo'lgan. Qalqon uncha katta bo'lmay, charmdan, mis va yog'ochdan tayyorlangan. Sovut boshda misdan, keyin temir plastinkalardan bo'lib, ular charmga shunday tikilganki, bir qatorning plastinkalari boshqa qatorning plastinkalarini yarmigacha yopgan. Bunday sovut gavdaga jips yopishib, askarning harakatini siqib qo'ymagan. Otlarga himoya vositasi sifatida otning ko'kragini himoya qiladigan maxsus mato tayyorlangan.

Jang taktikasi. Dushman armiyani jangda qurshab olganda yoki aksincha qo'li baland kelgan paytda pistirma va zaxiradagi armiyadan foydalanilgan. Safning jips turishi va oldingi qatorning bir tekisda, ko'pincha pona ko'rinishida turishiga katta e'tibor berilgan. Saflanishda ichkari tomonga uncha e'tibor berilmagan. Jang otliq holda saflanib olib borilgan va hech qachon otdan tushilmagan.

Sak-massagetlarning o'ziga xos jang taktikasi bo'lgan. Yengil qurollangan otliqlar qo'qqisdan paydo bo'lib, dushmanga o'q yog'dirganlar va kutilmaganda tezlik bilan birdaniga chekinganlar. O'zini boshqara olmay qolgan dushman kuchlari ularni ta'qib qilgan. Natijada jang maydonidan uzoqlashgan ta'qib etuvchi dushman

kuchlari birdan o'rab olinib, yanchib tashlangan yoki pistirmaga tushirilgan. Yana bir jang taktikasiga ko'ra dushman kuchlariga doimo kichik-kichik hujumlar qilingan. Dushman kuchlari o'z tayanch nuqtasidan uzoqlashgan. Oxir-oqibatda dushman doimiy hujumlar, suvsizlik va ochlik, doimiy izg'ib yurishdan holdan toyib orqaga qaytgan. Bu holdan toydirish taktikasi edi.

Otliq ko'chmanchilarning yana bir o'ziga xos jang taktikasi bo'lgan. Jang, odatda, uzoq pistirmalarning harakati, dushmanni aylanib o'tish, atayin chekinish va kutilmagan hujumga o'tish bilan boshlangan. Jang g'alaba bilan yakunlansa, dushman to'la yanchib tashlangan yoki to'zitib yuborilgan. Agar jangda g'alabaga erishib bo'lmaganda ham to'la yengilmaguncha yoki jang o'z foydasiga hal bo'lmaguncha jang davom ettirilgan.

Sak-massagetlar va baqtriyaliklarning jangovar qobiliyati qo'shni davlat, xalqlar tomonidan yuqori baholangan. Qudratli Ahmoniylar Eroni armiyasida sak-massagetlar, baqtriyaliklar imtiyozli otliq qismlar sifatida janglarda qatnashganlar. Mil. avv. VI – IV asrlarda sak-massagetlar, baqtriyaliklar Ahmoniylar davlatining qaram hududlaridan biri – Misr va chegara hududlardagi garnizonlarda harbiy xizmatni o'taganlar.

Saklar. Ahmoniylar Eroni O'rta Osiyo saklarini bo'sundirish uchun mil. avv. VI asrning 519-yilida armiya to'plagan, lekin qattiq zarbaga uchraganlar. Sak jangchisi Shiroq dushmanni sahroga yo'naltirib adashtirgan. Bir necha kunlar qum-barxanlar ichkarisiga olib kirgan dushman jangovar qobilyatini yo'qotgan. Ochlik, suvsizlik, haddan tashqari issiqdan holdan toygan katta armiya saklarning harbiy qismi tomonidan qirib tashlangan. Bu voqea to'g'risida tarixchi Poliyen mil. avv. II asrda o'zining »Harbiy hiylalar« asarida yozib qoldirgan. Forslar katta qiyinchilik bilan saklarning bir qismini bo'sundirgan.

Doro I ning hozirgi Kirmonshoh yaqinidagi Behus-tun yozuvlarida saklarga qarshi yurishi to'g'risida yozib

qoldirilgan: «Doro podsho soʻzlaydi: Men armiya bilan birga saklar, dengiz ortida boʻlgan saklar mamlakatiga yurdim, ular choʻqqi qalpoq kiyadilar. Keyin men kema koʻprigini dengiz yaqinida uning oʻrniga qayta qurdim. Bu kema koʻprigidan mamlakatga oʻtdim va men saklarni kuchli yengdim, bir qismini men bosib oldim, boshqa qismi menga keltirildi va ularni bosib oldilar, ularning eng kattasi bogʻlangan Skunxa edi, uni menga keltirdilar. U yerda men boshqasini boshliq qildim, meni irodam shunday boʻldi. Keyin mamlakat meniki boʻldi» (R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. –T.: 2013, «ADIB» nashriyoti).

Mesopotamiya, Misr, Sharqiy Oʻrtayer dengizi mamlakatlari, Kichik Osiyoni boʻysundirgan Ahmoniyalar Eroni uchun sharqiy chegaralar xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan massagetlar, qolaversa, Turon past tekisligining boyliklarini bosib olish asosiy maqsad boʻladi. Mil. avv. 529-yilda Kayxusrav armiyasi Oʻrta Osiyoga bostirib kiradilar. Massagetlar davlati hukmdori malika Toʻmaris dushman bilan jang qilishda anʻanaviy taktikadan foydalanadi. Toʻmaris oʻz armiyasiga chekinishni, dushmanni mamlakat ichkarisiga koʻproq kirishiga imkon berishga buyruq beradi. Forslar massagetlarni taʼqib qilib, jadal mamlakat ichiga yoʻnaldilar. Malika Toʻmaris belgilangan joyda forslar bilan jangga kirishadi. Tarixchi Yustin maʼlumotlariga koʻra, jangda 200 ming fors askari qirib tashlanadi. Kayxusrav ham oʻldiriladi.

Gerodot «Tarix»ida Kayxusrav II ning massagetlarga qarshi yurushini shunday hikoya qilgan:

Gerodot. Massagetlarning ozodlik kurashi. Gʻarbdan Kaspiy dengizi, Kavkaz bilan chegaradosh, sharqda esa quyosh chiqish yoʻnalishida unga cheksiz koʻz ilgʻamaydigan tekislik tutashadi. Bu ulkan tekislikning katta qismini massagetlar egallaydi, ularga qarshi Kayxusrav urush qilishni oʻyladi. Kayxus-

ravda bu yurishga undaydigan juda muhim sabablar bor edi. Eng avvalo, u o'zini odamlardan yuqori xayol qildi, keyin unga barcha urushlarda baxt kulib boqdi. Axir Kayxusrav qarshi borgan hech bir xalq o'z halokatidan qochib qutula olmadi.

Massagetlarning malikasi, marhum podshoning rafiqasi To'maris forslarga qarshi ozodlik kurashiga boshchilik qilgan. Unga Kayxusrav elchilarni sovchilik bahonasi bilan go'yoki uni o'ziga xotin qilish maqsadida jo'natadi. Lekin To'maris, Kayxusrav unga uylanish niyatida emas, massagetlar podsholigi ilinjida ekani tushunadi va uni rad qiladi. Shunda Kayxusrav ayyorlik bilan o'z maqsadiga erisha olmagan uchun massagetlarga qarshi urush ochdi. Armiyani o'tkazish uchun podsho Araks (Amudaryo) daryosiga ponton ko'priklar qurushni, ko'priklar turgan kemalarda esa minoralar ko'tarishni buyuradi. Kayxusrav armiyasi hozircha bu ishlar bilan band ekan, To'maris chopar orqali Kayxusravga ushbu so'zlarni yetkazishga buyuradi: Midiyaliklar podshosi o'z niyatingdan qayt. Axir sen oldindan bilmaysanku, bu ko'priklarni qurish sen uchun yaxshilikka xizmat qiladimi, qo'y buni, o'z davlating ustidan podsholik qil va biz o'z-o'zimizga hokim bo'lganimizga hasad qilma...

To'maris Kayxusrav uning so'ziga e'tibor bermaganini bilib, o'z armiyasi bilan forslarga hujum qiladi. Bu jang varvarlar o'rtasidagi eng shafqatsiz janglardan biri bo'ldi. Uning borishi to'g'risida men mana buni bildim. Aytishlaricha, raqiblar bir-birovlariga qarama-qarshi turib, uzoqdan kamonlardan o'q yog'dirganlar. Keyin o'q zaxirasini tugatib, ular xanjar va nayzalar bilan qo'lma-qo'l jangga tashlanadilar, raqiblar uzoq urishdilar, hech kim chekinishni istamadi. Nihoyat, massagetlar yengdilar. Deyarli barcha fors armiyasi jang maydonida qoldi, Kayxusrav ham halok bo'ldi. To'maris esa sharob meshini odam qoniga to'l-

dirdi, keyin o'lgan forslar ichidan Kayxusravning jasadini topishni buyurdi. Kayxusravning o'ligini topganlarida, malika uning boshini meshga tiqishni buyurdi. Keyin marhum ustidan mazax qilib shunday dedi: Sen baribir meni halok qilding, men tirik qolib, seni jangda yenggan bo'lsam-da ayyorlik bilan o'g'limni bosib olding. Shuning uchun mana endi seni qon bilan to'ydiraman: Kayxusravning o'limi to'g'risida ko'p hikoyalarning ichidan eng ishonchlisi shu.

Yevropa skiflari ham mil. avv. VI asrda forslarning bosqinchilik harakatlariga kuchli qarshilik ko'rsatib, bosqinchilarni mamlakatdan haydab chiqarganlar. Bosqinchilarga qarshi urushga buyuk sak-skif sivilizatsiyasi deb atalgan Shimoliy Qora dengizdan toki O'rta Osiyogacha bo'lgan bepoyon kenglik – turli tillarda so'zlashadigan urug'-qabilalar, xalqlar harakatga keladi. Sak-skiflar bepoyon hududda chekinish, kichik-kichik janglarga kirishish, dushman yuradigan yo'llarda ozuqa zaxirasini qoldirmaslik bilan dushmanning tinkasini quritish taktikasini qo'llaydilar. Gerodotning yozishicha, Yevropa skiflari forslarga qarshi tunda otliq qismlar bilan hujum qilish usulini qo'llaganlar. Bu hujumlar doimo skiflar g'alabasi bilan yakunlangan. Gerodotning guvohlik berishicha, «otliqlarga kelganda shuni aytish mumkinki, skiflar doimo fors otliqlarini qochishga majbur qilganlar, fors otliqlar ularning tayanchi o'z piyodalarigacha yetib borguncha qochishga majbur bo'ldilar» (118).

Mil. avv. 512-yilda Doro armiyasi Shimoliy Qora dengiz dashtlaridan hech qanday natijaga erisha olmay, Eronga qaytishga majbur bo'ldilar. Skiflarning harbiy san'ati urush olib borishda va alohida janglarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu strategiyada kuchlar nisbatini to'g'ri baholash va uni o'z foydasiga o'zgartirishga urinish bilan tavsiflanadi. Dushman kuchlari ustuvor bo'lganda ular jangga kirmay, ataylab o'z

hududlarining ichkarisiga chekinar edilar. Dushman zaiflashib, tinkasi qurigandan keyin dushmanni chekinish yo'li to'silib, qurshab olinib, qirib tashlangan.

Skiflar jang olib borishda mukammal taktikaga ega bo'lganlar. Ular armiyani o'zaro kelishib harakat qiladigan ikki qismga bo'ladilar; bir qism bostirib kelayotgan dushman qarshisida turgan, boshqasi dushman chekinadigan bo'lsa yoki zaruriyat tug'lsa, uni yon tomonidan yoki orqasidan zarba berishga tayyor turgan. Skiflar mamlakat ichiga chekinish jarayonida ozuqa zaxiralarini yo'q qilish, chorvani haydash, o'simliklarni yoqish, quduqlarni ko'mish, dushman armiyasi va uning otlarini ozuqasiz qoldirishga harakat qilganlar.

Skiflar pistirmalar qo'yib, yovni unga duch qilib, kunduzi va kechasi hujum qilib, birdan g'oyib bo'lganlar. Ular dushmanni mayda, kutilmagan hujumlar bilan doimo qo'rquvda ushlab turganlar, o'zlari esa tutqich bermaganlar. Sak-skiflarning harbiy san'ati yunon va rimliklar tomonidan o'zlashtirildi va ba'zi davrlardan toki hozirgacha turli xalqlar harbiy ishida o'rganilib, qo'llanilib kelinmoqda. Ularning taktika va strategiyasi shunchalik darajada mukammal ediki, unga biror narsani qo'shish ham, olib tashlash ham mumkin emas edi. Bu haqiqiy, noyob urush san'ati namunasi edi.

Doro I ning Shimoliy Qora dengiz bo'yi skiflari ustiga yurishi to'g'risidagi rivoyatda shunday yoziladi: «Doro yurishga chiqib, skiflar yurtiga kiradi. Skiflar mamlakat ichkarisiga chekinadilar. Shunda Doro ularga o'z elchilarini yuboradi. Elchilar Doroning talablarini aytadilar: siz nima uchun cho'ldagi o'simliklarni yoqib, jilg'a va quduqlarni tosh bilan to'ldirib yoki zaharli ildizlar bilan zaharlab yo'q qilyapsizlar? Agar siz o'zingizni zaif deb bilsangiz, buyuk podshoga bo'ysuning. Qaramlik ramzi sifatida o'z yeringiz tuprog'idan bir qism va bir ko'za daryo suvini bering hamda o'lpon to'lang», – elchilar bu so'zlarini skiflarga yetkazadi.

Skif yoʻlboshchilari bunga javoban elchilarga bir savat berib, uni Doroga sovgʻa sifatida yetkazishni ay tadilar. Elchilar Doro qarorgohiga qaytib, podshoga skiflar sovgʻa qilgan savatni topshiradilar. Savat ochilganda qandaydir bir qush baland ovoz chiqarib koʻkka parvoz qiladi, keyin bir sichqon sakrab chiqib yaqin bir joyga yashirinadi. Savatning ichida qurbaqa va 5 kamon oʻqi yotadi. Doro bularni koʻrib hayqiradi: «Ular baribir bizga boʻysunishga qaror qilibdilar. Sichqon yerda yuradi, qurbaqa suvda. Demak, ular bizga yer va suvlarini beradilar. Qush ot kabi tez harakat qiladi. Bundan chiqadiki, ular bizga oʻz yilqi podalarini hamda mana 5 kamon oʻqi turibdi – bizga oʻz qurollarini beradilar». Shunda Doroning dono maslahatchilaridan biri shunday xitob qiladi: «Bunday emas, hukmdor! Skiflar sovgʻalarining mazmunini shunday tushunish kerak: agar siz qush boʻlib osmonga uchsangiz, sichqonday yerga yashirinsangiz yoki qurbaqaga oʻxshab suvga sakrasangiz, ana shu kamon oʻqlaridan halok boʻlib, oʻz yeringizga qaytmaysiz».

Yunon yozuvchisi Gerodot sak-skiflarning harbiy urf-odatlarini toʻgʻrisida shunday yozadi:

63. «Qachonki skif birinchi dushmanini oʻldirganda uning qonini ichadi. Ular jang maydonida oʻldirilganlarning boshlarini podshoga olib keladilar. Faqat dushman boshini olib kelgan oʻljadan oʻz ulushini oladi. Boshdan terini quyidagi tarzda sidiradilar: Quloqlar atrofida kesiklar qilgach, keyin sochdan ushlab boshni teridan ajratib oladi. Keyin terini buqa biqin suyagi bilan tozalaydilar va uni qoʻllari bilan ezadilar. Ishlov berilgan teridan skif askari qoʻli uchun sochiq sifatida foydalanadi. Kimda bunday teri sochiqlar koʻp boʻlsa, oʻsha eng zoʻr erkak hisoblanadi.

Baʼzilar tozalangan terini echki terisi kabi tikib, yopingʻich qiladilar. Boshqalar dushman oʻliklarining oʻng qoʻllaridagi tirnoqlari bilan ajratib olingan teri-

dan o'z sadoqlari uchun g'ilof tayyorlaydilar. Odamning terisi haqiqatan yumshoq va yaltiroq, har qanday boshqa terilardan ko'ra ko'proq yaltiraydi. Ko'pgina skiflar dushman murdasidan butun terini shiladi, uni yog'ochga tortib, keyin uni o'z otlarida olib yuradilar. Dushmanlarining boshlari bilan (hammasini emas, faqat eng ashaddiyalarini) ular shunday munosabatda bo'ladilar. Boshqa kallalarni qoshlarigacha arralab olib, tozalaydilar. Kambag'al bosh chanoqning faqat sirtini xom ho'kiz terisi bilan qoplaydi va shunday tarzda undan foydalanadi. Boy odamlar esa dastlab bosh chanog'ini xom teri bilan tortadi, keyin esa ichini oltin bilan qoplab, qadah o'rnida foydalanadi. Skiflar hatto o'z qarindoshlari bosh kallalari bilan ham shunday ish tutadilar (agar ular bilan janjallashib, podsho sudi oldida biri ikkinchisi ustidan g'olib kelsa). Obro'li mehmonlar kelganda xo'jayin bunday bosh chanoqlarini namoyish qilib, mehmonlarga bu qarindoshlar uning dushmanlari bo'lgani va ularni yengganini eslatadi. Bunday hol skiflarda ezgu hol hisoblangan».

XX asrning 70-yillarida Issiqko'l qo'rg'onida mil. avv. V-IV asrda dafn qilingan sak yo'l boshchisining qabri topildi. Sak yo'l boshchisi qizil charm kamzul kiygan bo'lib, kamzul boshdan-oyoq tilla plastinkalar bilan tikilgan. Boshidagi baland charm qalpoq hayvon va qush haykalchalari bilan bezatilgan. U hayotligida hukmdor yoki oqsuyak zodagon bo'lgan deb taxmin qilinadi. Hashamatli kiyim, baland qalpoq, tilla kiyim va bezaklar shundan dalolat beradi.

Sak-skif armiyasi otliq va piyoda armiyadan tashkil topgan bo'lib, otliq jangchi quyidagicha qurollangan: jangchi boshida cho'qqi qalpoq (charm keyinchalik temirdan) bo'lib, u uzun soqol qo'ygan, ustiga esa misdan ishlangan sovut, pastgi qismiga charm ishton, oyog'iga esa ishlov berilgan teridan ishlangan oyoq kiyim kiygan. *Otliq jangchi jangda kamon va qilichdan*

unumli foydalangan. Piyoda jangchilar qo'lida kamon, yelkasiga kamon o'qlari to'ldirilgan sadoq (o'qdon), belida xanjar bilan kamar bo'lgan. Shuningdek, otliq qilich bilan ham yaxshi jang qila olgan. Piyoda kamonchilar qismi jang boshlanganda dushman ustiga o'q yog'dirgan. Ba'zida otliqlar ham piyodalar bilan birgalikda dushmanni kamondan o'qqa tutgan. Shundan so'ng otliq qismlar jangga kirganlar.

Sak-Skif jangchisining aqinak (xanjar)lari ishlanishiga ko'ra biroz kichik, ammo jang uchun qulay bo'lgan. Bu aqinaklar sopi va qo'ndog'i bejirim qilib bezatilgan. Katta harbiy mansabdagilarning yoki hukmdor xanjari mis va oltindan ishlov berilgan. Bundan tashqari harbiylar kamon va nayza bilan ham qurollangan. Kamonni yasashda uning yengil va ixcham bo'lishiga katta ahamiyat berilgan. Nayza va kamon o'qining uchlari metallardan ishlangan. Qurolsozlik juda yuqori darajada rivojlangan. Qurolsoz ustalar kamon, qilich, xanjar, jang boltasi, sovut, dubilg'a, qalqonlar yasagan. Otlarning egar-jabduqlarini yasash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Otning ko'kragini himoya qiladigan himoya vositasi ishlangan.



23-rasm. Massagetlarning podshosi Malika To'maris.
A.Durelxanov rasmidan lavha.



24-rasm. Saklar bilan fors qo'shinlari o'rtasidagi jang. Mil. avv. VI asrning 40-30-yillari.



25-rasm. Sak. Amudaryo xazinasidagi oltin plastinka uzunligi 15 sm. Mil. avv. IV asr. Britaniya muzeyi.



26-rasm. Yuqorida saklarning bronza qalpog'i. Pastda sak jangchisi. Behustun qoyasidagi tasvir.



27-rasm. Saklar. O'rta Osiyolik saklar (Orolning g'arbi, Tyanshanning sharqi).



28-rasm. Mil. avv. VI-IV asrdagi sak (skif) jang aravasi.

29-rasm. Yunon vazadagi skif kamonchilari va goplitlar tasviri.



30-rasm. Skif suvoriylarining hujumi.



31-rasm. a) Skif qilichi. Kelermes qo'rg'onidagi skif yo'l boshchisining marosim qilichi (er. avv. VI asr). b) sak-skif temir xanjari. (Minusinks er. avv. V asr) v) Ko'loba qo'rg'onidagi skif yo'l boshchisining marosim qilichi (er. avv. IV asr).

QADIMGI ERON HARBIY SAN'ATI

Fors podshosi harbiy ish to'g'risida o'ta g'amxo'rlik qilishiga biz rozimiz: u o'lpon yig'adigan har bir xalqning hokimiga qancha o'tliqlar, kamonchilar, o'q otuvchilar va qalqon bilan qurollanganlarni saqlash lozimligiga ko'rsatma berdi.

**Ksenofontning (mil. avv. VI asr)
«Ekonomika» asaridan**

Mil. avv. IX–VII asrlardagi Osuriya yozuvlarida sharqda sobiq Elam hududida (hozirgi Eron hududi) joylashgan Parsuash davlati tilga olinadi. Bu hudud-da mil. avv. VII asrda Parsuashdan tashqari, Elamdan sharqda elamliklarga qaram bo'lgan, bir vaqtning o'zida ahmoniyalar urug'idan bo'lgan yo'l boshchilar boshchilik qilgan fors qabilalari ittifoqiga kirgan kichik davlatlar mavjud edi. Mil. avv. VII asrning 40-30-yillarida Osuriya podshosi Ashshurbanipal Elam davlatini tor-mor qilgach, forslar Elam hukmronligidan ozod bo'lib Midiyaga qaram bo'ladilar. Mil. avv. VI asrda forslar Midiya hukmronligini ag'darib tashladilar va uni davlatlari tarkibiga qo'shib oldilar.

Mil. avv. 559-yilda fors podshosi bo'lgan Kayxusrav I keyingi ikki yil davomida Parfiya va Girkaniani bosib oladi. Mil. avv. 545- va 539-yillarda Kayxusrav hozirgi Afg'oniston, Hindistongacha bo'lgan yerlarni bosib olgan. Fors davlat hududi Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindiqushning janubiy yonbag'irlari va Sirdaryo havzalarigacha yetdi. Mil. avv. 539-yilda ikki oy davomida avgust-sentabr oylarida Bobil podsholigi yerlari bosib olinadi. Bobil bosib olinganidan so'ng, barcha g'arbiy mamlakatlar (Suriya, Falastin, Finikiya) fors davlati tarkibiga kiradi. Forslar g'olibona urushlar olib borib, Osiyo, Afrika, Yevropaning o'nlab davlatlarini, yuzlab xalqlar,

elatlarni yengib, uch qit'ani o'z ichiga olgan ulkan imperiyani yaratdilar.

Ahmoniyalar davlatida Kayxusrav I (mil. avv. 558-529-yillar) hukmronligi davrida harbiy sohaga katta e'tibor berilgan. Jangovar qobiliyatga ega kuchli armiya tuzildi. Uning asosini otliqlar tashkil etgan. O'sha vaqtda otliq qism hujumiga qarshi tura oladigan kuch yo'q deb hisoblangan. Jang aravalari ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi.

Forslarda armiyaning piyoda qismi xizmatga chaqiriladigan jamoachi dehqonlardan rekrut tartibida to'ldirilgan. Piyodalarning ko'pchilik qismi kamonlar bilan qurollangan. Kamondan o'q otish san'atini egallash ko'p vaqt va muntazam mashqni talab qilgan. Antik yozuvchilar ma'lumotlariga ko'ra, forslar kamondan o'q otishni bolalikdan o'rganganlar.

Armiyaning yengil piyodalar qismi qurollari yengil nayza, qilich va qalqon bo'lgan. Piyoda muntazam qismlar urushlardan boshqa paytda doimiy harbiy mashq bilan shug'ullanib, ayniqsa, qo'l jangiga e'tibor bergan. Nayza qisqa va yengil, kamonchi tomonga egilgan qo'l ushlagich va oldinga keskin qayrilgan katta bo'lmagan «shox»dan iborat kamon keng tarqalgan. Ko'pincha kamonlar assimetrik tuzilgan bo'lib, uzunroq yuqori qismga ega bo'lgan. U tuzilishi bo'yicha murakkab tarkibli yog'och qismlardan tuzilgan. Yuqori shox alohida shoxdan, suyak yoki jezdandan tayyorlanishi mumkin. Bunday kamonning o'qi uzoqligi 500 metr bo'lib, 200-300 metrdan o'rtacha kamonchi dushmanning sovutini teshishi mumkin edi. Askar chap qo'lga taqiladigan kichkina qalqonga ega bo'lib, 1,8 metr temir uchli nayzani bir yoki ikki qo'l bilan ushlagan. Kamondan otish paytida nayza yerga suqib qo'yiladigan temir tayoqcha bilan ta'minlangan. Jangchida kamon o'qlari solingan sadoq va kalta xanjar (akinak) bo'lgan.

Forslarning zarbdor kuchlari. Ahmoniylar armiyasining zarbdor kuchi otliqlar edi. Forslar otliq armiyasining eng saylanma korpusi podshoning oldida saflanadigan podsho otliqlari bo'lgan. Saylanma otliq qismlar aholining imtiyozli fors va Midiya zodagonlaridan olingan. Otliqlarning yengil qurollangan qismi sak, massaget va baqtriyaliklardan olingan bo'lib, ular yuksak jangovar qobiliyati bilan boshqalardan yaqqol ajralib turgan. Yana bir qism otliqlar boshqa xalq vakillaridan olingan.

Misr, Xett, Bobil harbiy kuchlarida otliq askarlar sezilarli o'rinni egallamagan. Faqat Ahmoniylar davlati otliq armiyani jangda birinchi o'ringa qo'ya oldi. Chunki Ahmoniylar davlati tarkibiga kirgan bepoyon cho'l-dashtlarda o'nlab-yuzlab xalq-elatlar chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Ular mohir chavandoz va otda jang qilish qobiliyatiga ega bo'lgan.

Janglarda eng zarbdor o'rinda armiyaning aynan markazi – dushman bilan yuzma-yuz jangda Sak, massaget va baqtriyalik otliqlar yengil kavaleriyani tashkil etganlar. Chunki ularning otda jang qilish san'ati mukammal bo'lib, boshqa biror-bir xalq ularga teng kela olmas edi. Sak, massaget va baqtriyalik otliqlari Ahmoniylar davlati istilochilik urushlarida janglarda hal qiluvchi lahzalarda o'z jasoratlari, harbiy mahoratlari bilan barchani hayratda qoldirganlar.

Ahmoniylar imperiyasida otliq urush taktikasi. Artakserks I (mil. avv. 465–424-yillar) armiyada otliqlarning nufuzini kuchaytira boshlagan. Armiya markaziy va mahalliy darajada shakllantiriladi. Markazdagi armiyalar markaziy shaharlarda joylashtirilgan. Mahalliy armiyalar satrapliklarda joylashtirilgan bo'lib, unga satrap emas, podsho tayinlagan harbiy boshliq mas'ul bo'lgan.

Artakserks I davrida sovut kiygan, og'ir qurollangan otliqlar paydo bo'ldi. Og'ir qurolli otliqlar katta

qalqonlar va oldinga chiqib turadigan uzun nayza (sarissa)lar bilan himoyalangan askarlar safini parokanda qilishi lozim bo'lgan. Sovutli otliqlar hujumidan keyin yengil qurollangan otliq qismlar jangga kirgan. Sovutli otliqlar kolonna bo'lib saflanganlar. Kolonna «to'qmoq» bo'lib raqibga taran zarbini berib, uni to'zitiv yuborgan. Lekin bu og'ir kavaleriyaning kamchiligi ham bo'lgan. U sekin burilar va qiyin boshqarilar edi. Og'ir kavaleriyada otlar ulkan, lekin chaqqon harakat qiladigan, qadimda eng noyob hisoblangan nisa zoti bilan to'ldirilgan. Yengil kavaleriya esa qorabayir va axaltekin otlaridan iborat bo'lgan.

Taktik jihatdan forslar asosan yengil otliqlar – kamonchi otliqlar va nayza otuvchilardan foydalanganlar. Og'ir qurollangan otliqlar – kalta qilich, uzun nayza, cho'qmor bilan qurollangan, sovut kiygan askarlar edi. Og'ir qurollangan suvoriylarning zarbi to'qmoqqa o'xshab dushman piyodalarini to'zitiv yuborishga qaratilgan. Ammo o'sha davrlardagi og'ir qurollangan suvoriyning quroli beso'naqay edi. Ular kalta nayzani o'zlari bilan ko'proq olib yurolmas edilar. Bir suvoriy beshtagacha shunday qurol olishi mumkin bo'lgan. Bu qurol tugab qolsa, suvoriy qilich bilan jang qilishiga to'g'ri kelar edi. Suvoriylar uzun nayzani ishlata olmas edilar, chunki nayza otliq oyoqlari yaxshi tayanch nuqta bo'lgan uzangiga tayanishi mumkin edi, lekin u o'sha vaqtda yo'q edi. O'sha vaqtda ot egarsiz minilar edi. Shu sababli kavaleriya o'sha vaqtda asosan yengil bo'lgan. Jangda uning samarasi katta edi. Bunday otliqlarning kam harakatli piyodalar qismiga hujumi ularga doimo g'alaba olib kelgan. Otliqlar piyodalar qatorini o'qqa tutib, ular safini buzgan.

Fors jang aravalari. G'olib fors armiyasida otliqlar bilan bir qatorda yana bir zarbdor kuch – jang aravalari mavjud edi. Ayniqsa, o'roqsimon tig'li jang aravalari dushman otlari va piyodalarini o'tdek o'rar edi. Ular

oldinda olg'a yurib, birinchi taran zarbini berar edilar. Ularning orqasidan, tozalangan jang maydonidan otliqlar jadal harakat qilib, o'ng va so'ldagi dushmanga zarba berganlar. Piyoda kamonchilar va peltaslar otliqlarning yoppasiga zarba berishidan oldin dushman ustiga o'q va tosh yog'dirganlar. Forslar «qadim tanklari» jang aravalari yordamida dushman qatorlarini, ayniqsa, piyodalarning jips saflarini sindirish yoki to'zgitish, otliq va piyodalar uchun bo'shliq ochishni ko'zlagan edilar. Keyin bu bo'shliq otliqlar yordamida yanada kengaytirilib, jangga peltaslar (sopqondan tosh otuvchilar) kirganlar. Jang aravalari armiyaning sezilarli qismini tashkil etdi. Ular tekis joyda foydali bo'lishlari mumkin edi, lekin notekis joyda, dushmanni yengil qurollangan jips saflari oldida ojiz edilar: otlar shovqindan qo'rqib, orqaga qaytib o'z piyodalari bosib ketar edilar. Forslar jang aravalarini takomillashtirdilar. Mil. avv. V asr davomida Kichik Osiyo, yunon shahar-davlatlari va boshqalar og'ir qurollangan falangani yaratdilar. Falanganing jips safini faqat o'roqsimon tig'li jang aravalari orqali parokanda qilish mumkin edi. Kayxusrav II o'z jang aravalari g'ildiraklariga o'roqsimon keskir temir tig'larni o'rnatishga buyruq berdi. Jang aravasi shundoq ham dahshatli qurol edi, lekin o'roqsimon tig'lar bilan yanada qo'rqinchli bo'ldi. O'roqsimon tig'li jang aravalari oddiy aravalardan farq qilib, to'g'ri hujum qilishda foydalanilib, dushmanning piyodalar qatoriga zarba berib, ularni o't kabi o'rishi dushmanga dahshat tug'dirgan. Bu kuchli ruhiy samara berishi lozim edi. lekin bular foydasiz bo'ldi. Jang aravalari qurol turi sifatida o'z umri ni o'tab bo'ldi, ular muntazam armiyalar bilan urisha olmas edilar. Yozma ma'lumotlar Kayxusrav Kichkina va uning ukasi Artakserks II o'rtasidagi Kunaksdagi jangda o'roqsimon tig'li jang aravalaridan foydalanilgani to'g'risida xabar beradi.

Bunday jang aravalari mil. avv. 331-yil oktabrida Doro II va Iskandar armiyasi o'rtasidagi Gavgamela jangida ham ishtirok etgan. Forslar ko'p sonli armiya joylashishi mumkin bo'lgan jang maydonini o'zlariga tanladilar. Maydon jang aravalari va otliq qismlar harakati uchun maxsus tekislanib, qanotlarda makedon otliqlarini bartaraf qilish uchun tikanaklar – tribullar sohib tashlanadi.

Makedonlarning o'ng qanotiga zarba berishi kerak bo'lgan forslarning o'ng qanoti oldiga 100 o'roqsimon tig'li jang aravalari qo'yilib, ularga 100 baqtriyalik, 2000 sak otliqlari berilgan. Markazdagi zarbdor qismlarga yana 50 jang aravalari joylashtirilgan, lekin ular otliqlar bilan mustahkamlanmagan. Fors armiyasining o'ng qanoti oldida yana 50 jang aravasi va arman, kappadokiya otliqlari qo'yilgan.

Jang makedon armiyasining o'ng qanotida boshlandi. Doro II falanganing o'ng qanotiga o'roqsimon tig'li jang aravalarini tashlaydi, ular yengil qurollangan makedon qismlarini o'q yomg'iriga uchratadi. O'q otuvchilar jang aravalari hujumini qaytardilar, boshqalari esa ajralgan falanga oralig'idan o'tib ketdilar. Shundan so'ng jang aravalari to'la yanchib tashlandi.

Makedonlarning so'l qanoti uncha ko'p bo'lmagan Krit kamonchilari va axey yollanma askarlari himoyasida edi. Forslarning o'ng qanotining otliqlari boshlig'i Mazey ularga qarshi 50 o'roqsimon tig'li jang aravalarini va ularni qo'llash uchun ular bilan birga turgan arman va kappadokiya otliqlarini jangga tashladi. Makedonlarning bu qanotida yengil qurollangan qismlarning samarali himoyasi bo'lmagani uchun ular boshqa taktikani qo'lladilar, ya'ni otlarni qo'rqitish uchun nayzalar bilan qalqonlarni urib taqillata boshladilar. Otlar yetarli darajada o'rgatilmagani uchun Kunaksdagi jangda bo'lganidek, bir qism jang aravalari orqaga burilib, forslar ustiga o'zini urdi, bir qismi esa falanga

ustiga yugurdi, falanga oddiygina ikkiga ajralib, shiddat bilan kelayotgan jang aravalarini o'tkazib yubordi.

Ahmoniyalar davlati kuchli harbiy qo'shin bilan 228 yil davomida Osiyo, Afrika va Yevropada g'olibona urushlar olib borib, bu qit'alarning ayrim hududlarida o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Ammo ularning barcha harbiy yurishlari ham g'olibona tugamadi. Kayxusrav II ning sak-massagetlarga qarshi yurishi fors armiyasining to'la yanchib tashlanishi va Kayxusrav II ning halokati bilan tugadi. Doro I ning skiflarga qarshi yurishi ham mag'lubiyat bilan tugadi.

Mil. avv. 401-yilda g'ayratli va komil shaxs bo'lgan shahzoda Kayxusrav akasi Artakserksdan taxtni tortib olmoqchi bo'lib, isyon ko'targan. Aka-uka o'rtasidagi bu jangda Artakserksning armiyasi 400 ming kishi, uning ukasi Kayxusrav qo'shini 44 ming kishilik armiyani tashkil etdi. Jangning boshida shahzoda o'ng qanotda podsho qo'riqchilarini chekinishga majbur qildi. Lekin ta'qib paytida u o'ldirildi, uning qo'shini chekinishni boshladi. Isyon bostirildi.

Fors armiyasi tarkibiy jihatdan minglik, yuzlik, o'nliklardan iborat edi. Jangovar tartib qanotlardan tashkil topib, ularga podsho oila a'zolari boshchilik qilar edilar. Katta yurishlar oldidan satrapliklardan armiyaga odam olingan. Bular turli qurollarga va o'ziga xos harbiy ko'nikmaga ega bo'linmalar edi.

Eron armiyasini tez bir hududdan boshqasiga tashlash uchun mamlakatni barcha yo'nalishlarda kesib o'tadigan yo'llar tarmog'i qurilgan. Har 20 km da mustahkamlangan tayanch nuqtalar qurilib, ularga harbiy garnizon joylashtirilgan, har 5 km da davlat aloqasi xizmatini bajaradigan otliqlar guruhi turgan. Keng tarmoqli yo'llar armiyaning katta-kichik qismlarini ulkan imperiyaning har qanday notinch hududiga jadal tashlash imkoniyatini yaratdi.

Mill. avv. 522-486-yillarda hukmronlik qilgan Doro I ma'muriy, harbiy va moliya islohoti o'tkazib, davlat ho-

kimiyatini mustahkamladi. Mamlakat hududi satraplik (viloyat)larga bo'lini. Har bir satraplikda muntazam qo'shin – garnizon joylashtirilgan. Bu garnizonga harbiy boshliq rahbarlik qilgan. Satrapliklardagi bir necha garnizon bir harbiy okrugning harbiy boshlig'iga bo'ysungan. Mamlakatda 5 harbiy okrug bo'lgan.

Armiyaga yangi askarlarni olish bilan maxsus harbiy okruglar boshliqlari shug'ullangan. Har bir satraplikda katta garnizonlar saqlanib, ularga satrapga bo'ysinmaydigan harbiy boshliq rahbarlik qilgan. Bir necha satraplik garnizonlari harbiy okrug boshlig'iga bo'ysungan. Mamlakat jami 5 harbiy okrugga bo'lingan.

Fors davlatida armiyaning jangovar qobiliyatini yuqori darajada saqlab turishga jiddiy e'tibor berilgan. Har yili armiyaning ko'rigi va harbiy mashqlari o'tkazilgan. Armiya bu vaqtda katta qarorgohga birlashtirilgan va harbiy mashqlar, manevrlar o'tkazilgan. Armiya harbiy safarga chiqqanda ham shunday ko'rik o'tkazilgan. Bu holat bunday qaraganda harbiy majburiyatning qat'iy tizimi bo'lgan.

Ahmoniyalar qo'shinida turli xalqlar, etnos va urug'-qabilalar vakillari xizmat qilgan. Yunon yollanma askarlaridan istilochilik urushlarida foydalanilgan. Forslar o'z harbiy flotlariga ega bo'lganlar. Yunon shahar, davlatlariga qarshi urushlarda forslar harbiy flotdan unumli foydalanganlar. Kayxusrav II O'rta Osiyoga yurishda, Amudaryodan o'tishda kemalardan ponton sifatida foydalangan.

Chapdan o'ngga fors falangasida birinchi qatorni tashkil qilgan. Kamonchilar: bobil kamonchisi, osur piyoda askari. Askarlar ot junlari tikilgan, qavilgan kamzul kiyganlar. Ahmoniyalar o'rtasida saklar alohida o'rin tutgan. Ular otliq kamonchi, piyoda kamonchi qismlariga bo'linganlar. Otliq kamonchi bilan yurma sak kamoni qadog'i nayzadan tashqari yuzma-yuz olishuvda dushman sovutini teshadigan qurol bilan qurollangan.

Forslarda harbiylarning imtiyozlari. Ahmoniylar davlatining ikki yuz yildan ko'proq hukmronlik qilishining asosiy sababi bu qudratli armiyaning mavjudligi va bu armiyani mavjud davlat hokimiyatini barqarorligini ta'minlashi bo'ldi. Davlat hokimiyati armiyaning asosini tashkil etgan askarlarning manfaat va ehtiyojini unutishi oqibatida davlat harbiy jihatdan zaiflashdi va bu Ahmoniylar davlatining halokatiga olib keldi.

Fors podsholari davlat harbiy xizmatiga kirgan harbiylarga yer ulushi berish bilan uyushgan, ular jangovar qobiliyatli yuqori armiya tuzmoqchi edilar. Doro I va Artakserks I harbiy islohotlar o'tkazib, o'zlariga sodiq harbiylar qatlamini vujudga keltirishga harakat qilganlar va yer ulushini quyidagicha belgiladilar:

«Ot ulushi» – bu ulushni olgan askar undan daromad olishi va qaram dehqonlar mehnatidan foydalanishi mumkin edi. Buning uchun urush vaqtida chaqiriq bo'yicha xizmat qilishi lozim bo'lgan. U otga minib, to'la qurollangan holda yig'in joyiga kelishi shart bo'lgan. Bir ot ulushiga bir o'tliq askar qo'yilishi zarur. Bunday ulush taxminan 70 akrni tashkil etgan.

«Kamon ulushi» – bu ulushni olgan askar podsho chaqirig'iga binoan piyoda kamonchi sifatida harbiy safarga chiqishi lozim. Bu ulush ot ulushidan ikki marta kam.

«Jang aravasi ulushi» – bu ulushni olgan askar jang aravasida jang qilgan. Ular armiyaning saylanma qismi va fors armiyasining zarbdor kuchi edi. Bu eng boy va katta in'om bo'lgan.

Birinchiidan, ulushlar asta-sekin bo'linib ketgan. Misol uchun, o'tliq askarda besh o'g'il bo'lib, yer ulushi ular o'rtasida bo'lingan. Doro II davriga kelib, ot ulushi egasida Kayxusrav II ulush egasiga boshda in'om qilgan o'n besh ulushdan o'ndan bir qismi yoki bir qismigina qoldi. Lekin ulush egasi o'tliq askar berishi zarurligi to'g'risidagi qonun harakatda qolavergan. Bir ulushdan bir o'tliq harbiy xizmati uchun yer ulushi

olgan harbiy xizmatchilarning ko'pchiligi turli sabablar bilan xonavayron bo'ldilar. Ulush egalari turli xil bahonalar bilan o'z ulushlarini sotdilar, lekin qonun bo'yicha bu yer ulushlari sotilishi mumkin emas edi. Bu holat armiyaning jangovar qobiliyati pasayishiga olib keldi. Ot ulushining ko'p egalari o'z majburiyatlarini bajarmay qo'ydilar, ya'ni o'zlarining o'rinlariga armiyaga o'z xizmatkorlarini yubora boshladilar. Mil. avv. V asrda yashagan Ksenofont bu to'g'risida shunday degan edi: hammomchilarni, nonvoylar, xizmatchilarni o'tliq qiladilar...». O'zlari esa harbiy ish bilan shug'ullanmay tekinxo'rga aylangandilar.

Ko'pgina boy yer egalari podshodan immunitet yorlig'i olib, harbiy xizmat majburiyatidan ozod bo'ldilar. Bobilda bu Ahmoniy shahzodalar, fors zodagonlari, Misrda Arsham urug'idan bo'lgan zodagonlar va boshqalar edi. Bu fors zodagonlarini podshodan uzoqda o'z saroy, yer-mulklari va shaxsiy harbiy qismlari bor edi. Bularning hammasi fors davlatining harbiy qudrati zaiflashuvi va halokatiga olib kelgan.

Qadimgi Eron harbiy san'ati to'grisida rimlik tarixchi Kvint Kursiy Ruf qiziqarli ma'lumot beradi. Yozuvchi fors armiyasining harbiy yurishga chiqishini batafsil tasvirlaydi.

Kvint Kursiy Ruf. Iskandar tarixi. III. 3, 8-25

Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf 10 jildli «Iskandar tarixi» asarini yozgan. Ushbu asarning 1-2 jildlari bizgacha yetib kelmagan. Kvint Kursiy Rufning yashagan yillari aniq emas (taxminan mil. avv. I asr yoki eramizning I asrlari). Lekin ko'pchilik olimlarning fikricha, u Rim imperatori Klavdiyning (eramizning 41-54-yillari) zamondoshi bo'lgan. Tarixchi asarida qadimgi fors qo'shinlariga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Fors armiyasining yurish tartibi

3... (8) Qadimgi odatga ko'ra, forslarda yurishga chiqishni faqat quyosh chiqishidan boshlash qabul qilingan edi. Qachon yorug' kun boshlanishi bilan podsho chodiridan yurishga chiqishga burg'u bilan belgi berar edilar. Podsho chodiri ustida tog' billuri o'rnatilgan quyosh tasviri yaraqlar edi. Bu tasvir shunday o'rnatilgan ediki, uni hamma tomondan ko'rish mumkin edi. (9) Fors armiyasining yurish tartibi quyidagicha edi: Oldinda kumush mehrobdada olovni olib borar edilar, uni forslar muqaddas va abadiy² deb, e'tiqod qilar edilar. Bevosita mehrobning orqasidan qadimiy madhiyani kuylagan maglar borar edi. (10) Muqaddas olovga qizg'ish yopinchiq kiygan 365 o'smir mag hamrohlik qilar edi. Ularning soni yildagi kunlar soniga teng kelar edi, chunki forslarda yil rimliklarnikiga teng edi. (11) Keyin oq otlar Yupiterning muqaddas aravasini olib borar edi. Bu otlar orqasidan misli ko'rilmagan kattalikdagi otni olib borar edilar. Otlarni olib boradigan odamlar oq kiyimda va oltin qamchilarga ega edilar. (12) Ulardan orqada ko'p miqdorda va kumush o'yma bezaklar bilan qoplangan 10 arava borar edi. (13) Aravalar orqasidan 12 qabilaning bir-biridan qurol-yarog'i va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan otliqlar borar edi. Keyin forslar – «o'lmaslar» deb nomlanganlar borar edi, ular 10 ming atrofida edi. Ular o'zlarining varvar hashamlari bilan ajralib turar edi; ulardan birlari oltin zanjir taqib olgan, boshqalari oltin bilan bezatilgan kiyim va hatto marvarid tikilgan, uzun yengli tunika kiygan edilar. (14) Ulardan uncha uzoq bo'lmagan masofada 15000 kishidan tarkib topgan podsho qarindoshlari deb ataladigan qism borar edi. Bu ayollar bezangan

² Abadiy – otashparastlik dinida quyosh va olov iloh Axuramazdaning mujassamligi sanalar edi.

olomon yarog'larining chiroyligidan ko'ra, kiyimining hashamati bilan o'ziga tortar edi. (15) Ularni orqasidan borayotgan qism «Doriforlar» edi. Ular, odatda, podsho kiyimini olib yurar edilar va barchaning ustidan ko'tarilib turadigan podshoning o'zi yuradigan aravasi oldida yurar edilar. (16) Uning aravasi ikki tomoni oltin va kumushdan quyilgan xudolar tasviri bilan bezalgan edi. Bo'yinturuq qimmatbaho toshlar bilan qoplangan edi; undan uzunligi lokot bo'lgan ikkita oltin haykal ko'tarilib turar edi. Ulardan biri Ninni, boshqasi Belani tasvirilaydi. Bu ikki tasvirlar o'rtasida qanotlari yoyilgan, go'yoki parvozga tayyor turgan muqaddas oltin burgut turar edi. (17) Podshoning kiyimi hatto umumiy hasham ichida ham ajralib turar edi; uning qizil libosining o'rtasi oq bilan tikilgan edi; oltin bilan tikilgan mantiyani bir-birini cho'qiyotgan oltin kalxatlar bezar edi. (18) Ayollarga o'xshab bog'langan oltin belbog'da aqinak osilgan edi, qini qimmatbaho toshlar bilan qoplangan edi. (19) Podsho tojini forslar kidara deb atar edilar. Tojning usti oq yo'lli ko'k belbog' bilan bog'langan edi. (20) Podsho aravasining orqasidan 10000 nayzabardorlar borar edi. Ular uchlari oltin bilan kavsharlangan, kumush bilan bezalgan nayzani olib borar edilar. (21) Podsho aravasining chap va o'ng tomonida 200 tacha zodagon podshoga hamrohlik qilar edilar. Ularning kolonnasini 30000 piyodalar tugallar edi, uning orqasidan podshoning 400 ta oti borar edi. (22) Nihoyat, bir stadiya masofada arava yurar, unda Doroning onasi Sizigambani olib borar edilar. Podsho xotini boshqa aravada edi, ikki malikaga hamrohlik qilgan ko'pgina ayollar ularning orqasida, otlarda borar edilar. (23) Ularning orqasidan (forlarda) armamaks deb ataladigan 15 yopiq arava³ borar edi. Armamakslarda podshoning bolalari, tarbiyachilar, bu xalqlarda

³ Arava – kibitka.

hech ham tahqirli jonzot hisoblanmagan haram og'alari olomoni borar edi. (24) Keyin podsholar kabi kiyingan va bezangan 365 podsho joriyalari borar edi. Ularning orqasida 600 xachir va 300 tuyalarda podsho xazinasini olib borar edilar. Unga kamondan o'q otadigan o'qchi qo'riqchilar hamrohlik qilar edi. (25) Bevosita bu kolonna orqasidan podshoning do'stlari va yaqinlarining xotinlari hamda savdogarlar olomoni va oboz xizmatchilari borar edilar, so'ngida yengil qurollanganlarning ar'yergardi – armiyaning to'zib ketmasligi uchun belgilangan har bir qism o'z harbiy boshlig'i boshchiligida borar edilar.⁴

Harbiy islohot

Ksenofont qadimgi yunon tarixchisi, (mil. avv. 430-yil–mil. avv. 355-yillar atrofi) o'zining «Ekonomika» asarida Eronning harbiy-ma'muriy tizimi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. U shahzoda kichik Kayxusrav armiyasida (mil. avv. V asr) yollanma askar bo'lib xizmat qildi. Shahzoda o'z akasi Artakserks bilan taxt uchun kurashdi. Tarixchi Ahmoniylar davlatida harbiy ish qanday yo'lga qo'yilgani to'g'risida ma'lumot beradi.

Fors podshosi harbiy soha to'g'risida o'ta g'amxo'rlik qilishiga biz rozimiz: u o'lpon yig'adigan har bir xalqni hokimiga qancha o'tliqlar, kamonchilar, o'q otuvchilar va qalqon bilan qurollanganlarni saqlash lozimligiga ko'rsatma berdi, qo'l ostidagilarni boshqarish uchun ular qancha kerak, dushman bostirib kirkanda mamlakat himoyasiga ular qancha ushlab turilishi kerakligiga ko'rsatma berdi. Bundan tashqari, u akropollar⁵da garnizonlarni saqlab turadi, ularni topshiriq berilgan hokim saqlab turadi, podsho esa har yili to'la qurol-anjomda bo'lishiga ko'rsatma be-

⁴ Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchi R.Rajabov. –T.: 2013. «ADIB» nashriyoti.

⁵ akropol – shahar ichidagi mustahkamlangan qal'a.

rilgan yollanma askar va boshqa armiyalarning ko'rigini o'tkazadi. U garnizonlardan tashqari, barchani yig'ilish o'tkazish belgilangan bir joyda yig'adi. Qarorgohda yaqin turganlarni uning o'zi ko'rgani boradi, uzoqda yashaydiganlarni ko'rish uchun ishonchli kishilarni yuboradi. To'la anjom, yaxshi otlar va qurol bilan armiyani taqdim eta bilgan komendant va xiliarxlar yoki satraplar yuqori lavozimga ko'tariladi, qimmatli sovg'alar bilan taqdirlanadi. Podsho garnizonlarga nisbatan uquvsiz yoki tamagirliigi uchun noinsof deb topilganlarni jazolaydi va boshliqlikdan chetlatib, boshqalar bilan almashtiradi. Uning harbiy ishga bunday munosabati, shubhasiz, uning g'amxo'rligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'z mamlakatining bir qismini o'zi aylanib chiqadi, bir qismini yuboriladigan ishonchli odamlar orqali tekshiradi va agarda hokimlar yerni yashnagan, ishlov berilgan va mo'l-ko'l hosil, o'ziga mos daraxt va mevalar bilan ko'rsatsa, unga (*yana*) viloyatlarni qo'shib beradi, sovg'a va faxriy egarlar bilan mukofotlaydi. Yerga ishlov berilmagani, hokimlarning qattiqqo'lligi tufayli aholi kamligi, og'ir xulq-atvori yoki beparvoligi uchun ularni jazolaydi va vazifasidan olib, boshqa hokimlarni tayinlaydi... Ular tomonidan ikki vazifaga tayinlangan boshliqlar bir o'zlari aholi va ishlayotganlar ustidan boshchilik qiladi, soliqlarni yig'adi; boshqasi qurolli garnizonlarga rahbarlik qiladi. Agar qo'mondon mamlakatni yetarlicha himoya qilmasa, aholi boshlig'i va ishlov berish mudiri qo'riqlash yo'qligi sababli mehnat qilish mumkin emas deb, zimdan xabar beradi; agarda komendant tinchlikni ta'minlamasa, ishlov beriladigan yerda aholi kam joylashgan bo'lsa va ishlov berilmasa, buni komendant zimdan xabar beradi.⁶

⁶ Хрестоматия по истории древнего мира. – М.: 1991. 80-81-стр.

Gerodot. «Tarix» kitobidan. Fors davlatida aloqa xizmati

VIII. 98. ... Dunyoda tez choparlardan bundan boshqa yo'q: forslarda pochta xizmati ana shunday aqlli uyushtirilgan! Hikoya qilishlaricha, butun yo'l davomida ularda odamlar va otlar qo'yilgan, har bir kunga yo'l-da alohida ot va odam to'g'ri keladi, qor ham, jala ham, issiq ham, hatto kechasi ham, har bir otliqqa belgilangan yo'ning qolgan qismini shitob bilan bosib o'tishga hech nima xalaqit bermaydi. Birinchi chopar ma'lumotni ikkinchisiga, u uchinchisiga beradi. Shunday qilib, xabar maqsadga yetmaguncha qo'ldan qo'lga o'tadi...

Ahmoniyalar davlatida Doro I ning mil. avv. 519-yilda o'tkazgan harbiy islohoti natijasida jangovar qobiliyati yuqori bo'lgan kuchli armiya paydo bo'ldi. Islohotlar natijasida mamlakatning mudofaa qobiliyati mustahkamlandi. Mamlakatning xavfsizligini ta'minlaydigan kuchli armiya paydo bo'ldi. Bu armiya tizimi va tuzilmasi o'sha davrda nihoyatda mukammal bo'lib,

asrlar davomida o'zgarmay qoldi. Ahmoniyalar davlatini mil. avv. 330-yilgacha dunyodagi o'sha davrning eng kuchli davlat sifatida mavjudligini ta'minladi. Mil. avv. 330-yilda qaram hududlarning separatizmi, saroy fitnalari oqibatida Ahmoniyalar davlati halokatga uchradi. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy ekspeditsiyasi bu halokatning so'nggi nuqtasi bo'ldi.



32-rasm. Kserks davridagi fors askarlari.



33-rasm. Fors zobiti o'qdon bilan. Piyoda askar to'qilgan qalqon bilan.



34-rasm. Kamonchi to'la o'qli sadoq bilan. Askar qamchi bilan.



35-rasm. «O'lmas» qo'shindagi nayzabardor. Gvardiyachi qalqon bilan.



36-rasm. Artakserks I ning jang aravasi.



37-rasm. Kayxusravning tuyalardan tuzilgan harbiy qismi.



38-rasm. Lidiya armiyasi hujumiga uchragan fors jangovar aravasi.



39-rasm. Fors qo'shinining «O'lmas» qismi.

Gerodot tasviri bo'yicha, 39-rasm yunon vazalari-dagi va arxeologik topilmalar asosida rekonstruksiya qilingan. Chapdan o'ngga: fors shtandarti, arman va kappdokiya jangchisi



40-rasm. Kserks armiyasi askarlari.




41-rasm. Kserks armiyasi askarlari.

Kserks qo'shini askarlari 41-rasmda chapdan o'ngga: efiopiya askari kuchli kamon bilan qurollangan, uning gavdasining yarmi oq rangga bo'yalgan; xorazmlik piyoda; baqtriya piyodasi va otlig'i. E'tibor bering; ikki askarning etnik qiyofasi, qurol-yarog'i, kiyimi bir xil.



42-rasm. Kserks armiyasidagi kichik osiyolik askarlar. Chapda ioniyalik piyoda askar, u qavilgan sovut kiygan. O'ngda lidiyalik askar qalpoq kiygan va nayza bilan qurollangan.



43-rasm. Kserks qo'shini askarlari.

Ahmoniyalar qo'shinida turli xalqlar, etnik birliklar vakillari xizmat qilgan. 43-rasmda chapdan o'ngga: fors falangasida birinchi qatorni tashkil qilgan kamonchilar: bobil kamonchisi, osur piyoda askari. Askarlar ot junidan tikilgan, qavilgan kamzul kiyganlar.



44-rasm. Kserks qo'shinidagi sak askarlari.

QADIMGI HIND HARBIY SAN'ATI

Tekislikdagi jangda jang aravalarini va o'tliqlarni, suvlik joyda qayiq va fillarni, daraxt va butazorlar bilan qoplangan joyda kammoni, tepalikda qilich, qalqonlar (va boshqa) kabi qurolni ishlatish lozim.

Manu qonunlaridan

Qadimgi hind harbiy san'ati insoniyat tarixi davomida to'plagan harbiy-nazariy tafakkurida o'zining munosib hissasiga ega. Mil. avv. II mingyillikda Hindistonda katta-kichik davlatlar mavjud bo'lib, ularning hokimi rojalar deb atalgan. Roja asosan urushda armiyaga boshchilik qilgan. Roja hokimiyati urug'ning qurol ko'tarishga qobiliyatli bo'lgan askarlar yig'ini – «samiti» bilan cheklangan.

Mil. avv. VI asr atrofida Shimoliy Hindistonda ikki kuchli davlat – Magadxva va Koshala bo'lgan. Forslar Gandxara vodiysini bosib oladi, natijada, Gandxara to'lov majburiyati sifatida hind askarlarini fors armiyasi tarkibida harbiy xizmatni o'tashga yuborgan.

Qadimgi Hindistonda jamiyat to'rt ijtimoiy tabaqa bo'lingan. Har bir tabaqaning o'z huquq va majburiyatlari bo'lgan. Bu jamiyatda ikkita ijtimoiy qatlam imtiyozga ega bo'lgan. Birinchi imtiyozli qatlam – braxmanlardan keyin harbiy (kshatriy)lar turgan. Harbiylar tabaqasining asosiy vazifasi davlat xavfsizligini ta'minlash va tinchlikni saqlash bo'lgan.

Tarixchi Arrian ma'lumotlariga ko'ra «Harbiylar kastasi soni dehqonlar orqasidan boradi. Ular faqat harbiy ish bilan shug'ullanganlar. Qurollarni ular uchun boshqalar yasaydilar, otlarni ularga boshqalar yetkazib beradilar, lagerda ularga boshqalar xizmat qiladilar, ya'ni ularning otlarini parvarish qiladilar, qurol tozalaydilar, fillarni olib yuradilar, jang aravalarini tartibga keltiradilar va haydovchilik qiladilar. Ularning o'z-

lari, agar kerak bo'lsa, jang qiladilar, tinchlik shartnomasi tuzilganidan so'ng, ular quvnoq hayot kechiradilar; davlatdan ularga shunday ish haqi beriladiki, unga boshqalarni ham qiyinchiliksiz boqish mumkin» (26).

Qadimgi hind davlatlari armiyasining tuzilmasi tarkibiga piyodalar, jang aravalari, otliqlar va jangovar fillar kirgan. Arrian qadimgi hind davlatlaridan birining armiyasi to'g'risida shunday ma'lumot beradi: hokimlardan birida 50 jangovar fil, 4 ming otliq, 130 ming piyoda bo'lgan. Armiyaning asosini piyoda harbiy qismlar tashkil etgan. Piyodalar kamon, uzun va keng qilich, odam bo'yi barobar, ensiz charm qalqon bilan qurollangan. Kamonning bir uchi yerga qo'yilgan, piyoda askar unga chap oyog'i bilan suyanib, kamon ipini oxirigacha tortib o'q otgan.

Otliqlar irg'itish uchun ikkita nayza va uncha katta bo'lmagan qalqonga ega bo'lgan. Otlarda egar bo'lmagan, lekin ular jilovlangan. Hind armiyasi tarkibida jangovar fillar bo'lgan. Fil ustiga kajava-minorachada kamonchi va kalta nayza irg'ituvchilar joylashgan. Jangovar fillar Ahmoniylar, Karfagen, Makedoniyalik Iskandar armiyasida ham mavjud bo'lgan.

Jangovar fillar muntazam otliq qismlar paydo bo'lganiga qadar piyodalar uchun dahshat tug'dirgan. Yaxshi o'rgatilgan fillar jangda o'z yo'lboshchilarini yaxshi himoya qilganlar, fil o'z yo'lboshchisi jangda yiqilsa, uni gavdasi bilan qalqondek himoya qilgan, o'ldirilgan yo'lboshchilarini jangdan olib chiqqan.

Hind shaharlari qadimda mustahkam himoya qilingan. Shahar devorlari xandaq bilan o'rab olingan. Arrian ma'lumotlariga ko'ra, Palimbotra shahari devorlarida 570 minora va 60 darvoza bo'lgan.

Manu qonunlariga asosan brahmanlar (hukmron toifa), podsho va kshatriy (harbiylar)ga mamlakat ichida barqaror tinchlikni ta'minlash va mamlakat tashqarisida istilochilik urushlari olib borishlari uchun ma'lum bir talablarni qo'ygan.

Mil. avv. I asrga tegishli qadimgi hind huquqiy yodgorligi bo'lgan «Manu qonunlari»da harbiy ishga keng o'rin berilgan. «Manu qonunlari»da urush va tinchlik masalalari, mustahkamlangan tayanch nuqtalar, urushlarning axloqiy asoslari, podshoning harbiy boshliq sifatida majburiyatlari, urush vaziyatini to'g'ri baholash va urush harakatlarini boshlash vaqti, harbiy yurish uchun tayyorgarlikka qo'yilgan talablar, jang qilish va qal'alarni egallash muammolari tahlil qilinadi.

«Manu qonunlari»ga ko'ra, armiya lashkarboshi ixtiyoriga, davlat boshqaruvi esa podshoga berilgan. Armiya fuqarolar ustidan nazoratni amalga oshirgan. Podshoning majburiyati davlatning mustahkamlangan tayanch nuqtalarini qurishni ta'minlash. Qal'a tosh va tuproqdan qurilishi, uni suv yoki daraxtlar bilan himoya qilish mumkin. Har bir qal'a qurol, pul, don, yuk hayvonlari xashak va suv bilan yaxshi ta'minlanishi zarur.

Qal'a garnizonida brahmanlar va yetarli miqdorda askar va hunarmandlar turadi. Mudofaa kuchlari askarlarning qarshiligini kuchaytiradi. «Shahar istehkomida joylashgan bir jangchi yuzlab (dushmanga), yuzlik o'n minglarga qarshilik ko'rsatadi» (74-modda). «Qonun» qal'ada turgan hukmdorga dushman ziyon keltira olmaydi deb uqtiradi.

«Manu qonunlari»da urush olib borishning axloqiy qoidalariga jiddiy e'tibor beriladi:

- urushda makkor qurol bilan, tishli kamon og'u bilan, zaharli o'q bilan, uchi bo'lingan kamon o'qlari bilan o'ldirish taqiqlanadi;

- agar podshoning o'zi jang aravasida turgan bo'lsa, tepalikda turganni, rahm qilishni so'rab qo'lini ko'targan haram og'asini, to'zg'igan sochlari bilan qochib ketayotganni, o'tirganni ham, «men-seniki» deb aytganni ham o'ldirish mumkin emas. Uxlayotganni, sovuvi bo'lmaganni, qipyalong'ochni, qurolsizni, jangda ishtirok etmay unga qarab turganni, boshqa dushman

bilan olishayotganni o'ldirish mumkin emas. Qurol singanni, kulfat-g'am chekayotganni, qo'rqib ketganni, qochishga urinmaganni; lekin bunday barcha holatlarda u (haqiqiy askarlar) burchini yodda tutishi lozim (91-93-moddalar). Podsho aldamasligi, hech qachon makkorlik bilan hujumga o'tmasligi kerak.

Manu qonunlarida harbiy soha

VII. 87. Xalqni qo'riqlaydigan podsho teng, kuchliroq yoki zaifroq (dushman bilan jangga) chaqirilgan bo'lsa, Kshatriy draxmasini bajarib jangdan bosh tortmasin.

VII.89. Bor kuchi bilan va o'girilmaydigan yuz bilan jang qiladigan, janglarda o'zaro bir-birini o'ldirishni istagan podsholar samoga boradilar.

VII.96. Kim (shaxsan) jang aravasi, ot, fil, soyabon, pul, don, chorva, ayollar, har xil buyumlar va qimmatbaho metalni qo'lga kiritisa – bu uniki.

VII.97. (Askarlar) eng yaxshi ulushni podshoga bersinlar. Vedada shunday deyilgan: «Alohida bosib olinmagan (o'lja) podsho tomonidan barcha askarlar o'rtasida taqsimlanishi lozim».

VII.102. Doimo urushga tayyor turish, hamma vaqt kuchni aniqlash, sirlarini ochish, dushmanning zaifligini qidirish lozim.

VII.103. Butun dunyo urushga doimo tayyor bo'lgandan qo'rqadi, shuning uchun barcha tirik jonlarni aynan kuch bilan bo'ysundirish lozim.

VII.106. (Podsho) turna kabi ishlarini o'ylaydi. Quyon kabi chetga qochadi, bo'ri kabi (o'ljani) ushlaydi va sher kabi kuchini ko'rsatadi.

VII.192. Tekislikdagi jangda jang aravalarini va otliqlarni, suvli joyda qayiq va fillarni, daraxt va butazorlar bilan qoplangan joyda kamonni, tepalikda qilich, qalqonlar kabi (va boshqa) qurolni ishlatish lozim.

VII.195. Dushmanni qamal qilib, to'xtash kerak va uning mamlakatini talon-taroj qilish kerak; hamma vaqt uning yem-xashagi, oziq-ovqati, suv va yoqilg'isini yo'q qilish kerak.

VII.198. Dushmanlarni tinch muzokaralar bilan sotib olish, ajratib tashlash – (bu vositalarning) hammasi bilan yoki har birini alohida –bartaraf qilishga urinish kerak, lekin hech qachon jang bilan emas.

VII.199. Jang qilayotganlarga (har ikki tarafga uning oxiri) g'alaba yoki mag'lubiyat noma'lum, shunda jangdan voz kechish kerak.

VII.201. G'alaba qilib (yengilgan mamlakatning) xudolari va ezgu braxmanlarini hurmat qilish zarur, imtiyozlar hadya qilish va xavf yo'qligini e'lon qilish lozim.

VII.202. Barcha yengilganlarning istaklariga to'la ishonch hosil qilib (taxtga yengilgan podsho) qarindoshini o'tkazish va shartnoma tuzish kerak.

VII.210. Donolar eng yomon dushman deb aqlli, nasabli, botir, qobiliyatli, saxiy, oliyjanob va qat'iy (dushmanni) e'lon qildilar.

Qonun bo'yicha armiya sarkardaga, xazina va davlat boshqaruvi podshoga topshiriladi. Tinchlik va urush «ittifoqchilarni yarashtiradigan va urishtiradigan» elchiga bog'liq. Podshoning majburiyati mustahkamlangan nuqtalarni barpo qilish. Qal'a tosh va tuproqdan quriladi. Har bir qal'ani yetarli darajada qurol, pul, don, transportni tortuvchi hayvonlar, jonivorlar uchun xashak va suv bilan ta'minlash lozim. Mudofaa inshootlari harbiylarning dushmanga qarshiligini kuchaytirgan. «Shahar devoridagi bir o'qchi – yuzlab dushmanga, yuzlar – o'n minglarga qarshilik ko'rsatadi» (74-modda).

«Manu qonunlari»da mamlakat xavfsizligi uchun bosh qo'mondon – podshoning majburiyatlariga katta e'tibor berilgan. Podsho quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim: jangda dovyurak bo'lishi, xalqni himoya qilishi va braxmanlarga bo'ysunishi, urushga doim tayyor turishi, o'z kuchini ko'rsatishi, o'z sirlarini yashiri-

shi va dushmanning zaif tomonlarini aniqlashi lozim (102-modda). Turnaga o'xshab (podsho) o'z ishlarini o'ylashi lozim; sherga o'xshab o'z kuchini bilishi lozim, bo'riga o'xshab o'z o'ljasini olishi, quyonga o'xshab xavfsiz joyga ketishi lozim (106-modda). Eng asosiysi harbiy sirni saqlay olish: «Boshqa odamlar maxfiy rejalarini bilmaydigan o'sha podsho unda xazina kambag'al bo'lsa-da, o'z yeriga ega bo'ladi» (148-modda).

Podsho doimo o'z davlat siyosatining olti ko'rinishi to'grisida qayg'urishi lozim: boshqa davlatlar bilan ittifoq to'grisida, urush, harbiy yurish, qarorgoh, armiyani bo'lish va yordam izlab topish (160 modda). U harbiy vaziyatni sinchiklab o'rganishi, avvalo ittifoqchilarning xatti-harakatini hisobga olib, shundan keyingina harakat usuli to'grisida qaror chiqarishi lozim. «Kim kelajakda foyda va zararni (uning harakati natijasi qanday bo'ladi), kim hozirda tez qaror qiladi, o'tmish oqibatini tushunadi, u dushmanlar tomonidan mag'lub etilmaydi» (197-modda). Tezkor qaror chiqarish va oldindan ko'ra bilish g'alabani ta'minlashi lozim.

Qonunlar podshodan dushman bilan yashirin aloqa qiladigan do'stdan va dushman lageridan kelgan qochoqdan ehtiyot bo'lishni talab qiladi, chunki ular eng xavfli dushmanlar (186-modda). Shu bilan bir vaqtda, podsho dushman armiyasida o'z podshosiga nisbatan isyonga moyil bo'lganlarni rag'batlantirib, ularni isyon kotarishga undashi lozim, boshqacha aytganda, dushman ichida qo'poruvchilik faoliyati bilan keng shugullanishi zarur. Qulay vaziyatda jangga kirish belgilab qo'yiladi, lekin qo'yilgan maqsadga muzokaralar, sovg'a-salom, do'q-po'pisalar bilan erishuv afzalroq, chunki jangda g'alaba kimga nasib etishi hali noma'lum. Agarda barcha vositalar ishga solinib, maqsad amalga oshmagan taqdirda, yaxshi qurollanib dushmanga qarshi jangga kirishmoq zarur. Qonunlar urushni inkor qilmaydi va uni eng so'nggi vosita deb hisoblaydi va g'alabani sinchiklab ta'minlashni talab qiladi.

Qonunlar urushga tayyorgarlikni tugallab, harbiy harakatlar bazasini ta'minlab, dushman tomonga ayg'oqchilar yuborishni tavsiya qiladi. Keyin o'z armiyasini (piyodalar, otliqlar, jang aravalari va fillar) harakatlantirishi uchun yo'llarning uch turini tayyorlashi lozim. Yurish uchun armiya tez manyovr qilishini ta'minlash uchun olti qismga bo'lingan. Qonunlarda armiya harbiy taktika qoidalariga muvofiq harakat qilishi ko'rsatiladi. Armiya harbiy vaziyatga qarab jangovar tartibda tuzilishning turli («romb», «pona», «igna» va hokazo) shakllarini qo'llash mumkin. Armiya qaysi tomondan xavf tug'lsa, shu tomonga harakatlangan. Qanotlarda, oldinda va armiya orqasida hujumni qaytarishga, qarshi hujumga o'tishga mohir bo'lgan, jang san'atini mukammal egallagan, signallarni biladigan askar guruhlari mavjud bo'lgan. Podshoga nilufar guliga o'xshash tuzilgan harbiy qism o'rtasida turish tavsiya qilinadi.

Manu qonunlarida urush olib borishning axloqiy qoidalariga e'tibor beriladi: urushda tishli o'qlar, zaharli qurollar bilan o'ldirish taqiqlanadi. U (podsho) kim jangda tepalikda turgan raqibni, agar o'zi jang aravasida turgan bo'lsa o'ldirishi mumkin emas. Haram og'asini ham, afv etishni so'rab qo'lini ko'tarib turgan dushmani, to'zib ketgan sochlari bilan qochib ketayotganni, o'tirganni, «men – seniki» deb aytganni o'ldirish mumkin emas. Uxlab yotganni, sovuti bo'lmaganni, qipyalang'ochni, o'zi jangda qatnashmay, jangni kuzatayotganni, boshqa dushman bilan olishayotganni. quroli singanni, g'am-anduhga tushganni, og'ir yaralanganni, qo'rqib qolganni, qochib ketayotganni o'ldirmasligi; har qanday bunday holatlarda u «haqiqiy jangchilar» burchini unutmazligi lozim (91-93-moddalar). Podsho doimo aldovlarsiz harakat qilishi, qo'qqisdan kutilmaganida hujum qilmasligi kerak (104-modda).

Qadimgi Hindistonda armiya muntazam bo'lib, davlat hokimiyati ta'minotida bo'lgan. Mamlakat tinchligini, chegaralar xavfsizligini ta'minlash uchun

harbiy qismlar mamlakatning muhim tayanch nuqtalarida joylashtirilgan. Armiyaning jangovar qobiliyati urush oldidan va urushdan keyin o'tkaziladigan harbiy ko'rikda aniqlangan.

Mahobhorat yoki Bharata avlodlari jangnomasi

Qorong'i zulmat ichida Duro'dho'naning oldiga murabbiy Dro'naning o'g'li, yosh jangchi Ashvatthaman pisib keldi. Yaqindagina qudratli hukmdor bo'lgan kishining qonga belangan holda yerda yotganini ko'rib u yig'lab yubordi, boshini mag'lub podshosining oyoqlariga qo'ydi.

– Ey ulug' zot, – dedi Ashvatthaman, – nahotki, yer yuzida o'zgarmaydigan narsa bo'lmasa? Odamning ikkidan biriga hukmdorlik qilgan senday podsho shoqol va sirtlonlar qurshovida g'arib ahvolda o'layotirsan. Armiyang qani? Yengilmas harbiy sarkardalaring-chi? Ukalaring, o'rinbosarlaring qayerda? Hammasi, hammasi o'lim xudosi yo'lidan ketdi. Yoningda hech kim yo'q. Hech kim senga so'nggi marta bo'lsa ham loyiq hurmat ko'rsatmayotir, hech kim sen uchun o'ch olmayotir. Ashvatthamanning faryodi Duro'dho'naning jonini o'lim uyqusidan uyg'otib yubordi. Duro'dho'na mag'lubiyatga uchragani uchun alam bilan yig'layotgan bu yigitga murojaat qilib dedi:

– Men o'zim uchun g'am chekmayman. Ertami, kechmi barcha tirik jonning boshida qazo bor. Men jangchiga munosib o'lim bilan ketayotganimdan xursandman. Seni sog'-salomat ko'rganimga ham xursandman. Sen hamisha mard va matonatli eding. Bundan keyin ham shunday bo'l. Menga alam qiladigan joyi shuki, armiyam butunlay yakson qilindi, dushman armiyasida esa sog'-salomat qolganlar ko'p.

– Ey podshohim, – deb qichqirdi Ashvatthaman, – bu fikrlar seni iztirobga solmasin! Hayotim haqqi qa-

samyod qilamanki, ko'p o'tmay dushman askaridan bitta ham qolmaydi. Meni kut. Bu haqdagi xabarni senga o'zim keltiraman.

Ashvatthaman shunday deb, qiziqqonlik va jaholat bilan jangga chanqoq holda Pandavlar qarorgohi tomon chopdi.

Bu hodisa ulug' jang tamom bo'lgandan keyingi birinchi kechada bo'layotgan edi. Horigan jangchilar dong qotib uxlashardi. Atrofda birorta chiroq ham ko'rinmas, sado ham eshitilmasdi.

Ashvatthaman dushman qarorgohiga yashirinib kirib, kattakon banan daraxti tagiga berkindi va qanday qilib hamma jangchilarni mahv qilish haqida o'ylay boshladi. U bitmas-tuganmas alam bilan o'ch olmoqchi bo'lib kelgan, lekin yolg'iz edi. Uni bu yerda o'limdan boshqa nima ham kutar edi.

Shu qayg'uli o'ylarga borib, nima qilishini bilmay, daraxt tagida o'tiraverdi. To'satdan qorong'ida uning oyog'i tagiga shamol to'kkan mevaday bir narsa to'p etib tushdi. Keyin yana tushdi. Atrofidan shunaqangi to'pillagan ovozlari tez-tez eshitila boshladi. U qo'lini uzatib, yonida hozirgina tipirchilab jon bergan qushni ushladi. Ularning ba'zilari boshsiz, ba'zilari ko'ksi majaqlangan, ba'zilari esa patsiz edi.

Ashvatthaman tun sukunatida bu qushlarni kim o'ldirayotganligini bilolmay bananning qalin yaproqlari orasiga qaradi. To'satdan uning boshi ustidan keng yoziq qanotlari bilan osmondagi yulduzlarni to'sib bahaybat bir boyqush uchib o'tdi. Shu payt uning miyasiga o'z raqiblarimni ochiq jangda emas, balki hozir – tunda g'aflatda o'ldirishim kerak, degan fikr keldi. Ular shu qushlar singari uxlab yotgandagina hammasini yo'q qilish mumkin. Tong otib qolsa, unda kech bo'ladi. U qat'iy qaror bilan sapchib o'rnidan turdi-da, qoplari singari yerga qapishib, pisib boraverdi va charchab dong qotib uxlayotgan Pandav jangchilarining soyalarini ko'rdi.

«Uyqudagilarni o'ldirish nomardlik bo'lmasmikin? – deb u to'satdan o'ylanib qoldi. – Jangchilarning or-nomus qonuni, urf-odatini buzish qanday bo'lar-kin?» U dushmanga qo'l ko'tarishga jur'at qila olmay ikkilanganicha to'xtab qoldi.

Keyin o'z qo'shinining harbiy sarkardalaridan ko'p eshitgan quyidagi so'zlarni eslab, shubhalarni quvdi:

*Raqibni o'ylamay mahv etmoq darkor,
Qaramay jarohat yo charchog'iga.
U yo g'aflatdami, yo'ldami, aslo
Parvo qilma ochlik yo chanqog'iga.
Dushmaning jon bersin azob-dahshatda,
Sen o'z raqibingni o'ldir, albatta,
Bahona ma'zurga sabab bo'lolmas,
Raqibni o'ylamay mahv aylasang, bas.*

U or-nomus qalqonini ming bo'lakka bo'lib, qo'liga xanjarini ushlab, uyqudagi jangchilarga zaharli ilonday ovoz chiqarmay tashlanib, zarba bera boshladi. U achinmay rahmsiz ravishda ularni chavaqlayverdi, jangdan sog' qolganlarning hammasini qirib tashladi. O'layotgan jangchilarning ingrashidan uyg'onib ketganlar esa dushmanni ko'rmasdan xavf qayoqdan kelayotganini bilmay bir-birini dahshat ichida o'ldirib yuborishdi.

Faqat o'sha kuni qarorgohda bo'lmagan Pandavlargina bu halokatdan qutulib qoldilar.

Ashvatthaman askarlarning hammasini chavaqlab, qarorgohdagi chodirlarga o't qo'ydi-da, qanday kelgan bo'lsa, xuddi shunday shovqinsiz o'zini qorong'ilikka urdi. U o'layotgan Duro'dho'naning oldiga shoshilib keldi, ustiga engashib, tashvishlanib so'radi:

– Ey sherdil inson, gapimni eshityapsanmi? Agar joning chiqmagan bo'lsa, seni xursand qiladigan gaplarimni eshit. Dushmanning hamma qo'shinlarini o'z qo'lim bilan qirib tashladim. Tiriklardan faqat aka-uka Pandavlar bilan Krishna, bizdan esa men bilan yana ik-

kita mard jangchi qoldi, xolos. Osmonda mening otamni, shu jangda shahid bo'lganlarni ko'rganingda, ular uchun men qasos olganimni aytib qo'y. Shuni bilki, ey shahanshoh, sen uchun ham qasos oldim.

Duro'dho'na oxirgi kuchini to'plab turib dedi:

– Qo'shinimdan birorta ham jangchi qilolmagan ishni sen qilding. Yaxshi qol. Endi men tinchgina o'laman.

Umrining oxirigacha yaxshilik va haqiqat yo'liga tusha olmagan podsho bu so'zlarni aytib jon berdi. Donishmand Yudhishthira o'z qo'shinining halokatini eshitgach, shunday dedi:

– Ajabo, ko'pincha yengilganlar g'olib chiqadi, yengganlar esa mag'lub bo'lishadi. Kechasi hamma jangchilar bizning aybimiz bilan halok bo'lishdi. Biz qarorgohni tashlab ketmasligimiz lozim edi. Chindan ham biz okeandan suzib kelib, daryoga cho'kib ketgan kemaga o'xshaymiz. Bo'lar ish bo'libdi, endi g'am chekishning foydasi yo'q. Biz endilikda mamlakatni yomonlikdan butunlay xalos qilish hamda xalq farovonligi haqida o'ylashimiz kerak. Shunday deb, bu adolatparvar podsho ukalari bilan ko'r podsho Dhritarashtraning poytaxtiga qarab jo'nadi.⁷

Aleksandrning podsho Por bilan jangi

Por⁸ bilan jang to'g'risida Aleksandr o'z xatlarida batafsil hikoya qiladi. U dushman qarorgohlari o'rtasida Gidasp daryosi oqib o'tadi, deb xabar beradi. Fil-larni oldinga qo'yib, Por kechish joyi ustidan muntazam kuzatib bordi. Iskandar lagerda varvarlar unga o'rganishi uchun har kuni kuchli shovqin ko'tarishni buyurdi. Bir kuni oysiz kechada Iskandar piyodalar-


⁷ Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchi: R.Rajabov –T.: 2013, «Adib» nashriyoti.

⁸ Por – Panjob vodiysidagi kichik qadimgi hind davlatining podshosi. Mil. avv. 326-yilda Gidasp daryosi bo'yidagi Makedoniyalik Aleksandrga qarshi jang qilgan, ushbu jang Aleksandrning so'nggi jangi bo'lib, uning sharqdagi harbiy ekspeditsiyasi edi.

ning bir qismi va tanlangan otliqlarni o'zi bilan olib, dushmanlardan uzoq ketib, uncha katta bo'lmagan orolni kechib o'tdi. Shu vaqtda kuchli yomg'ir boshlandi, bo'ronli shamol esdi, lagerda yashin chaqnab turdi. Iskandarning ko'z oldida bir necha jangchilar yashin urib o'ldi, baribir oroldan suzib ketib, qarshidagi qirg'oqqa chiqishga urindi. Ob-havo yomonligi uchun Gidasp toshib ketdi va quturdi, ko'p joylarda qirg'oq yemirildi va u yerga suv shiddatli oqim bilan yugurdi, quruqlikka yaqinlashish mumkin emas edi, chunki oyoq ko'pirgan daryo sirpanchiq edi, shunda hikoya qilishlaricha, Iskandar shunday hayqiradi: «Afinaliklar, bilasizmi, sizni ma'qullashingizga sazovor bo'lish uchun qanday xavf-xatarga duchor bo'lyapman?». Onesikrit shunday deydi, Iskandarning o'zi ham xabar beradi, ular sollarni qoldirdilar va ko'krakkacha suvga tushib, qo'llarida qurol bilan kechuvga tomon harakat qildilar. Qirg'oqqa chiqib, Iskandar otliqlar bilan piyodalardan 20 stadiyga o'zib ketib, oldinga yugurdi. Iskandar faraz qildiki, agar dushman otliqlari jang boshlasa, ularning ustidan yengil g'alaba qiladi, agar ular piyodalarni oldinga chiqarsa, uning piyodasi o'z vaqtida unga qo'shilishga ulguradi. Bu taxminlarning birinchisi amalga oshdi. Mingta otliq va olti yuz jang aravasi unga qarshi chiqdi, u qochishga majbur bo'ldi. Barcha aravalarga ega bo'ldi, otliqlardan to'rt yuz kishi halok bo'ldi. Por tushundiki, Iskandar daryodan kechib o'tdi, qolgan makedonlarga xalaqit berish uchun joyida faqatgina uncha katta bo'lmagan qismni qoldirib, o'zining butun qo'shini bilan unga qarshi chiqdi. Fillarning ko'rinishi va dushman ko'p sonligidan qo'rqqan Iskandarning o'zi chap qanotga hujum qildi va Kenga⁹ o'ng tomonga hujum qilishni buyurdi. Dushmanlar har ikki qanotda turdilar, hamma vaqt ular fillarga chekindilar, u yerdan jiplashgan saf bilan yana hu-

⁹ Ken – Ken yoki Koynos - Iskandar lashkarboshilaridan biri.

junga tashlandilar. Shuning uchun jang o'zgaruvchan muvaffaqiyat bilan bordi va faqatgina sakkizinchi soatda dushmanlarning qarshiligi sindirildi.¹⁰



45-rasm. Mil. avv. IV asr oxiridagi hind harbiylari. Jangovar filda Roja va bambuk nayza bilan qurollangan jangchi. Filning chiqib turgan tishlari bronza qinlar bilan kuchaytirilgan. Hindlarning asosiy quroli 1,8 metrli kamon va undan otiladigan 1 metr atrofidagi o'q. Keng tig'li uzun nayza 112 sm dan iborat bo'lib, nayzani bir yoki ikki qo'lda ushlaganlar. Qalqon teridan qilingan.



46-rasm. Qadimgi Hindiston. Qadimgi hind armiyasida jangovar fillardan urushlarda foydalanilgan. Tepasida minorasi bilan hind jangovar fillari.

¹⁰ Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchi: R.Rajabov. -T.: 2013 «Adib» nashriyoti.

QADIMGI XITOIY HARBIY SAN'ATI

*Sarkarda – bu aql, insonparvarlik, jasurlik, qattiqqo'llik.
Qonun – bu harbiy saf, qo'mondonlik va ta'minot.*

Sun-Szi. «Urush san'ati» asaridan

Xitoy tarixchilari mamlakat tarixini Xitoyda hukmronlik qilgan sulolalar bo'yicha bo'ladilar: Shan-In sulolasi mil. avv. 1562–1027-yillar. Chjou sulolasi mil. avv. 1027–256-yillar. Sin sulolasi mil. avv. 221–207-yillar. Xan sulolasi mil. avv. 202–220-yillar.

Qadimgi Xitoyda ilk davlat mil. avv. II ming yillikning o'rtalarida shakllandi. Xitoyning uch daryosi: Xuanxe, Yanszi va Sisyan g'arbdan sharqqa qarab oqib, keng tekislikni sug'oradi. Xuanxe daryosining o'rta oqimi vodiysida In qabilalari mil. avv. II ming yillikda yashab, ovchilik va chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullandi. Inlar Xitoyda ilk davlatni tashkil qildilar. Bu davlat Shan-In davlati deb nom oldi. Shan In sulolasi mil. avv. 1562–1027-yillarda hukm surgan Xitoyning ilk sulolasi edi.

Bu davrda fil suyaklaridagi yozuv yaylovlar uchun inlar g'arbda Syan va Tu qabilalari bilan urushganlari to'g'risida ma'lumot beradi. Qabila boshida oqsoqol Van turgan. Van harbiy to'qnashuvlarda qabilaning ko'ngilli qismlariga boshchilik qildi. Vanning hokimiyati kuchayib, keyinchalik u to'laqonli hokim – podshoga aylandi.

Shan-In davrida harbiy soha. Yaxshi qurollangan harbiy qism Van hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Mamlakat chegaralarini ko'chmanchilardan mudofaa qilish zarurligi va qo'shnilarning yerlarini bosib olish zaruriyati harbiy sohani yo'lga qo'yishni talab qilgan.

Armiyaning asosini jamoachi dehqonlardan rekrut tartibida olinadigan piyodalar tashkil etgan. Jangchilarning asosiy quroli o'q-yoy edi. Inlarning kamoni ku-

chaytirilgan bo'lib, o'qlari patli edi, turli shakldagi o'q uchlari bo'lgan. Jang boltalari, nayza va bronza, suyak uchli kalta nayzalar Shan-In jangchisining quroli bo'lgan. Bundan tashqari, inlarda maxsus qurol – ge, o'ziga xos bolta – xanjar yoki sekira – nayzalar mavjud bo'lgan. Gening yog'och sopi odam bo'yiga teng bo'lib, 17 x 22 sm tig'ga to'g'ri burchakli joylashgan. Sekira boltaga o'xshab tig'i sopi bilan birlashgan. Himoya vositasi qalqon bo'lgan. Jangchilar boshlariga bronza qalpoq kiyganlar.

Jang aravasi va ot Shan-In davridagi yozuvda tilga olinadi. An'yan hududidagi qazishmalardan jang aravalarini bezash uchun bronzadan ishlangan 400 ga yaqin zeb-ziynat asboblari va ot suyaklari topilgan. Vanlar jang aravasida jang qilganlar, armiya-ning zarbdor qismi otliq va jang aravalaridan tashkil topgan. Faqat zodagonlar jang aravalariga ega bo'lib, jang aravalari besh ming kishigacha bo'lgan, otliqlar 300 kishini tashkil etgan.

Van (hokim)larda va ularning navkarlarida jez qalpoqlar bo'lgan. Vanlar jang aravalarida urushga kirganlar. Jang maydonida jangovar tartib – piyodalar, otliqlar va jang aravalaridan tashkil topgan. Shan-In armiyasi asosini 3000 dan 5000 kishigacha bo'lgan harbiy qism tashkil etgan. Askarlar kamon, nayza va 0,9-1,8 metrli tayoqqa o'rnatilgan tig'li alebardaga o'xshash «ko'» deb atalgan, jangda qalqon bilan birga ishlatiladigan qurollar bilan qurollangan.

Davlat ishlarida podshoning maslahatchilari bo'lgan «Uch oqsoqol»ning ikkinchisi «otlar boshlig'i» («podsho mulklari armiyasi boshlig'i») «qo'zg'olonchilarni tinchlantirib turishi» lozim bo'lgan. Bu amaldor harbiy mahkamani boshqarib, butun davlatning harbiy idora ishlarini yo'lga qo'ygan. U harbiy xizmatga yangi askarlar to'plagan, harbiy ta'lim-tarbiyaga rahbarlik qilgan, harbiy inspeksiyaga boshchilik qilgan

va armiyaning ta'minot ishlarini boshqarib turgan. Shu bilan birga u armiyaga bosh bo'lib, urush vaqtida unga qo'mondonlik qilgan.

Ba'zi yozuvlarga ko'ra jangga saf tortishda muayyan qoidalar joriy qilingani faraz qilinadi. Qur'a yozuvlaridan birida: Bu kecha lagerda biron falokat yuz bermasmikan, tun tinch o'tarmikan, deb so'raladi. In davlatida armiyaning asosini harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy dehqonlardan tuzilgan piyodalar qismi tashkil etgan. Bu qadimgi Xitoy yozma tarixiy manbasi «Qo'shiqlar kitobi»da obrazli qilib tasvirlangan. Jang aravalarida, odatda, zodagonlar jang qilganlar, chunki faqat bu zodagonlar katta mablag' talab qiladigan ikki ot qo'shilgan aravaga ega bo'lishga qodir bo'lganlar.

Shan-In podsholari o'zlariga qoshni jangovar chjoulardan ko'chmanchilarga qarshi harbiy yurishlarda foydalanganlar. Ko'chmanchilarga qarshi urushlarda ishtirok etganlari uchun Chjou harbiy sarkardalari inlardan yer ulushlari, pul mablag'lari olgan. Chjoular dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Yilqi chjoular uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, otlardan ov va urushlarda foydalanganlar. Chjou qabilalari yo'l boshchisi (Gun) bir vaqtning o'zida harbiy boshliq ham bo'lgan.

Chjou qabilalarida mulkiy tabaqalanish natijasida davlat va jamiyat shakllanadi. Mil. avv. XII asrda endigina tashkil topgan yosh va kuchli chjoular davlati armiyasi zaiflashib borayotgan In davlatiga qarshi urush boshlaydi. O'zaro urushlar girdobida qolgan Shan-In davlati kuchli va yaxshi qurollangan Chjou armiyasi hujumini qaytarishga o'z bo'lgan. Mil. avv. 1122-yilda lashkarboshi U.Van boshchiligida Chjou armiyasi hal qiluvchi jangda Shan-In armiyasini yanchib tashlaydi. Shan-In yerlariga bostirib kirishda U.Van armiyaga qat'iy ko'rsatma beradi: «Shan-In yerlarida biz tomonga qochib o'tganlarni, ular bizning g'arbiy yerlarimizda xizmat qilishlari uchun o'ldirmang».

Chjou davrida harbiy soha. Shan-In davlati ha-lokati bilan Xitoyda mil. avv. 1027–256-yillarda mamlakatni boshqargan Chjou sulolasi hukmronligi boshlandi. Chjou davlati ma'muriy-tashkiliy jihatdan yaxshi shakllangan. Chjou podshosi katta yer egalari – gun, xou, bo, szi va nanlar orqali davlatni boshqargan. Harbiy sohaga chjoular katta e'tibor beradilar. Podsho harbiy xizmatlari uchun o'z xizmatchilarini rag'batlantirgan. Davlat hokimiyati harbiy xizmatdagilarni moddiy rag'batlantirish siyosatini olib borgan. Chjou davri bronza ko'zalarida shunday yozuvlar mavjud: «Budi' harbiy sohadagi xizmatlaring uchun o'q-yoy, 5 qul oilasi va 10 ulush yer hadya qilaman».

Chjou davlati davrida 100 ming kishilik kuchli armiya shakllantirilgan. Armiya muntazam shaklda bo'lib, asosan, aholining asosiy qismini tashkil qilgan qo'shni dehqon jamoasi hisobidan to'ldirilgan. Chjou davlatida ma'muriy-xo'jalik birligi 8 xo'jalikdan iborat «qo'shni jamoa» bo'lgan. Qo'shni jamoa bo'lib yashagan dehqonlar davlatdan yer ulushi olganlari uchun armiyaga askarlar, ot va xachirlar, oziq-ovqat, yem-xashak yetkazib berish majburiyatini o'taganlar. 8 xo'jalikdan biri askar bergan, qolganlar boshqa majburiyatlarni bajarganlar. Shu tarzda 700 ming dehqon xo'jaliklari 100 ming qo'shinni ta'minlab turgan. To'rt «qo'shni jamoa» qishloqni tashkil qilgan, 4 qishloq – qo'rg'onni, 4 qo'rg'on volostni tashkil qilgan. Urush vaqtida volost 75 askar, bir jang aravasi, 4 ot va 16 eshak bergan.

Bu davrda Xitoy armiyasining tarkibiy tuzilmasida jang aravalari va otliq qismlar ham mavjud bo'lgan. Traktatlarning birida jang aravalari va otliq qismlarning urushda keltiradigan foydasi to'g'risida shunday deyiladi: «jang aravalari va otliqlar armiyaning harbiy qudratidir. O'n arava ming kishini yengadi, yuz arava 10 ming kishini tor-mor qiladi, 100 otliq ming kishini qochirib yuboradi». «Jang aravalari – armiya qa-

noti; ular mustahkam qo'rg'onlarni ag'daradi, kuchli raqibni mag'lub qiladi, qochayotganlarning yo'lini to'sadi. Otliqlar – bu armiya razvedkasi; u yengilgan armiyani ta'qib qiladi, unga ozuqa olib kelish yo'lini kesadi, uning ilg'or qismlarini to'zg'itadi».

Jang aravalari ikki xil bo'lgan: to'rt ot qo'shilgan jang aravasi, 12 eshak qo'shilgan yuk tashish va mudofaa inshootlari qurish uchun transport aravalari. Har bir arava yonida 75 askar bo'lib, ulardan og'ir qurollangan uch askar aravada jang qilgan, qolganlari uch bo'linmaga ajralgan; bir bo'linma arava oldida, boshqa ikkita bo'linma qanotlarda joylashgan. Jang aravalariga 25 askar xizmat qiladigan transport aravasi birlashtirilgan.

Xitoy tarixida mil. avv. VIII–V asrlarda rasman Chjou sulolasiga bo'ysungan, amalda esa o'nga yaqin mustaqil davlat mavjud bo'lgan. Mil. avv. V–III asrlar Chjango («Urishayotgan podsholiklar») davri deb atalib, bu davrda Chjou davlati yemiriladi va o'zaro urushlar kuchayadi. Hozirgi Shandun viloyati hududida o'sha vaqtda mavjud bo'lgan mil. avv. VII asrning birinchi yarmidagi Lu va Si davlatlari o'rtasidagi urushlar misolida qadimgi Xitoy harbiy san'atining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Si davlati harbiy ustunlikka erishib, Lu davlatiga hujum qiladi. Lu hukmdori o'z yaqinlaridan biri Sao Guy maslahati bilan dushman kuchlari toliqib qolgan paytda jangga kiradi. Bu mudofaa urushida Lu hukmdori dushmanning kuchli, ko'p sonli armiyasiga qarshi urushda xalqqa suyanib ish ko'radi. Chanshao yonidagi jangda Sao Guy Lu hukmdorini dushman armiyasiga qarshi bevaqt hujumdan saqlab qoladi.

Si hukmdori o'zining to'la g'alabasiga ishonib, Lu armiyasiga uch marta hujum qiladi, lekin bu hujumlarning barchasi qaytariladi. Si armiyasi o'zining bor kuchini sarflab bo'lib, charchab qolganda Lu armiyasi kuchli qarshi hujumga o'tib, dushmanni bata-

mom magʻlub qiladi. Sao Guy shunday taʻkidlaydi: «Axir urush – bu jasorat. Birinchi doʻmbira jasoratni koʻtaradi, ikkinchisi bilan u pasayadi, uchinchisi bilan tugaydi. Dushmanda jasorat soʻndi, biz esa toʻla jasoratda edik, shu sababli gʻalabaga erishdik. Katta davlat bilan urushib, uning bor kuchini bilish qiyin. Men pistirmadan qoʻrqdim. Men ularning jang aravalari izlariga qaradim – ular chalkashib ketgan edi, ularning bayroqlariga qaradim – ular yiqildi. Ana shunda biz quvishga tushdik». Bu urushning alohida tomoni shundaki, kuchlarning yuqori darajada tengsizligi vaziyatida zaif boshda chekindi, keyin esa zaif tashabbusni oʻz qoʻliga oldi va gʻalaba qildi.

Mil. avv. VI–V asrlardagi Xitoy armiyasi aniq tashkiliy tuzilmaga ega boʻlgan. «U» (beshlik), besh «U» – «lyan» (25 askar), toʻrt «lyan» – Szu (100 askar), besh «szu» – «lyuy» (500 askar), besh «lyuy» – «si» (2500 askar), besh «si» – «szyun» (12500 askar)ni tashkil qilgan. Oliy birlashma uch «szyun» (37500 askar), ulardan har szyun maʼlum bir taktik vazifa: avangard, markaz va arʻyergardni tashkil etgan. Chjou vani olti «szyun»ga ega boʻlgan.

Sin va Xan sulolalari davrida armiya (mil. avv. III asrdan – milodiy III asrgacha). Otliq qismda harbiy tuzilmaga oʻnlik tizim asos qilib olingan: beshlik – quyi boʻlinma, ikki beshlik (10 otliq), yigirma beshlik 100, qirq beshlik 200 otliqni tashkil etadi. Jang aravalari: quyi boʻlinma – 5 jang aravasi, ikki beshlik – keyingi boʻlinma, navbatdagilari 50 va 100 jang aravalaridan iborat boʻlgan.

Xitoy armiyasi jang vaqtida shakllangan jangovar joylashuv tartibiga ega boʻlgan. Markazda jang aravalari joylashgan, oldinda va qanotlarda piyodalar, orqada esa shunday tartibda transport aravalari turgan. Armiyaning besh qismdan iborat jangovar tartibi: markazda (asosiy kuchlar) armiya qoʻmondoni bir «szyun» bilan, qanotlarda bir szyundan, oldinda avangard, orqada

ar'yergard turgan. Sakkiz qismdan iborat jangovar tartib saflanishi ham qo'llanilgan; bunday holda har bir burchakda yana bir szyun joylashtirilgan.

Armiyaning boshqarish tizimi yaxshi shakllantirilgan: bo'linma ovoz bilan, birlashma do'mbira bongi, bayroqlar va nishonlar bilan boshqarilgan. Keyinchalik yozilgan traktatlardan birida do'mbira ovozi bilan jang aravalariga, otliqlarga, piyodalarga «qurol, kiyim-bosh va oyoqqa signal beriladi» deb ta'kidlangan. Do'mbiralarga uradilar – chiqiladi; ikkinchi marta uradilar – hujumga; bong uradilar – to'xtash kerak; ikkinchi marta uradilar – chekinish kerak. Bayroq va nishonlar harakat yo'nalishini ko'rsatish va armiyani qayta saflash uchun xizmat qilgan.

Mil. avv. III asrda kuchayib ketgan Sin davlati va Xitoydagi boshqa davlatlar o'rtasida yetakchilik uchun kurash boradi. Yetakchilikka bosh da'vogar bo'lgan Sin armiyasining raqib davlat bilan mil. avv. 280-yil Chanjun yonidagi jangda Xitoy armiyasi taktikasining o'ziga xos tomonlari ko'rinadi. Sin armiyasiga mohir sarkarda Bo Si boshchilik qilgan.

Jangning birinchi bosqichida – Chjou armiyasining hujumi va Bo Sining o'z lageriga ataylab chekinishi yuz beradi.

Chjou armiyasi raqib mag'lub bo'lmoqda degan to'la ishonch bilan Sin armiyasini jadal ta'qib qilgan. Chjoular o'zlari uchun kutilmagan holda raqibning mustahkamlangan lageriga duch keladilar.

Jangning ikkinchi bosqichi – Bo Si armiyasi qarshi hujumga o'tib, Chjou armiyasini mag'lubiyatga uchratadi. Bo Si o'zining chekinayotgan armiyasini mustahkamlangan lagerga yashiradi. Bu vaqtda pistirmadan Chjou armiyasi orqasiga 25 ming kishilik Sin armiyasining bir qismi hujum qiladi. Bir vaqtning o'zida Sin otliqlari raqibga qanot bo'yicha hujum qiladi, yengil piyodalar lagerdan chiqib front bo'ylab

hujumga o'tadi. Chjou armiyasi yengiladi. Bo Si o'z armiyasi o'rtasida o'zaro harakatni to'g'ri uyushtiradi, armiyaning mohir taktik o'quv-ko'nikmasi bo'lgani uchun qarshi hujum yaxshi natija beradi.

Xitoyda hukmronlik qilgan Sin sulolasi (mil. avv. III asr), Xan sulolasi (mil. avv. III asrning oxiri – milodiy III asr) davrida Xitoy harbiy san'ati yanada rivojlanadi.

Sin sulolasi mil. avv. 214-yili jangovar ko'chmanchi xunnlarga qarshi mudofaa devori «Buyuk Xitoy devori»ni qura boshladi. Buyuk devor Lyadun qo'l-tig'idan boshlanib, g'arbda tog' tizmalari, daryolar bo'yicha 2500 km cho'zilib, Rixtgofen qoyasida Dzyuyguan qal'asida tugaydi. Xunnlarga qarshi bu devor, qismlar bilan qurilib, amalda bu qurilish XV–XVI asrlargacha cho'zilib ketgan. Buyuk devor, asosan, sirti tosh bilan qoplangan tuproq uyumi. Uning balandligi 16 m gacha yetib, pastda uning qalinligi 8 m gacha, eniga kengligi ba'zi joylarda 5 m gacha borgan. Notekis oraliqlarda ichida zinapoyalari bilan to'rtburchakli ikki qavatli minoralar qurilgan. Devordagi ko'p sonli darvozalar yarim doira bo'lib joylashgan devorlar bilan himoyalangan.

Devorni qo'riqlaydigan askarlar, har biri 145 kishini tashkil etgan qismdan iborat bo'lib, o'z harbiy boshliqlari bilan tegishli qo'riqchi minoralar guruhi uchun javob berganlar. Bu chegara armiya askarlari devordan uzoq bo'lmagan joyda yer ulushiga ega bo'lib, bu yerda o'z oilasi bilan yashab xo'jalik yuritganlar. Buyuk devor bo'ylab har 4 km. da quruq o'tin tayyorlangan, kuzatuvchi postlar joylashgan. Dushman ko'rinsa, o'tin yoqilib bildirilgan. Dushmanning soni to'g'risida shartli ravishda qaytariladigan yorug'lik signallari, raketalar keng qo'llanilgan. Har bir post o'ziga berilgan signalni keyingisiga uzatishga majbur edi. Qo'riqchi askarlar, odatda, qalqon, qilich va arbalet (mexanik kamon) bilan qurollanganlar. Uch

turdagi kamon qo'llanilgan. Kamonni bukishga ketgan kuchni sarfi bo'yicha farqlangan. Har bir askar sadog'ida jez uchli 150 ta o'q olib yurgan.

Xitoy devoridan tashqari harbiy strategik yo'llar va kanallar qurilgan. Xitoy armiyasi boshqalarga qaraganda sekinroq harakat qilgan, chunki yo'llar tosh to'shalmagani uchun tez buzilib ketgan. Xitoyda fortifikatsiya san'ati yuqori darajada rivojlantiriladi. Qal'a va shaharlarni qamal qilish texnikasi, turli qamal qurilmalari ixtiro qilinadi. Xitoy yaxshi jihozlangan harbiy dengiz flotiga ega bo'lgan. Bu dengiz floti qadimda janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining dengiz qirg'oqlarini kezib chiqqan.

Harbiy yurish davrida armiya dehqon ko'ngillilari bilan to'ldirilgan. Xitoy armiyasi, asosan, dehqonlardan tashkil topgan piyoda qismlari bo'lgan. Ular kamon va nayza bilan qurollantirilgan.

Qadimgi Xitoyda qo'riqlash xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Lekin harbiy razvedka mutlaqo yo'q edi, dushman to'g'risidagi ma'lumotlar keng uyushtirilgan ayg'oqchilar tarmog'i orqali amalga oshirilgan. Shu maqsadda dushman qarorgohiga muzokaralar olib borish bahonasida elchilar jo'natilib, ularning vazifasiga dushman mamlakat to'grisida ma'lumot yig'ish ham kirgan. Asirlardan turli ma'lumotlar olingan. Ammo bularning hammasi harbiy razvedkaning o'rnini bosa olmas, armiya tez-tez kutilmagan hujumlarga duch kelgan.

Xunnlarga qarshi kurash. Sin sulolasining Xitoyda hukmronligi davrida Xitoyning eng kuchli raqibi Mo'gulistondagi xunlar davlati edi. Xunlar armiyasining asosi tezkor harakat qiladigan otliqlar qismi bo'lgan. Ular Xitoyning shimoliy hududlariga muntazam bostirib kirganlar. Xitoy xunnlarning hujumini qaytarishdan ojiz edi. Tezkor harakat qiladigan otliq xunnlarni Xitoy piyodalari ta'qib qilishdan ojiz edi, bu vaqtda Xitoy armiyasida otliq qismlari juda o'z bo'lib, bu otliqlar jang san'atida xunnlarga teng kela olmaganlar. Bundan

tashqari, xunnlr yuqori harbiy mahoratga ega bo'lgan otliq jangchi bo'lib, ular uchun urush kundalik xavf-xatarning bir ko'inishi bo'lgan. Xunnlr jang taktikasi va strategiyasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, dushman zarbasini qabul qilmay tez chekinish taktikasini qo'llaganlar. Xitoy armiyasi xunnlarni uzoq ta'qib qilish imkoniyatidan mahrum edilar. Mongoliyaga chekingan xunnlr o'z oziq-ovqat zaxirasidan uzoqlashgan Xitoy armiyasi uchun yengilmas kuch edi.

Ko'chmanchilar bilan kurashda Xitoy otliq qismdan unumli foydalanishga harakat qilib, otliq qismlar soni ko'paytirilgan. Ammo Xitoy otliq qismlari kamonda bexato nishonga urishda va otda tezkor yurishda xunnlarga teng kela olmas edilar.

Armiya ta'minoti qiyinchilik bilan amalga oshirilgan. Xunnlr bilan urushda armiya ta'minoti Xitoyning o'zidan asosan suv yo'li orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, ot va eshaklar, qoramol uchun yem-xashak tashish qiyinchilik tug'dirgan. Xachirlar transport vositasi edi, lekin ularga bu muammo edi. Mo'g'uliston, Sharqiy Turkistonning iqlim sharoitlari harbiy kompaniyaning davomiyligini bir yilda 100 kun bilan chekladi.

Mil. avv. III asr oxiridan Xitoyda hukmron bo'lgan Xan sulolasi mil. avv. II asr o'rtalarida xunnlr bilan sulh tuzishga erishdi. Bu tinchlik mil. avv. 135-yilgacha davom etdi va xitoyliklar bu davrdan hal qiluvchi jangga tayyorgarlik uchun foydalandilar. U Di hukmronligi davrida (mil. avv. 147-87-yillar) xitoyliklar xunnlarga qarshi zarba berishning aniq rejasini tuzdilar. Xunnlarning armiyasi harakatchan bo'lgani uchun ularga pistirma qurish, xunnlarni tuzoqqa tushirib va qurshab yo'q qilishga qaror qilindi. Bu vazifani bajarish uchun katta armiya tuzilib, chegara yaqinidagi Ma-cheng shahari yonida to'plandi.

Xunnlarga elchi sifatida bir savdogar jo'natilib, xunnlarning asosiy kuchlarini Ma-Cheng shahariga

kelish taklif qilindi. Xunn hukmdori (Shanyuy) bu taklifni qabul qilib, a'lo kamonchi otiqlardan iborat katta armiya bilan Ma-Cheng shahri tomon yurdi. Xunnlar «Buyuk devor»dan tinch o'tib, shahargacha 50 km qolganda nimadandir shubhalanib orqaga qaytdilar. Ular Xitoy devori minoralaridan biridagi qo'riqchilarni qo'lga oldilar va qo'riqchilar boshlig'ini Xitoy armiyasi qo'mondonligi rejasini aytishga majbur qildilar. Shundan so'ng ular ichki Mo'g'ulistonga jadal chekindilar. Ularni ta'qib qilish foyda bermadi. Natijada, xunnlarning bosqini yanada kuchaydi.

Xitoy imperatori armiya boshlig'i lavozimiga qobiliyatli harbiy sarkarda Vey-Tsingni tayinladi. Vey-Tsing xunnlarni qurshab olib, yo'q qilish rejasini tuzdi. O'zlarining uzluksiz g'alabalaridan mast bo'lgan xunnlar ehtiyotkorlikni unutdilar. Vey Tsing bundan foydalanib, xunnlarning katta armiyasini qurshovga oldi. Ammo xunn armiyasining asosiy qismi qurshovni yorib o'tdi. Xitoyliklar qo'lida xunnlarning qarorgohi, ayollar, bolalar va 15 ming asirlar qoldi. Bir necha oydan keyin xitoyliklar katta g'alabaga erishdilar. Shundan so'ng xitoyliklar xunnlarning hududlariga katta armiya yubordi. Xunnlar bir necha janglardan so'ng ichki Mo'g'ulistondan siqib chiqarildi. Mil. avv. 91-yilda shimoldagi xunnlar tashqi Mo'g'ulistondan ham surib chiqarildi.

Qadimgi Xitoy harbiy san'ati nazariyasi

Donishmand Sun-Szi urushning mohiyati to'g'risida: Urush bu – davlat uchun buyuk ish, bu hayot va o'lim uchun asos, bu tiriklik va o'lim uchun yo'l. Buni tushunish lozim.

Shuning uchun uning asosiga besh hodisani qo'yadilar...

Birinchi – yo'l, ikkinchi – osmon, uchinchi – yer, to'rtinchi – sarkarda, beshinchi – qonun.

Yo'l – bu xalq bilan hukmdorning birga o'lishga, birga yashashga tayyor bo'lishi va qo'rquv hamda gumonlarni bilmay, xalqning fikri hukmdorning fikrlari bilan bir xil bo'lishidir.

Osmon – bu yorug'lik va zulmat, sovuq va issiqlik, bu vaqt tartibi.

Yer – bu uzoq va yaqin, notekislik va tekislik, kenglik va torlik, o'lim va hayot.

Sarkarda – bu aql, insonparvarlik, jasurlik, qat-tiqqo'llik.

Qonun – bu harbiy saf, qo'mondonlik va ta'minot.

Bu besh hodisa to'g'risida eshitmagan sarkarda bo'l-masa kerak, kim ularni o'zlashtirgan bo'lsa, o'sha yengadi; kim ularni o'zlashtirmagan bo'lsa, u yengiladi.

Sun-Szi «Urush san'ati»

Qadimgi davrda Xitoyda harbiy san'at bo'yicha nazariy asarlar yaratildi. Qadimda Xitoy urush san'ati nazariyotchilari tomonidan harbiy san'at nazariyasiga tegishli 7 traktat tuzildi. Ulardan eng qadimgilari sarkarda Sun-Szi (mil. avv. VI asr – V asr boshlari), U-Szi (mil. avv. IV asr boshlari) yozgan traktatlar hisoblanadi. Sun-Szi traktati Xitoy harbiy san'ati mazmunini va eng muhim tamoyillarini ochib beradi. U davlatining hukmdori Xolyuy (mil. avv. 514–495-yillar)ning lashkarboshisi bo'lgan Sun-Szi «Harbiy san'at to'g'risida» traktatida o'zining jangovar tajribasini umumlashtirdi va asarni 13 bobga ajratdi. Sun-szi davlat uchun urushning ahamiyatini aniqlashtirdi. Urush bu davlat uchun ulug' ish, bu hayot va o'lim asosi, bu hayot va o'limga yo'l. Urushni g'olibona olib borish uchun vaqt hisob-kitobi va harbiy geografiyani bilish zarur. Sun-Szi lashkarboshining qobiliyat va ko'nikmasiga e'tibor qaratadi. Urushni tushunadigan lashkarboshi davlat xavfsizligining xo'jayini, xalq taq-

dirining egasi. Askarlar aniq vaziyat va lashkarboshining reja-niyatlaridan xabardor bo'lishi kerak emas. Askarning urushga faol ishtirokini ta'minlash uchun unga o'ljaning bir qismini berish kerak. Sun-Szi lashkarboshining majburiyati to'g'risida shunday yozadi: Oliy qo'mondonning bilimi uning raqibni baholay bilishi, g'alabani tashkil eta olishi, joy va masofa mohiyatini hisobga olishida deb ko'rsatadi. Lashkarboshining bu bilimidan urushning yutug'i belgilanadi. Sun-Szi fikricha, raqibni va o'z armiyasini bilish hal qiluvchi ahamiyatga ega, «shu sababli, agar (raqib)ni bilsang, o'zingni (o'z armiyangni) bilasan, yuz marta jang qilsang ham xavf-xatar bo'lmaydi; agar o'zingni bilsang, uni bilmasang, bir marta g'alaba qozonasan, ikkinchi marta mag'lub bo'lasan; agar o'zingni ham, uni ham bilmasang, hamma vaqt urush qilganingda ham mag'lubiyatga uchraysan» (III bob, 9 p). Bilim nimaligi, aniqrog'i, bu g'alabani tashkil qiladigan barcha qismlar to'g'risida tushuncha beradi.

Sun-Szi urush g'olibona va qisqa bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. Uzoq davom etadigan urush kuch va moddiy resurslarni tugallaydi, hokimiyatni zaiflashtiradi, mahalliy hokimlarning markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko'tarishiga imkoniyat yaratadi. Qisqa muddatli urush u yaxshi olib borilmagan bo'lsa-da muvaffaqiyatli bo'ladi. Uzoq muddatli urush yuqori san'at bilan olib borilsa-da, urushning uzoq davom etishi g'alabaga olib kelmaydi. Uzoq davom etgan urush hech qachon davlat uchun foydali bo'lmaydi. «Urush g'alabani yoqtiradi, lekin davomiylikni emas» (II bob, 14 p).

Sun-Szi urush qilmasdan belgilangan maqsadga nozik siyosat bilan erishish mumkin, deb hisoblaydi. «...Kim urush olib borishni bilsa, begona armiyani yengadi, urush qilmasdan, qamal qilmasdan boshqalarning qal'asini oladi; o'z armiyasini uzoq ushlamay

begona davlatni yengadi». Sun-Szi dushmanga qarshi kurashning shunday tartibdagi usullarini ko'rsatdi: eng yaxshisi, dushmanning niyatini bilish, agar bunga erishilmasa «uning ittifoqlarini buzish», bu ham amalga oshmasa», uning armiyasini tor-mor qilish kerak». «Shu sababli yuz marta jang qilish va yuz marta g'alaba qilish – bu a'loning a'losi emas; a'loning a'losi – jang qilmasdan dushman armiyasini bo'ysundirish». Sun-Szi g'alabani ta'minlaydigan besh omilni ko'rsatadi:

- agarda qachon jang qilish mumkin yoki mumkin emasligini bilsa yengish mumkin;

- agarda katta va kichik kuchlardan foydalanishni bilsa, g'alaba qiladi;

- qayerda yuqori va quyilar bir xil istakka ega bo'lsa yengadi;


- qachonki o'zi ehtiyotkor bo'lib, dushmanning ehtiyotsizlik qilib qo'yishini kuta olsa u g'alaba qiladi;

- agarda armiya qo'mondoni qobiliyatli bo'lib, hukmdor unga rahbarlik qilmasa u g'alaba qiladi.

Sun-Szi hukmdorga o'z armiyasini bilmaganligi uchun unga keltiradigan uch kulfatni ko'rsatib o'tadi: hukmdor armiya hujum qilish yoki chekinishga qodirligini bilmasdan hujum qilishi yoki chekinishga buyruq bergan taqdirda, bu bilan u armiyani bog'lab qo'yadi; qachonki u armiyani davlatni boshqargandek boshqarsa, bu harbiy qismlarning boshliqlarini o'zini yo'qotib qo'yishga olib keladi; qachonki u armiyaning taktikasini bilmay turib, lashkarboshini davlatning tamoyillarida ko'rsatilganidek tayinlashga amal qilsa, bu harbiy qism boshliqlarini taraddudga soladi, armiyani mag'lubiyatga olib keladi.

Sun-Szi urushda g'alabani ta'minlashning zaruriy sharti deb harbiy sirning saqlanishini ko'rsatadi. «Armiyani harakatga keltirishda o'z hisob-kitoblaring va rejalarining bo'yicha harakat qil va shunday qilki, ularga hech kim kira olmasin» (XI bob, 8 p). Lash-

karboshi o'z rejalarining sir saqlanishini ta'minlashi uchun o'z zobit va askarlarini ham adashtirishni tafsiya etadi. Lashkarboshi «o'z zobit va askarlarining ko'z va quloqlarini adashtirishni bilishi lozim va ularni biror nimani bilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. U o'z fikrlari va rejalarini almashtirishi kerak, qaysiki, boshqalar biror nimani tushuna olmasinlar» (XI bob 17 p).




47-rasm. Qadimgi Xitoydagi qal'a-mudofaa inshooti.

Sun-Szi urush harakatlari shakllari masalasiga alohida to'xtaladi. Urush harakatlarining asosiy shakllari – bu mudofaa va hujum deb hisobladi va ularga turli sifatlarni berdi. «Yengilmaslik – bu mudofaa, g'alaba qilish imkoniyati – bu hujum. Qachonki, mudofaa qilishga to'g'ri kelsa, demak, nimadadir kamchilik bor; hujum qilinsa, demak, barchasi mo'l-ko'l. Kimki yaxshi mudofaada bo'lsa, jahannamning chuqurligida yashirini; kim yaxshi hujum qilsa, samoning balandligidan harakat qilinadi» (IV bob, 2 p).

Sun-Szi harbiy san'atni jang harakatlarini u yoki bu shakllaridan ustalik bilan foydalanishda ko'rdi. «Hujum qilish, shu bilan ishg'ol qilish ehtimoli bu – qachonki u «dushman mudofaa qilmagan joyga hujum qilish demakdir; mudofaa qilish shu bilan birga ushlab

turish ehtimoli – u hujum qila olmaydigan joy. Shu sababli, kim hujum qilishni bilsa, raqib qayerda mudofaa qilishni bilmaydi; kimki mudofaa qilishni bilsa, raqib qayerda unga hujum qilishni bilmaydi, u raqib taqdirining hukmdori bo‘lishi mumkin» (VI bob, 4 p).



48-rasm. Anyandagi marosim bronza boltasi, Shan-In davri.



49-rasm. Xuandi-Sin sulolasining birinchi hukmdori (Sariq imperator)

Sun-Szi razvedka xizmatiga e'tiborni qaratdi. U asosan ayg'ochilarni ishlatish (agentura)ga tegishli fikrlarni aytdi. Ayg'ochilik xizmatiga davlat xarajatini asoslab Sun-Szi shunday yozadi: «Bir-biridan bir necha yil himoyalanaadi, g'alaba esa bir kunda hal qiladi». Shu sababli hamma narsani oldindan ko'rish kerak. Kelajak to'g'risidagi bilimni ilohlar va devlardan olib bo'lmaydi,

raqib to'g'risida bilimlarni faqat odamlardan, ayg'oqchilardan olish mumkin. «Ayg'oqchilardan foydalanish – urushda eng muhimi; bu armiya tayanib harakat qiladigan tayanch». Ayg'oqchilar armiya uchun favqulodda muhim, shu sababli ularni boshqalardan ko'ra yaxshi rahbatlantirish lozim bo'ladi, ularning ishini mutlaqo maxfiy saqlash kerak. Ayg'oqchilar ustidan rahbarlik qilish uchun zamonaviy bilimga ega bo'lib, insonparvarlik va adolat, o'ta sinchkovlik va ehtiyotkorlikka ega bo'lish lozim. Ayg'oqchilar besh ko'rinishda bo'ladi: mahalliy, ichki, qaytib keladigan o'lim va hayot ayg'oqchilari, ularning faoliyat uslubi – yechib bo'lmaydigan sir. Mahalliy ayg'oqchilar – dushman mamlakatning mahalliy aholisi ichidan, ichki – uning amaldorlari dushmanlarning bizga yuboradigan ayg'oqchilari, agar qarshi ayg'oqchilar raqibga yolg'on ma'lumotlar bersa, bu ayg'oqchilar o'lim ayg'oqchilar; ma'lumotlar bilan qaytadigan ayg'oqchilar – bu hayot ayg'oqchilari. Urush harakatini boshlashdan oldin ayg'oqchilar orqali dushman to'g'risida batafsil ma'lumotlar olish lozim, jumladan, dushmanning harbiy boshliqlari, qo'riqchilar boshlig'i va qo'riqchi askarlar to'g'risida ma'lumotlar. Keyin ayg'oqchilar yordami bilan raqibni adashtirish kerak. Bularning barchasi yutuqni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ганс Дельбрюк. История военного искусства. – Смоленск: Русич, 2003.

Андриенко В.А. Искусство войны: Древний мир и средние века. – М.: Воен. издат. 1960 г.

Авдиев В.А. Қадимги Шарқ тарихи. – Т.: 1964.

Разин Е.А. История военного искусства (Том I) Воениздат, 1975 г.

Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. O'quv qo'llanma. R.Rajabov. – Т.: «Adib» nashriyoti, 2013.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Qadimgi dunyo harbiy san'ati | 3 |
| Kirish | 3 |
| Qadimgi Misr armiyasi..... | 12 |
| Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida Misr armiyasi (mil. avv. XXIX–XVIII asrlar)..... | 12 |
| Yangi podsholik davrida Misr armiyasi (mil. avv. XVI–XI asrlar) | 18 |
| Qadimgi Mesopotamiya harbiy san'ati..... | 36 |
| Osuriya harbiy davlati | 43 |
| Xett harbiy san'ati | 61 |
| Sak – massaget, skiflarning harbiy san'ati | 71 |
| Qadimgi Eron harbiy san'ati | 85 |
| Fors armiyasining yurish tartibi..... | 95 |
| Harbiy islohot | 97 |
| Gerodot. «Tarix» kitobidan. Fors davlatida aloqa xizmati | 99 |
| Qadimgi hind harbiy san'ati..... | 103 |
| Manu qonunlarida harbiy soha | 106 |
| Mahobhorat yoki Bharata avlodlari jangnomasi | 110 |
| Aleksandrning podsho Por bilan jangi | 113 |
| Qadimgi Xitoy harbiy san'ati | 116 |
| Qadimgi Xitoy harbiy san'ati nazariyasi | 126 |
| Sun-Szi «Urush san'ati»..... | 127 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 133 |

O'quv-uslubiy nashr

RAVSHAN RAJABOV

**QADIMGI SHARQ
HARBIY SAN'ATI**

Muharrir
Gavhar MIRZAYEVA

Badiiy muharrir
Nigora UMARQULOVA

Musahhah
Madina MAHMUDOVA

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10. da berilgan.

Bosishga 28.02.2018-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.

Bosma tobog'i 4,25. Shartli bosma tobog'i 7,14.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.

Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 35.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-71;

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87.

faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



YANGI ASR AVLODI

ISBN 978-9943-20-407-2



9 789943 204072